

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2022 Vol. 3

www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

BOSH MUHARRIR

O’RINBOSARI

Karomat Mullaxo’jayeva

MAS’UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY’ATI

Zaynobiddin Abdirashidov

Karl Rayxl (Germaniya)

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)

Seyhan Tanju (Turkiya)

Almaz Ulvi (Ozarbayjon)

Benedek Peri (Vengriya)

Vahit Turk (Turkiya)

Teymur Kerimli (Ozarbayjon)

Eunkyoung Oh (Koreya)

Mark Toutant (AQSh)

Boqijon To’xliyev

Qosimjon Sodiqov

Hamidulla Dadaboyev

Nurboy Jabborov

G’aybulla Boboyorov

Vali Savash (Turkiya)

Onal Kaya (Turkiya)

Kimura Satoru (Yaponiya)

Aftondil Erkinov

Rashid Zohidov

Otabek Jo’raboyev

Baxtiyor Abdushukurov

Dilnavoz Yusupova

Qo’ldosh Pardayev

Nodirbek Jo’raqo’ziyev

MUNDARIJA

ADABIYOTSHUNOSLIK

Usmon Qobilov

Alisher Navoiy she’riyatida Xizr obrazi badiiy talqiniga doir

4

MATNSHUNOSLIK

Zilola Amonova, Munavvar Olimova

Huvaydoning yangi topilgan she’rlari

21

Parviz Izzatillayev

“Hasht bihisht” va “Majolis un-nafois” asarlarining matniy tadqiqi

36

Dilnoza Rustamova

Alisher Navoiy devonlarining Turkiston va boshqa hududlardagi toshbosma nusxalari

59

LINGVISTIKA

Song Ho-Lim

O’zbek va uyg’ur-arab alifbosining qarindoshlik munosabatlari (Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” asari uyg’urcha tarjimasida aks etgan singarmonizm hodisasi misolida)

78

Jahongir Turdiyev

“Me’rojnoma” asari tilining leksik va morfologik xususiyatlari

93

Anvarbek Turdialiyev

Denov kichik dialektal zonasining xususiyatlariga doir

105

EDITOR IN CHIEF	
Shuhrat Sirojiddinov	
 DEPUTY EDITOR IN CHIEF	
Karomat Mullakhojaeva	
 EXECUTIVE SECRETARY	
Ozoda Tojibaeva	
 EDITORIAL BOARD	
Zaynabiddin Abdirashidov	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	
Seyhan Tanju (Turkey)	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Benedek Peri (Hungary)	
Vahit Turk (Turkey)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Mark Toutant (USA)	
Bakijan Tukhliev	
Kasimjan Sadikov	
Hamidulla Dadaboyev	
Nurboy Jabborov	
Gaybullah Babayarov	
Vali Savash (Turkey)	
Onal Kaya (Turkey)	
Kimura Satoru (Japan)	
Aftandil Erkinov	
Rashid Zahidov	
Atabek Juraboev	
Bakhtiyar Abdushukurov	
Dilnavoz Yusupova	
Kuldosh Pardaev	
Nodirbek Jurakuziev	

CONTENTS	
 LITERATURE	
Usmon Kobilov	
Artistic interpretation of the image of Khizr in the poetry of Alisher Navoi	4
 TEXTOLOGY	
Zilola Amonova, Munavvar Olimova	
Newly found poems of Huvaiddo	21
 Parviz Izzatillaev	
Comparative analysis of “Hasht bihisht” and “Majolis un-nafois”	36
 Dilnoza Rustamova	
Copies of lithographs of Alisher Navoi's diwans in Turkestan and other regions	59
 LINGUISTICS	
Song Ho-Lim	
Historical Relations Between the Uzbek Arabic Script and the Uyghur Ereb Yéziqi: Analyzing Umlaut Phenomenon based on the Uyghur translation of Abdullah Qodiriy's Novel Bygone Days	78
 Jahongir Turdiyev	
Lexical and morphological features of the language of “Mirajname”	93
 Anvarbek Turdialiev	
On minor peculiarities dialectal zone of Denov	105

ADABIYOTSHUNOSLIK
LITERATURE**Alisher Navoiy she'riyatida Xizr obrazi
badiiy talqiniga doir**Usmon Qobilov¹**Abstrakt**

Ushbu maqolada Alisher Navoiy she'riyatida keng tasvir etilgan Xizr obrazi badiiy talqinining ayrim jihatlari yoritiladi. Unda shoir lirikasida Xizr obrazi bajargan poetik vazifalar va obraz vositasida hosil etilgan badiiy manzaralar tahlil etiladi. Shu bilan birga Xizr obrazi talqini bilan bog'liq badiiy detallarga ham e'tibor qaratiladi. O'zbek va umuman Sharq adabiyoti olamini g'oyaviy-badiiy jihatlardan bog'laydigan bir qator syujet va obrazlardan biri ham Xizr timsoli sanaladi. Bu siymoning o'zbek adabiyotida tasvir etilishi masalasi ham aynan mutafakkir ijodkor Alisher Navoiy ijodida o'zining eng yuqori darajasiga ko'tarilganligi ko'rinadi. Shoir lirikasida tasvir etilgan Xizr obrazi talqini masalasi bu timsolning mumtoz adabiyotda tutgan o'rnini ham belgilab beradi. Mazkur maqolada Alisher Navoiy lirikasida Xizr obrazi va u orqali ifoda etilgan masalalar mumtoz poetika jihatidan tadqiq etildi.

Kalit so'zlar: *mumtoz she'riyat, Navoiy ijodi, badiiy obraz va detal, mifik syujet, talqin, ramziylik, Xizr timsoli, tasavvuf, tahlil.*

Kirish

Alisher Navoiy ijodi Sharq, shu bilan birgalikda, jahon badiiy-estetik va falsafiy tafakkuri erishgan barcha yuksak darajalar bilan bo'ylashadi, hazrati inson aql-u shuuriga xos bari bebaho ruhiy-ma'naviy boyliklar aynan ijodkor badiiy tasvir va talqinlarida o'z ifodasini topgani ko'rinadi. Xususan, sharqona qarashlarda durdona bir mavzu sifatida qaraladigan Xizr badiiy-mifologik timsoli bilan bog'liq talqinlar ham shoir ijodida o'ziga xos o'ringa egadir. Gap shundaki, Xizr obrazi shoir ijodida eng ko'p bora murojaat etiladigan

¹*Qobilov Usmon Uralovich* – filologiya fanlari doktori (DSc), professor, Samarqand davlat universiteti.

E-pochta: usmonqobilov82@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-7940-8823

Iqtibos uchun: Qobilov, U. U. 2022. "Alisher Navoiy she'riyatida Xizr obrazi badiiy talqiniga doir". *Oltin bitiglar* 3: 4–20.

obrazlardan hisoblanadi.

Manbalarda bu afsonaviy siymo haqida xilma-xil qarashlar mavjud bo'lib, u "nubuvvat xayli" bilan birgalikda tilga olinadigan siymolardan biridir. Samoviy kitoblar: Zabur, Tavrot, Injil, Qur'onda ham u ayni nom bilan tilga olinmasa-da, Qur'oni karimda "Allohning bandasi" sifatida qayd etiladi. Qur'onda Xizr bilan bog'liq zikr etilgan voqea Muso payg'ambar bilan sodir bo'ladi. Uning islom ulamolari tomonidan Xizr deb yuritilishida fikrlar yakdildir. Shuningdek, Muso qissasi bayon etilgan asarlarda Xizr siymosiga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, Sharq adabiyotidagi an'anaviy "Qisas ul-anbiyo"lar, jumladan, Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy", Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlarida ham ko'rish mumkin. Agar Xizr timsoli "ahli kitob" orasida unga faqat Qur'onda ishora etilgani va shu asos Sharq xalqlari badiiy adabiyotida dilbar siymo sifatida tasvirlanganligi hisobga olinsa, u zot islomiy madaniyat mahsuli ekanligi ayon bo'ladi. Uning siymosi badiiy-falsafiy talqinlarda, afsonaviy-mifik qarashlarda, adabiy-estetik tasvirlarda o'ziga xos tarzda ifodalanadi. U tiriklik, qut-baraka, baxt-saodat, farovon hayot, orzu va umid kabi qarashlarni o'zida ifoda etgan jozibador timsol sifatida tasvir etiladi. Garchi Xizr sharqona adabiyotlarda keltirilsa-da, albatta, unga yaqin talqinlar boshqa manbalarda ham uchraydi. Masalan, eramizgacha bo'lgan uch ming yilliklar davri shumer-akkad adabiyotlarida "abadiy hayot" manbasini topgan va "ikki dengizning tutash joyida" yashaydigan o'lmas bir donishmand haqida so'z yuritiladi. Bu qarashlar Sharqdagi "tiriklik suvi"ni topgan, "ikki daryo birlashgan joyda" yashovchi, yuksak ilm va fasohat sohibi Xizr siymosini xotirga keltiradi. "Qisas ul-anbiyo"larda, chunonchi, Alisher Navoiy qarashlari bo'yicha ham Xizr va Muso muloqoti voqeligi bu siymo haqida qiziq lavhalar taqdim etadi. Unga binoan Muso Yaratuvchidan o'zidan ham yuksak ilm sohibi bilan uchrashish istagi borligini bildiradi. Bu uchrashuv sodir bo'ladi. Voqelik tafsilotlariga ko'ra, Xizr nafaqat o'tmish ilm tajribalariga, balki kelajakda ro'y beradigan hodisalardan ham boxabar bir siymo sifatida namoyon bo'ladi. Bunda e'tiborga molik jihat shuki, Xizr siymosi shu o'rindagina paydo bo'lib qolmasdan, balki avvaldan mavjud shaxs sifatida gavdalanadi. Alisher Navoiy qayd etishicha, u Nuh payg'ambar avlodidan sanaladi. Xizr talqinlarda nabiylar bilan birgalikda badiiy asarlar qahramonlari bilan ham bog'lanib ketadi. Bu Alisher Navoiy qalamiga mansub "Farhod va Shirin", "Sab'ai sayyor" dostonlarida ham uchraydi. Bu holat Xizr tirik siymo sifatida qaralishi jihatidan mantiqiydir.

Sharq xalqlari adabiyotida Xizr timsoli

Sharq xalqlari adabiyotida Xizr timsoli benihoya katta o'rin egallaydi. Ayniqsa, tasavvuf adabiyoti namunalarida bu siymo ifodasi o'zgacha ruh va ma'no kasb etadi. Tasavvuf adabiyotida ham Xizr siymosi talqini Muso va Xizr syujeti irfoniy-majoziy talqinidan kelib chiqadi. Aytish mumkinki, Muso Xizrni istashi va u bilan muloqoti tasavvufda ham timsol-tamsillik, ham ramz-majozlik bobida muhim o'rin tutadi. Bunda Muso sayr-u sulukni ixtiyor etgan solik, Xizr esa murshidi vali timsolida anglanadi. Shuningdek, tasavvufda Xizr ikki xil tabiatda tasavvur etiladi, birinchidan, u vujud shaklida bo'lib, yer yuzida oddiy insonlar qatorida yashaydi, ikkinchidan, ruhiy hodisa, nomoddiy borliq sifatida qaraladi. Ammo asosiy sifati ilmi ladun sohibi ekanligidadir. Bu hol ham Muso va Xizr syujetidan kelib chiqadi. Unda Xizr kelajakda bo'ladigan hodisalarni oldindan anglovchi ilm egasi ekanligi bilan Musoni taajjubga soladi. Shu boisdan Xizrga nisbat beriladigan "tiriklik suvi" tushunchasi ham "hayot manbai", "tuganmas ilm" kabi ma'nolarni ifodalaydi. Voqelikdagi "ikki dengiz qo'shiladigan joy" esa so'fiylar nazdida ikki ilm-ma'rifati: nubuvvat va valoyatning qo'shilishini anglatadi. Shu bois Xizr siymosi ham "nubuvvat xayli", ham "valoyat bahri" bilan bog'lanadi. Sharq adabiyotida Xizr siymosi xayr-u barokat, baxt-u iqbol timsoli bo'lib kelishi ham aynan nubuvvat tarixi va valoyat talqini zamirida yuzaga kelgandek ko'rinadi. Ayni masalada Xizr siymosi bahs ham uyg'otganligi ma'lum. Bunda u ba'zan nabiyalar sirasiga, ba'zan valiylar toifasiga kiritiladi. Biroq ilmi ladun sohibiligidan komil inson qatorida tilga olinadi. Chunki tasavvufda laduniy ilm "xoslar xosi", ya'ni tanlangan shaxslar sirri va komillik belgisini bildiradi.

Ma'lumki, sharqona qarashlarda Xizrning tirikligi masalasi asosiy o'rin tutadi. Bu bilan Xizr zaminiy ruh kasb etadi. Anbiyolar qissalarida ham, tasavvuf arboblari qarashlarida ham Xizr tirikligi zamin bilan bog'lanadi. Bu haqda taniqli sharqshunos olimlar ham o'z qarashlarini ilgari suradi. Xususan, V. Bartold Xizrni keksa kishi qiyofasida yo'liqishi, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi sifatida namoyon bo'lishini qayd etsa, Y. Bertels alohida qirg'oqda yashashi, havoda uchish qobilyatiga egaligi, dunyo bo'ylab sayohatda bo'lishi, dengizda suzuvchilarni boshqarishi, jinlar o'yinidan qutqarishi, o'g'rilik va yong'inlardan asrash haqida fikr yuritadi. M.Piotrovskiy esa "musulmon mifologiyasidagi abadiylik ramzi va tabiatni doimiy yangilab turuvchi sirli personaj shunday ataldi. Xizr o'zining birinchi hayotida o'lim ko'rmadi va Oxirat kunigacha tirik qoldi",

deydi, S.Kaskabosov “mehribonlik, baxt va boylik keltiruvchi”ligiga e’tibor qaratadi. U nutqsiz va ko’rinmas, undan yordam olish yoki yaxshilikka erishish uchun uni ko’rish yo unga ko’rinadigan bo’lish lozimligini aytadi. Buning uchun alanga, chiroq va shunga o’xshash boshqa bir ashyo bilan yorug’lik hosil qilish kerak. Xizr yorug’likda qariya, sayyoh, darvesh obrazida paydo bo’ladi. U oq rangni yoqtiradi”, deydi. G.Potanin esa “Xizr qamchisini ko’targanda (buni u har bahorda qiladi) yer yuzidan qorlar ketadi, muzliklar eriydi, ko’katlar paydo bo’ladi. Har bir inson Xizrni umrida uch bora ko’radi, lekin u ekanligini bilmaydi. U faqir yoki sayyoh ko’rinishida bo’ladi. Agar uni shu vaqtda bilib, baxt so’rasa, u shu insonning butun hayotini baxtiyor etadi. Ammo bu juda kam odamga nasib etadi”, degan fikrlarni bayon etadi. L.Klimovich “Xizr – tiriklik suvi sohibi... yashil kiyim kiygandek yuradi... uning giyohsiz cho’lda paydo bo’lishining o’zi bu sahrani o’t-o’lanlar bilan yashnashi uchun kifoya qiladi”, deydi. Xizr bilan uchrashish motivlari og’zaki adabiyotlarda ham, yozma manbalarda ham talqin etiladi. Xizrning tushda namoyon bo’lishi tasavvuf vakillari hayotida ko’p bora tilga olinadi, ilk so’fiy arboblari: Maruf Karxiy, Ibrohim Adham, Zunun Misriy, Boyazid Bistomiy, Hakim Termiziy, Ibrohim Havvos va boshqalar Xizr bilan shaxsan uchrashganliklari haqida ma’lumotlar berib o’tganlar. Shu tariqa Sharq adabiyotida Xizr siymosi talqinida chuqur ehtirom, samimiy tuyg’u, hayotbaxsh kechinmalar o’z ifodasini topadi.

Navoiy she'riyatidagi badiiy talqini

Bu mavzu talqini Alisher Navoiy she'riyatida o’zining nihoyatda ko’lamdor ifodasini topganligini alohida qayd etish kerak. U shoir she'riyatida qo’llanilgan tarixiy-afsonaviy, adabiy-mifologik obrazlar ichida eng samarali va mahsuldor o’ringa egadir. Xizr obrazi qamrov jihatidan Alisher Navoiy lirikasida Farhod, Majnun, Masih timsollari qatorida turadi.

Ma’lumki, mumtoz she’riyat tajriba va an’analariga ko’ra, muayyan timsol-obraz tasvir etilganda shu obraz bilan bog’liq voqelik-tafsilot va detallar ham o’z ifodasini topadi. Masalan, Farhod (tog’), Majnun (ohu), Sulaymon (uzuk), Muso (aso), Jamshid (jom), Masih (jonbaxshlik), Iskandar (oyna) yoki boshqa obrazlarga murojaat etilganda, aynan shu obraz-timsollar talqini bilan bog’liq tushunchalar ham tasvirga olinadi. Biroq bu singari obrazlar qatorida ular bilan keluvchi detallar ham ramziy-majoziy ma’nolarda aks etadi. Mumtoz lirikada bunday siymolar obrazlaridan ko’ra aynan ular bilan bog’liq detallar badiiy

tasviriga ko'proq e'tibor qaratiladi. Xuddi shu holat Xizr timsoli talqinlarida ham yuz ko'rsatadi. Alisher Navoiy she'riyatida Xizr timsoli bilan "xat", "chashmai hayvon", "obi hayot", "Xizr suyi", "obi hayvon", "hayvon suyi", "Jomi Jam", "Xizr-u Masih", "hayoti jovidoniy", "lab", "Xizrvash", "zuloli Xizr", "umri jovidon", "ter", "dudog'", "bahor", "tush", "orzu" singari badiiy obraz va irfoniy tushunchalar birgalikda qo'llaniladi. Ularning har birini alohida tadqiq etish imkoni bor. Misol uchun "Badoyi ul-bidoya" devonida lab, Xizr, o'lik, Xizr suvi timsol-ifodalari orqali ajoyib estetik fikr va badiiy san'atni ko'rish mumkin.

*Orzu aylar labing ollinda jon bermakni Xizr,
Xizr suyidin o'lik umr aylagandek orzu.*

Bunda "orzu aylamoq" so'zi bayt boshi va oxirida, "Xizr" esa baytning birinchi misrasi oxiri va ikkinchi misrasi boshida takrorlanib betakror bir she'riy san'atni vujudga keltirgan. Ammo bu oddiy so'z takrori emas. Balki unda so'z va timsol ma'no rang-baranglik kasb ettirilgan. Birinchi misrada Xizr "lab" oldida jon berishni orzu aylayotgan bo'lsa, ikkinchi misrada "o'lik" Xizr suvidan umrni orzu qilayotganligi ta'kid etilmoqda. Aslida lab – ilohiy bir fayz, abadiy tiriklik manbaini anglatib, xizrsifatlik ham unga tegishlidir. Bundan ko'rinadiki, birinchi misrada tasvir etilgan haqiqat ifodasi uchun ikkinchi misradagi voqelik majoziy tamsil bo'lib kelayapti. Ya'ni, obi hayot tufayli tiriklikga erishgan Xizr lab lazzatidan jon berishga tayyor. Bu Xizr suvidan tiriklikni istayotgan o'lik holatiga mengzalmogda. Demak, baytdagi "jon bermog" iborasi ham mumtoz tafakkurning asl mohiyatini tashkil etadigan "jonni jononga topshirmog" ma'nosini ifodalamoqda. Bu muqarrar haqiqat. Ammo Sharq falsafasida "o'lmoq", "vafot etmog" ifodasi unchalik ishlatilavermaydi. Uning o'rniga "ketdi", "bordi", "jon berdi", "tark etdi" kabilar ishlatiladi. Chunki sharqona qarashlar bo'yicha mana shu yashayotgan olamimiz birinchisi ham, oxirgisi ham emas. Shuning uchun ham Sharq adabiyotida jon jononga topshirilguncha qancha olamlar bosib o'tilishi darj etiladi. Mumtoz adabiyotimiz buning mohiyatini anglatish uchun ko'plab dilbar obrazlar va obrazli fikrlar bunyod etadi. Alalxusus, asrlar davomida mumtoz adabiyotda yaratilgan Majnun, Farhod, Xizr, Yusuf yoki Vomiq singarilar ham shunchaki bir badiiy obrazlar bo'lib qolmasdan, balki olam va odam, hayot va umr mohiyatini anglash yo'lidagi badiiy talqinlardir. Bundan ko'rinadiki, muayyan ma'noda ushbu obrazlar ham manguulikni ifodalovchi timsollar, badiiy talqinlar hisoblanadi. Ular kechmishi ham mana shu hayotiy ayriliq bilan xotimalanmaydi,

balki o'zga olamda davom etadi. Boshqa xil qilib aytilganda, majoziy ishq haqiqiy ishqqa ko'chadi. Bu Sharq adabiyotida *vahdat maqomi* deb yuritiladi. Mumtoz talqinlarga ko'ra, vahdat maqomi shu qadar buyuklikki, uni anglatish uchun tiriklik timsoli ham majoz bo'lib kelaveradi. Shundan Xizrning ham uning qoshida jonfidoligi ajablanarli emas. Ko'rinadiki, baytda ilohiy fayzni ifodalagan "lab" – tiriklik suvi, barhayot siymo bo'lgan Xizrga esa "o'lik" bilan majozlashadi. Bunda ana o'sha vahdat mayidan sarmaslik holi o'z ifodasini topgan. Bu kabi tasvirlar Alisher Navoiy qalamiga mansub boshqa satrlarda ham namoyon bo'ladi.

*Yuru, ey Xizrikim, hayvon suyidur zahr agar ichsam,
Bu damkim, jomim ul sho'x itlari singan safolimdur.*

Mazkur baytda ham badiiy-ma'rifiy fikr Xizr timsoli talqini bilan yoritiladi. Unda asosiy mulohaza "bu dam" haqida gap boradi. "Bu dam" mohiyati esa obi hayvon, zahar, jom, sho'x, singan safol kabi ramziy timsollar talqinida ifodalanmoqda. Baytda "dam" nafas emas, balki fursat, on ma'nosini bildiradi. Botin ma'nosiga binoan, jom – ilohiy ma'noga to'la ko'ngilni, sho'x – jazba yoki tajallini anglatadi. It – matlab sadoqati, singan safol – dilning ishqdan siniqligi, ozurda va oshuftalik holatini bildiradi. "Jomim ul sho'x itlari singan safolimdur" birikmasi "ko'nglim mahbubaga sadoqatdan uniqqan dildir" yoki boshqa bir qarash bilan aytilganda "ko'ngil ma'shuqa ishq bilan sarmastdir", - tarzida izohlanishi mumkin. Bunda ham yuqoridagi baytda aytilgan "zavq", "fayz" kabi maqom ifodasi bor. Farq, unda bu fayzni "lab" hosil qilgan bo'lsa, endi bu tasvirda "dam" maqomini jazba vujudga keltirmoqda. Endi she'rga tashdan baho berilsa, unda Xizrga murojaat etilib, "bu on tiriklik suvi zahar, chunki bu dam mendagi jom mahbuba itlari oldidagi singan safoldir", - tarzida fikr uqtirilganligi ko'rinadi. Uning ichki ma'no qatlami esa ilohiy tajalli jazbasidan huzurlanayotgan, fayzlanayotgan dil uchun hayot chashmasi ham zahardek tuyulishi darj etilayapti. Bunday hayotiy majozni quyidagicha tasavvur etish mumkin. "It va uning oldida pochoqlangan kosa turibdi. Kosadan suv ichayotgan it o'zida tashnalikdan qoniqish hosil qilayapti". Taxminan mana shunday lavha ushbu bayt zamirida inson mohiyati haqida aytilgan bir haqiqatga kichik majoz vazifasini bajarmoqda. Xizr va obi hayot timsollari esa shu mohiyat ifodasining badiiy jozibasi uchun xizmat qilmoqda. Xuddi shunday farahbaxsh zavq "xarobotda bir qadah sumurish" fursatida ham sodir bo'ladi. Bunday zavqdan bahramand qahramon "agar Xizr o'tirgan bo'lsa ham tiriklik bulog'iga bormaydi".

*Gar xarobat ichra mumkindur sumurmak bir qadah,
Xizr agar o'ltursa bormon chashmayi hayvon sari.*

Xarobot o'z ma'nosida xarob tushunchasini anglatga, ko'chma tarzida esa joy – makon ma'nosida sharobxona, mayxonani bildiradi. Vujud – bashar sifatlarining xarob bo'lishi va ilohiy ma'rifatning uyg'onishi tarzida esa shaxs ma'nosidagi komillikni anglatadi. Bu o'rindagi xarobat tushunchasi yana bir o'zga ma'no bildirib, bir ilohiy ma'rifat dargohini, maqomini anglatmoqda. Irfoniy adabiyotda bu ma'rifat shavqida bo'lmoq va undan bir qadah sumurish zavqiga barobar holga teng boshqa bir maqom e'tirof etilmaydi. Bu nubuvvat silsilasiga tegishli ma'rifatdir. Shundan bo'lsa kerak, nubuvvat ma'rifati ifodasiga Xizr siymosi o'xshash tamsil etib olinadi. Xizrning tiriklik suviga yetaklashi esa ramziy ma'no bildirib, murshidi komilning Haq ma'rifatiga olib borishi tarzida talqin etiladi. Bunda hayot chashmasi – ilohiy ma'rifat bulog'i, ilhom manbasini anglatib kelsa, Xizr shu ma'rifatga undovchi piri aziz timsolini anglatadi. Shu boiski, tarixiy manbalarda bo'lgani kabi badiiy talqinlarda ham Xizrning nabiy yoki valiy siymo ekanligi doimo e'tiborda turadi. Shundan Xizrga nubuvvatning ilhomiy-vahbiy ma'rifati bo'lmasa-da, valoyatning vahbiy ilmi nisbat beriladi.

Ba'zi qarashlarda Xizr suvi xuddi may singari tunganmas ma'rifat ma'nosida ham talqin etiladi. Bunday ramzni ifodalovchi timsollar mumtoz she'riyatda ko'plab uchraydi. Shu o'rinda komil inson tushunchasi bilan bog'liq bir masalani aytib o'tish kerak. Bunda mumtoz adabiyot olamida ifodalanadigan ilohiy ma'rifat boshqa inson va shaxslarda ko'rilmaydigan hamda faqat komil insongagina tegishli bo'ladigan vahbiy-laduniy ilmlarni bildiradi. Shundan ilohiy ma'rifatdan ko'ngil fayzlanishi Xizr va unga daxldor hayot chashmasidan ham yuksak rutba kasb ettiriladi. Alisher Navoiy she'riyatida Xizr timsoli qator ramz va majoz ma'nolarini ifodalasa-da, u haqidagi haqiqatlar ham hech vaqt e'tibordan chetda qolmaydi. Balki asardagi badiiy-ma'rifiy talqin aynan shu haqiqatlar hikmatiga tayanadi.

*Xizr yuz mehr ila tutqan jomi Jamdin yaxshiroq,
Tutsa may durdini yuz taroju yag'mo birla do'st.*

Baytda asosiy e'tibor “may durdi”ga qaratiladi. O'z ma'nosida “may” sarmast etuvchi ichimlikni, “durd” esa may quyqasini bildiradi. Buni xuddi “xol” (qora xol), “ko'z” (qaro ko'z), “lab” (qizil lab) timsollaridagi sifatlanishga o'xshatish mumkin. Ya'niki, may – irfoniy ma'noda majoziy ishqni anglatga, may durdi – haqiqiy ishqni

yoki may ishqni o'zini bildirsa, may durdi undan paydo bo'ladigan haqiqiy ilhomni anglatadi. She'ning tashqi mazmuniga nazar tashlansa, unda "do'st yuz qahr-u g'azab bilan uzatgan may qoldig'i Xizr yuz mehr-u muruvvat bilan tutgan Jamshid jomidan afzal"ligi haqida so'z borayapti. Bu o'rinda "Xizr yuz tavallo bilan uzatgan Jomi jamdan yaxshiroq" may durdi do'stga tegishlidir. Do'st tushunchasi ham mumtoz talqinlarda ko'p ma'no ifodalaydi. Uning ilk yaqin kishi ma'nosi irfoniy talqin uchun majoz sanaladi. Shundan kelib chiqib piri aziz, do'sti komil, Haq ifodalari ham do'sti yor sifatida ishlatiladi. Shu bois do'st uzatgan may durdi – keng ma'nodagi ma'rifatni anglatadi. Uning Xizr tutgan jomi Jamdan afzalligi ham shundadir.

Xizr va Masih obrazlari talqini

Alisher Navoiy she'riyati poetikasida bu xarakterli obrazlar talqini garchi she'riy san'at – talmeh deb yuritilsa-da, ular mohiyat e'tibori bilan u yoki bu asarning butun badiiy xaritasi bilan bog'langan bo'ladi. Boshqacha aytilganda, shoir timsollarga murojaat etar ekan, she'ning umumruhi shu timsol xarakteriga hamohang bir hissiyotni aks ettiradi. Alisher Navoiy lirikasida shu an'ana asosida Xizr va Masih obrazlari talqiniga ko'p bora murojaat etilganligi ko'rinadi. Eng muhimi shoir o'zga bir ijod tajribasida kuzatilmagan tarzda bu timsollardan radif sifatida foydalangan. Shoir lirik devonlarida "Xizr-u Masih" radifli bittasi sakkiz, ikkinchisi yetti baytdan iborat bo'lgan ikkita g'azal uchraydi. Bunday tajriba, ya'ni tarixiy-afsonaviy yoki adabiy qahramonlar timsoli orqali radif yaratish Sharq, jumladan, o'zbek she'riyatida kam uchraydi. Bu ikki g'azal baytlari tashqaridan qaralganda biri ikkinchisiga mazmun va badiiyat jihatlardan yaqindek (nazira-o'xshatmadek) taassurot qoldiradi. Tasvir va talqinning ichki mohiyatidan kelib chiqib mulohaza yuritilganda esa batamom o'zga manzaralarga ham duch kelinadi. Birinchi g'azalda "nishon", "nihon", "makon", "nogohon", "hamon", "notavon", "jon", "zamon", "gumon" so'zlari qofiya bo'lib kelgan bo'lsa, ikkinchisida "munfail", "xijil", "muttasil", "o'ylabil", "munfail", "mustaqil", "muzmahil", "muntaqil" so'zlari qofiya vazifasini o'tagan. Radif esa har ikkala g'azalda ham bir xil "Xizr-u Masih" shaklida ifodalangan. Aslida radif ba'zi adabiyotshunoslar ta'rif etganidek, she'rda qofiyadan keyin takrorlanib keluvchi so'z yoki so'zlar qatori emas, balki klassik she'riyatning behad mohir san'ati ekanligini namoyon etuvchi poetik qatlamidir. Uni muayyan she'ning ma'no qirralarini o'zida jo etgan ko'p ma'noli, shakldosh badiiy qurilma tarzida qabul qilish lozim. Aks holda tahlil etilayotgan

she'r matni o'z badiiy-estetik olami va jozibasini ochmaydi. Asar oddiy so'zlar qurilmasidan iborat bo'lib qoladi. Haqiqiy mumtozlikka da'vo etilayotgan yoki ko'rilyotgan asarning esa har bir so'zi, elementi o'z poetikasiga ega bo'lmog'i kerak. Bu hol, ayniqsa, "Xizru Masih" singari original radifga ega bo'lgan g'azallarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu g'azallardagi Xizr va Masih ham har bir misra yoki baytda bir poetik ma'nosi, badiiy vazifasi bilan namoyon bo'ladi. Uning qanday mazmun ifodalaganini esa g'azallarning qayd etilgan qofiyalari belgilab bergan. O'z navbatida qofiya ham faqat ohangdoshlik unsuri bo'lib qolmasdan, asar ma'no-mohiyati bilan ham chambarchas bog'lanib ketadi. Har ikkala g'azal mahbuba xat va la'lini Xizr-u Masih afsona-yu mo'jizalari bilan qiyosan talqin etadi.

Ma'lumki, mumtoz she'riyatimizda xat va la'lu lab obrazlari Xizr, Masih timsollari singari nihoyatda sermahsuldir. Mumtoz she'rda xat, la'l, yuz, qosh, zulf kabi obrazlar tasvir etilganda, odatda ularning egasi (ma'shuqa) yashiringan holda "ey" undovi yoki "ing" egalik qo'shimchasi orqali ifoda etiladi. She'rxonning o'zi badiiy obyektini uqib olishi lozim bo'ladi. Mazkur g'azallarda ham shunday yo'l tutilgan.

*Ey, xatu jonbaxsh la'lingdin nishon Xizr-u Masih,
Balki bu ikki uyotidin nihon Xizr-u Masih.*

G'azal matla'sida ma'shuqa uzvlari bo'lgan xat va la'l ta'rifu tavsif etilgan, yor g'azal misrasining tagqatlamida aks etgan, xati Xizr, la'li Masihsifat ekanligi aytilgan. Xat – ko'plikda xutut bo'lib, lug'aviy ma'noda chiziq, iz, yozuv, xat ma'nolarini bildiradi. She'riy talqinda lab ustidagi tuklar, yangi chiqqan mo'ylab ma'nolarida ishlatiladi. Bular so'zning tashqi ma'nolari, timsol sifatidagi ichki-botiniy ma'nosi esa butunlay o'zga bir ruhiyatni ifoda etadi. U kibriyolik, ulug'lik, buyuklik maqomini anglatadi va ba'zan haqiqati muhammadiya, ba'zan esa vujud martabasiga yaqin bo'lgan ruhlar olamiga ishora etadi. Lug'aviy chiziq ma'nosidan kelib chiqib esa mahbuba yuziga latofat va nazokat bilan chizilgan xat-chiziqni bildirib, barcha go'zallik va husnu jamol nuqtalari jamlangan xilqatni anglatadi. Xat va yuzni ko'rish kasratni (ko'plik olami) vahdat (birlik olami) deb bilish holiga tenglashadi. Bu nisbatan vahdat-ul vujud qarashini bildiradi. Bunda vahdat kunduz bo'lsa, kasrat kechadir. Yana bir talqinlarga ko'ra, yuz sahifani, boshqacha aytganda Mus'hafni, xat undagi yozuvni ham anglatish vaziyatlari uchraydi. Gohida xat g'ayb olami sifatida ham talqin etiladi. Shu boisdan Xizrni ham xijolatda qoldiradi. Xuddi shunday la'l timsoli

ham tashqi-ichki ma'no ifodalariga egadir. She'riyat poetikasida ikki tushunchaning ichki o'xshashligi hamda bog'liqligi jihatidan bir ma'no ifodalashi xususiyati, she'riyatki mavjud, uning o'lmas qonuniyatidan, shoirki borki, uning yuksak badiiy mahoratidan darak berib keladi. Bunda hayotiy va badiiy mantiq nihoyatda teran bo'lmog'i lozim. Xususan, xat va la'l timsollari talqini ham shunday iste'dodni taqozo etadi. Ushbu g'azalda xatning "tuk" shakl ma'nosi Xizrning ma'nosi "ko'kat" bilan birinchi taqqosdayoq o'zaro uyg'unlik kasb etgan.

Buyuklik, ruhlar yoki g'ayb olamiga ishora etilganda ham Xizr (boshqa emas) unga majoziy surat bo'la oladi. *La'l* ham arabcha so'z bo'lib, qizil rangli tosh, qizil siyoh bilan yozilgan xat ma'nolarini bildiradi. Shundan istioraviy tarzda majozan labning qizilligiga nisbatan olingan, aksincha qo'llanishi (la'l o'rnida tosh yoki siyohni atash) esa umuman badiiy mantiqqa ziddir. Toshning "qizilligi" bilan labning "qizilligi" metaforik tarzda la'l timsolini vujudga keltirganligi hayotiy va badiiy mantiqning reallashganligiga dalildir. Labning ikkilamchi ma'nolarda Masihning jonbaxsh nafasiga mengzalishi esa har tomondan san'atkorlik namunasi sanaladi. U botinan soflik, noziklik, husnu jamol go'zalligiga ishora etadi. La'l tasvirda labni ifoda etar ekan, labning ichki ma'nosiga ham e'tibor berish talab etiladi. Lab – botiniy ma'noda mavjudotga vujudiy fayz yetkazuvchi rahmoniy nafas, undan maqsad esa ilohiy kalomdir. Bunda kalom ilohiyot olamidanda nozil bo'lgan so'zlarni anglatadi. U oshiq'larga fayz va xushnudlik keltiradi, nabiylarga farishta, valiylarga ilhom orqali nuzul etiladi. Lab kalom bo'lsa, uning qizilligi shu kalomning g'oyat serma'noligiga nisbatan qo'llanadi. La'l-u lab birikma tarzida ishlatilganda ham, alohida la'l, lab shakllarida tasvir etilganda ham shu ma'nolar nazarda tutiladi.

Xizr afsonaviy siymo, Masih esa Ruhulloh laqabi bilan yuritiladigan nubuvvat xaylining oxirigidan oldingi vakilidir. Manbalarda Xizr ham ahli nubuvvat qatorida tilga olinadi, lekin nabiyy sifatida emas. U Qur'onda nabiylardan tashqari zikr etilgan siymolardan. Xizr islomiy manba va adabiyotlarda talqin etiladi, boshqa manbalarda Xizr timsoli talqiniga duch kelinmadi. Shu jihatdan al-Xizrni Sharq-islom inkishofi deb aytish mumkin. "Qissas-ul anbiyo"larda Masih singari Xizr qissasi ham alohida tasvirlangan. Ishqiy-irfoniy she'rlarda yor uzvlariga talmih sifatida taqqoslanadi. Ushbu g'azallarda bu ikki siymo haqidagi qarashlar "sof badiiy rang"da tasvirlanadi. Mazkur g'azal baytida aytilishicha, xatdan nishon Xizr, jonbaxsh la'ldan alomat Masihdir

(demak, nubuvvat bir tomondan Haq sirlarining vojibligiga ham dalil ekan). Bugina emas, Xizr va Masih shu ikkisidan, ya'ni xat va la'ldan uyalganidan yashirinib olgan ekan. Xuddi shunga o'xshash talqin shoirning keyingi "Xizru Masih" radifli g'azali matla'sida ham bor:

*Ey, xatu la'ling qoshida munfail Xizr-u Masih,
Ne yoshunmoqdur, gar ermaslar xijil Xizr-u Masih.*

Baytda "sening xat va la'ling qoshida Xizr va Masih xijolatda, agar Xizr va Masih xijolat chekmaganlarida yashirinib yurishlari-ning hojati ham yo'q edi", - tarzida fikr yuritilgan. Endi xatu la'l qoshida Xizr va Masihning "uyalishi", "xijil bo'lishi" chinakam badiiy talqinning go'zal namunasi. Keyingi baytlarda xat, lab, Xizr, Masih timsollarining makoniy tasviri tilga olinadi. Bu o'rinda lab istioraviy tarzda emas, balki o'z shaklida ishlatiladi, ya'ni, xat lab ustida, lab esa yuz ustida joylashgani kabi Xizr obi hayvon, Masih esa quyosh uzra makon tutganligi aytilgan. Obi hayvon, ya'ni tiriklik bulog'i aytaylik insoniyatning asriy orzularidir. Bu afsonaviy Jamshidning ichgan bilan tamom bo'lmaydigan jomidagi mayga o'xshashdir. Ular Sharq she'riyatida boqiy ishq sharobiga qiyoslanadi. Quyoshning Masihga makonligi masalasi talqini she'riyatning o'ziga xos kashfiyoti deb aytish mumkin. Chunki sharh, tafsil va tafsirlarda "Masihning quyoshga fanoligi" darj etilmaydi. Xuddi shunday qiyos tasviri ikkinchi g'azalda ham bitilgan. Unga ko'ra, Xizr obi hayvonga, Masih quyoshga intilgani singari xat labga, lab esa yuzga tutashligi aytiladi.

*Xat labing uzra, labing yuz uzradur qilg'on kibi,
Obi hayvon-u quyosh uzra makon Xizr-u Masih.*

* * *

*Xat labingg'a muttasildur, lab yuzinggakim erur,
Obi hayvon-u quyoshqa muttasil Xizr-u Masih.*

Bu baytlardagi odatdagi timsollarga yuz, obi hayvon, quyosh obrazlari qo'shilganligini ko'ramiz. Ularning ham zohiriy va botiniy ma'nolari bor. Misol uchun yuz asliy ma'noda mahbuba uzvi bo'lib, botinan ilohiy husn mazxari yoki tajalliy nurini anglatadi. Obi hayvon abadiy hayot baxsh etuvchi chashma, Xizr shu chashmadan ichgan. Irfoniy adabiyotlarda avliyoning so'zi, nafasi yoki ishq chashmasi, muhabbat bulog'i sifatida talqin etiladi va obi jovid, obi baqo, obi zindagon, obi Xizr, obi Iskandar deb ham yuritiladi. Obi Iskandar deb yuritilishiga sabab Iskandar Xizr bilan shu tiriklik

suvini izlaganligi sarguzashti bilan bog'liq. Badiiy talqinlarga ko'ra, Quyosh to'rtinchi osmondagi sayyora, nur manbai hisoblanadi. She'riyatda Masih "nur-ruh" sifatida ham tasvirlanadi. Uning samoga yuksalganligi va to'rtinchi osmon, ya'ni quyosh galaktikasidan joy olganligi talqini adabiyotlarda ko'p uchraydi. Shundan Quyosh Masih payg'ambarning makoni, asl manbai deb qaralib, Sharq she'riyatida oshiq va ma'shuqa ramzlarini ifodalovchi bulbul va gul, parvona va sham', nay va qamishzor juftliklari qatoridan o'rin olgan ajoyib o'xshatishdir. "Navodir ush-shabob" devonidagi *"Sarig' libos aro ul no'shi labki xandondur, Erur Masihki xurshid ichinda pinhondur"* – satrlari, "Favoyid ul-kibar"dagi *"Sahob soyasidin ham qachon ibo qilg'ay, Agarchi bo'lsa Masiho quyoshqa hamsoya"* – bayti yoki "Badoye ul-bidoya" devoni sahifalaridagi *"Safhayi husnungda jonbaxsh iring, ey siyminbadan, O'xshashurkim aylagay Iso Quyosh ichra vatan"* – misralari ayni o'xshatishning rangin talqinlari sanaladi.

*Ul yoshung'oy zulmot ichra, bu falakdin yonmag'ay,
Ko'rsalar xattu labingni nogohon Xizr-u Masih.*

Baytda taqqoslar davom ettirilib, Xizr va Masih sening xat-u labingni nogohon ko'rib qolsalar, biri zulmatda yashirinib qoladi, ikkinchisi falakdan qaytib tushmaydi, – degan fikr bayon etilgan. Bu o'rinda zulmat – obi hayvonga, falak – quyoshga ishoradir. Navbatdagi baytlarda yana bir-biriga yaqin talqinlarga duch kelinadi.

*Gar Masih-u Xizr ko'zdin g'oyib o'lmishlar, ne tong,
Sabzavu obi hayotingdur hamon Xizr-u Masih.*

* * *

*O'ylakim Xizru Masih ollida sabza birla su,
Xattingu la'ling qoshinda o'ylabil Xizr-u Masih.*

Asar ma'nosiga ko'ra, "Masih va Xizr ko'zdan g'oyib bo'lsalar ajab emas, chunki Xizr-u Masih sening sabza-yu obi hayoting" degan fikr o'rtaga tashlangan. Undagi sabza so'zi "ko'kat", "yashillik" ma'nosida Xizr (yashil) so'zining mazmuniga nisbatan olingan. Obi hayot Xizr timsoli bilan bog'liq bo'lsa-da, bu o'rinda Masihning tirikligiga qiyosanlanadi. Shu misralarga kelib Xizr-u Masih bitta tiriklik tushunchasida birlashadi. Garchi Xizr abadiy tirik siymo bo'lib, nabiy va avliyolarga madadkor sifatida e'tirof etilsa ham, anbiyolar tarixida Muso Kalimulloh bilan birga sayohatidan boshqa holatlar e'tirofi ko'zga tashlanmaydi. "Qissas-ul anbiyo"larda Xizrning Masih alayhissalom bilan muloqoti yoki biror sarguzashti

uchramaydi. Bu o'rinda Xizr va Masihning yonma-yon tasviri tiriklik, jonbaxshlik xususiyatlari bilan badiiy mushtaraklik kasb etadi. Agar masala nubuvvat tarixi nuqtayi nazaridan olinganda edi, radif "Xizr-u Masih" emas, balki "Xizr-u Muso" tarzida bo'lardi. Tiriklik Yaratuvchi irodasi bilan Xizrga ham, Masihga ham xos. Xizrning tirikligi obi hayvon vositasida bo'lsa, Masihniki bevositadir. Ayni fikrlar va timsollar ikkinchi g'azalda ham keltirilib, o'zaro yaqin bir talqinni yuzaga chiqargan. Unga binoan, Xizr va Masih qarshisida ko'kat va suv turganidek, sening xating-u la'ling qoshida Xizr va Masih shay, degan xulosa mavjud.

*Yo'q daming, balkim nasimi gulshaning aylar sahi.
Bo'lsalar muhlik marazdin notavon Xizru Masih.*

* * *

*Chun Masihoso labingdin Xizr umri kasb o'lur.
Bo'lsalar andin, ajab yo'q, munfail Xizru Masih.*

Keyingi baytlarda esa oldingilardek hamohanglik ko'zga tashlanmagan bo'lsa-da, ichki bir talqinlar ko'rinadi. Mumtoz she'riyatda "yo'q og'iz" yoki "ko'rinmas bel" kabi tasvirlar bor. Bunday talqinlar ilohiy sirlar nazokatini anglatadi. Ushbu misradagi "yo'q dam", ya'ni sezilmas nafas ham shunday talqindir. Endi shu yerga kelib lab timsoli dam, yel bilan vazifa almashgan. Demak, baytda "sening yo'q daming, gulshaning nasimi Xizr-u Masihni (tirik siymolarni) halok aylaydi", - tarzida ma'no ifodalangan.

Ikkinchi g'azalda esa jonbaxsh labing (Masihoso lab) kasbi boqiy umr (Xizr umri) tuhfa etishdir. Bundan Xizr-u Masih xijolatda qolsalar ajab emasdir. Ko'rinadiki, birinchi baytda ma'shuq nafasi halok etuvchi bo'lsa, keyingi baytda tiriklik in'om etuvchi. Baytlararo ichki bog'liqlik "abadiy tirikni o'ldirish, mangu o'likni tiriltirish", ya'ni nafas o'ldiruvchi, lab tiriltiruvchi sifatida talqin etilgan. Keyingi baytlarning o'zaro bog'lanishi ham shu nuqtada amalga oshadi. Shu yerga kelib yana la'l tilga olingan. Umuman, g'azalda la'l – lab, lab ikki baytda qo'llanmagan, ikki baytda murojaat etilmagan. Oshiq avvalo xatga, keyin la'lga oshuftadir. Ammo faqat la'lgina hayot inomchisidir. Shu ikkovi oshiqqa jon bo'lgan. Xizr-u Masih bu baytda undalma bo'lib kelmoqda.

*Xattidin la'lig'a yettim, la'lidin toptim hayot,
Ul ikav bo'ldi manga, ey xasta jon, Xizr-u Masih.*

* * *

Lablaringdur Masih-u Xizrg'a nutqu hayot,

Kim emishlar ishlariga mustaqil Xizr-u Masih.

Ikkinchi g'azal baytida ham lab va la'l timsollari ajoyib tarzda almashib qo'llangan. Ya'ni, la'l –lab, la'l – lab, lab – lab shaklida bu timsol ishlatilgan va maqtagacha davom etgan. Ushbu baytda ham lab sifatida qo'llanib, ma'lum ma'noda tasvir va fikr to'lqini kul'minatsionlashib borgan. Ma'shuq labidan Masih va Xizrga hayot nutqi yog'iladi. Kimki Xizr va Masih bu ishlarini (tirikligi va tiriltirishi) o'zlari qilgan desalar yanglishadilar. Oldingi baytda Xizr-u Masihlik oshiq jonga qaratilgan bo'lsa, endi bu sifatlar talqini mahbub mo'jizalari ekanligi ta'kid etilgan. Birinchi g'azalda to'qqiz marotaba "Xizr-u Masih" va bir marta "Masih-u Xizr", ikkinchi g'azalda "Xizru Masih" to'qqiz bora, "Masih-u Xizr" va "Masihoso", "Xizr" bir martadan qo'llangan. G'azal baytlarining ma'no-man-tig'iga ko'ra, har bir o'rinda turli ma'no vazifalarini bajarib, asar jozibadorligini misradan misraga oshirib borishga yo'naltirilgan.

*Soliki foni tavajjuh din taraddud aylamas,
Yetsalar mahviy shuhud bo'lg'ay zamon Xizr-u Masih.*

* * *

*Sabzai xat ko'rguzub, jonbaxsh labdin so'z degach,
Bo'ldilar ul hayrat ichra muzmahil Xizru Masih.*

Navbatdagi baytga kelib, orifona fikr yuzaga chiqqanligini "solik", "foni", "tavajjuh", "mahviy", "shuhud" tushunchalari izohlaydi. Bunda solik tariqat yo'lini tutgan, Haqqa yuzlangan va fano dayridagi ilohsevar qalb timsoli sanaladi. Ma'shuqa namoyon bo'lgan on Xizr-u Masih fanoga yuz tutgan solikdek tavajjuhga taraddud eta olmaydi. Bunda o'zga bir ma'noda "mahviy shuhud"-ligini tajalliyligiga ishora deyish mumkin. Ma'lumki, tajalli nubuvvat tarixida Muso Kalimulloh qissalarida qayd etiladi, xolos.

Chunonchi "Qisas-ar Rabg'uziy"ning "Musoning diydor tilagani qissasi"da tajalli yuqori maqomda aytilgan. Unda tajallining toqqa tushgani va uning erib ketganligi hamda bu holatni ko'rgan Musoning hushsiz yiqilgani voqeasi bayon etilgan. Bu ma'lum ma'noda bayt mazmuniga hamohangdir. Ikkinchi g'azal baytiga nazar tashlansa, unda yori aziz yashillik namoyon etib, jon beruvchi labdan so'z aytsa Xizr-u Masih hayrat ichra qolib mahv bo'ladi – degan ma'noni uqish mumkin. Bu satrlardagi "so'z" tushunchasi oldingi "mahviy shuhud" singari yana bir mazmunga ko'ra tajalliga nisbatan anglansa, hayrat baytlararo bog'liqlikni ta'minlaydi. G'azallarning maqta' qismlarida tasvir jozibadorliklari yanada oshirilgan. Bu baytda ko'p ma'noli "dayr piri", "mug'bacha"ga

murojaat etilgan. Dayr – dunyo, olam va olamlar, mayxona nazarda tutiladi. Dayr piri shu o‘rinlar rahnamosi. Mug‘bacha asl ma’noda mayxonada may tashuvchi bo‘lib, majozan ishq mayi va imyon ma‘rifatini tarqatuvchilar ramzini ifodalaydi. Shundan obi hayvon ishq chashmasi, muhabbat mayiga qiyos etiladi. Shu jihatdan dayr piri yordam beradi, mug‘bacha may bilan tiriltiradi. Navoiy sen bu ikkovini Xizr-u Masih deb gumon qilishing mumkin. Bunda mug‘bachaning may bilan tiriltirishi Masih mo‘jizasiga, dayr piri imdodi Xizr madadiga taqqoslangan.

*Dayr piri qo‘ldabon, tirg‘uzdi maydan mug‘bacha,
Ey Navoiy, bu ikovni qil gumon Xizr-u Masih.*

* * *

*O‘ldi hajridin Navoiy, tushsalar bu hajr aro,
Tong yo‘q o‘lmoq bu sarodin muntaqil Xizr-u Masih.*

Ikkinchi maqta’ hajr mavzusi talqini bilan xotima topgan. Navoiy yor hajrida mahv bo‘ldi. Agar bu hijronga tushsalar, bu hajr saroyidan Xizru Masih ham o‘tsalar ajab emas. Hajr uyini dunyo deb bilsak, uni Xizr va Masih ham vaqtiki tark etadi. Bu “Barcha tirik jon o‘lim sharbatini totguvsidir”, - hadisiga ishora. Gap shundaki, mumtoz she‘riyatda ko‘p bora talqin etiladigan hajr va hijron mavzusi tushkun, umidsiz, absurd – bema’no bir holat emas. Uni tanganing bir tomoni, orombaxsh visolga tayyorgarlik fasli deb anglamoq lozim. Chunki Sharq shoirlari, xususan, Alisher Navoiydek daholar uchun hayot va yashash singari mohiyatdan ulug‘ ne‘matning o‘zi yo‘q edi. Bu yo‘lda Xizr va Masih yanglig‘ oshufta xat-u jonbaxsh la‘l zavqi qalb va ruhiyat, ong va shuurni band etishining o‘zi dalildir.

Xulosa

Xullas, hazrat Alisher Navoiy o‘z ijodi davomida doimo boqiy mavzu va timsollar talqiniga murojaat etib kelgan. Inson ruhiy kamoloti, fazl-u karami, ma’naviy bedorligi uchun qayg‘udosh bo‘lib kelgan. Alisher Navoiy she‘riyatida Xizr timsol she‘r badiiyati uchun ham, mazmuni uchun ham benihoya teran va ko‘lamdorlikka egadir. Xizr timsolining Alisher Navoiy ijodidagi badiiy ifodasi o‘zining barcha qirralari bilan namoyon bo‘lib keladi va bu ikkinchi bir tomondan shoir ijodi barakasini ham anglatadi.

Adabiyotlar

Комилов, Нажмиддин. 2005. *Хизр чашмаси*. Тошкент: Маънавият.

- Комилов, Нажмиддин. 2012. *Маънолар оламига сафар: Алишер Навоий ғазалларида шарҳлар*. Тошкент: Тамаддун.
- Мифологический словарь (Гл. ред. Е.М.Мелетинский). 1991. Москва: Энциклопедия.
- Навоий, Алишер. 1987. *Мукаммал асарлар тўплами. Биринчи том. Бадойиъ ул-бидоя*. Тошкент: Фан.
- Навоий, Алишер. 1987. *Мукаммал асарлар тўплами. Иккинчи том. Наводир ун-ниҳоя*. Тошкент: Фан.
- Нурмонов, Ф. 2007. *Хизр образи генезиси ва унинг ўзбек фольклоридаги талқини*. Фил. фан. ном. дисс. авт. Тошкент.
- Рабғузий, Носириддин Бурҳониддин. 1990. *Қисаси Рабғузий*. 1-китоб. Тошкент: Ёзувчи.
- Рабғузий, Носириддин Бурҳониддин. 1991. *Қисаси Рабғузий*. 2-китоб. Тошкент: Ёзувчи.
- Сирождидинов, Ш. 2011. *Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили*. Тошкент: Академнашр.
- Ҳаққул, И. 2007. *Навоийга қайтиш*. Тошкент: Фан.

Artistic interpretation of the image of Khizr in the poetry of Alisher Navoi

Usmon Kobilov¹

Abstract

This scientific article covers some aspects of the artistic interpretation of the image of Khizr, widely depicted in the poetry of Alisher Navai. It analyses the poetic tasks performed by the image of Khizr in the poet's lyrics, and the artistic scenes created in this way. In this case, attention is paid to the artistic details related to the interpretation of the image of Khizr. Khizr is one of the plots and images linking the world of Uzbek and East-tern literature in general with the ideological and artistic side. It is evident that the question of depicting this figure in Uzbek literature to the highest heights rose in the creativity of the thinker and creator Alisher Navai. The question of interpreting the image of Khizr described in the poet's lyrics determines the place of this symbol in classical literature. In this article the image of Khizr in the lyrics of Alisher Navai and the problems expressed through him are investigated from the standpoint of clas-

¹Usmon U. Kobilov – Doctor of Philological Sciences (Dsc), Samarkand State University.

E-pochta: usmonqobilov82@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-7940-8823

For citation: Kobilov, U.U. 2022. "Artistic interpretation of the image of Khizr in the poetry of Alisher Navoi". *Golden scripts* 3: 4–20.

sical poetics.

Key words: *classical poetry, Navai's creativity, artistic image and detail, mythic plot, interpretation, symbolism, symbol of Khizr, mysticism, analyses.*

References

- Komilov, Najmiddin. 2005. *Khizr spring*. Tashkent: Manaviyat.
- Komilov, Najmiddin. 2012. *Journey to the World of Meanings: Commentary on Alisher Navoi's Ghazals*. Tashkent: Tamaddun.
- Mifologichesky slovar' (Gl. ed. E.M. Meletinsky). 1991. Moscow: Encyclopedia.
- Navoi, Alisher. 1987. *The Complete Works. The first roof. Badoyi' ul-bidaya*. Tashkent: Fan.
- Navoi, Alisher. 1987. *The Complete Works. The second roof. Navodir un-nihoya*. Tashkent: Fan.
- Nurmonov, F. 2007. *The genesis of the image of Khizr and its interpretation in Uzbek folklore*. Candidate Thesis Abstract. Tashkent.
- Rabguzi, Nasiruddin Burkhaniddin. 1990. *The story of Rabguzi*. Book 1. Tashkent: Yozuvchi.
- Rabguzi, Nasiruddin Burkhaniddin. 1991. *The story of Rabguzi*. Book 2. Tashkent: Yozuvchi.
- Sirojiddinov, Sh. 2011. *Alisher Navoi: comparative-typological, textological analysis of sources*. Tashkent: Akademnashr.
- Haqqul, I. 2007. *Return to Navoi*. Tashkent: Fan.

MATNSHUNOSLIK

TEXTOTOLOGY

Huvaydoning yangi topilgan she'rlariZilola Amonova¹Munavvar Olimova²**Abstrakt**

Xojanazar Huvaydo Qo'qon adabiy muhitining yetuk namoyandasi va sohibdevon shoirdir. Uning lirik merosi devon holida nashr qilingan. Maqolada shoirning nashr etilgan devoni bilan Buxoro adabiyot va san'at muzeyida saqlanayotgan "Huvaydoyi Chimyoniy" deb nomlangan toshbosmasi o'zaro qiyoslanildi. Shuningdek, ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan bir munojot g'azali hamda Navoiy g'azaliga bog'langan bir musaddasi ilk marta e'lon qilinmoqda. G'azal va musaddas matni eski o'zbek yozuvidan joriy yozuvga o'girilib g'oyasi va badiiy xususiyatlari asosida tahlil qilindi. Tahlilda g'azalning tasavvufiy mazmuniga maxsus e'tibor qaratildi.

Kalit so'zlar: *matnshunoslik, qo'lyozma, toshbosma, bayoz, g'azal, munojot, devon, Qur'on, hadis, tasavvuf, tariqat, solik.*

Kirish

Mumtoz adabiyot saralangan, ya'ni vaqt va davr sinovlaridan o'tib, millatning ma'naviy-axloqiy ehtiyojlariga javob bera oladigan badiiy ijod namunalari majmui hisoblanadi. O'z ma'naviy merosi bilan xalqimiz kamolotiga beminnat hissa qo'shgan mutasavviflardan biri - Xojanazar Huvaydodir. Tasavvuf she'riyatining yirik vakili hisoblangan Huvaydo Farg'ona viloyati Chimyon qishlog'ida Qashqardagi Ofoqxo'ja eshonning muridlaridan bo'lgan G'oyibnazar so'fi oilasida dunyoga kelgan. Yoshlikdan tahsil va ijodga alohida ahamiyat qaratgan Huvaydo mumtoz she'riyatning

¹Amonova Zilola Qodirovna – filologiya fanlari doktori, Buxoro davlat universiteti.

E-pochta: zilolajonamonova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-7710-3065

²Olimova Munavvar Sultonovna – tadqiqotchi, Buxoro davlat universiteti.

E-pochta: m.s.olimova@buxdu.uz

Iqtibos uchun: Amonova Z. Q., Olimova M. 2022. "Huvaydoning yangi topilgan she'rlari". *Oltin bitiglar* 3: 21–35.

g'azal, murabba', musaddas, musamman va ruboiy kabi janrlarida ijod qilgan. She'rlari xalq orasida juda mashhur bo'lgan. Huvaydo axloqiy-didaktik yo'nalishdagi mazmunan teran, yoshlar tarbiyasi uchun xizmat qiladigan umrboqiy asarlari bilan adabiy maktab yarata olgan shoirdir.

Huvaydodan bizgacha bir devon meros qolgan. Shoir sulolasidan yetishib chiqqan Salohiddin Soqib bobosi merosini mukammal devon holiga keltirgan. 1907-yili Toshkentda "Kitobi eshon Huvaydoyi Chimyoniy" nomi bilan toshbosma devoni bosilgan. Kitob so'ngida "Rohati dil" dostoni berilgan. Adib devoni qayta-qayta ko'chirilgan bo'lib, birgina O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida shoirning yettita qo'lyozmasi va "Rohati dil" asarining o'n ikkita toshbosma nusxasi saqlanmoqda. Yuqorida keltirilgan qo'lyozma va toshbosmalar asosida 2005-yil Toshkent "Yangi asr avlodi" nashriyotida olim Ismatulloh Abdulloh hamda Qodirqul Ro'zmatzoda tomonidan nashrga tayyorlangan Xojanazar Huvaydo devoni chopqilingan. 2017-yili Toshkentda "Yangi asr avlodi" nashriyotidan Xojanazar Huvaydo "Devon"ining ikkinchi to'ldirilgan nashri chiqdi. 2009-yili Toshkentdagi "Meriyus" bosmaxonasida Suyuma G'aniyeva tomonidan nashrga tayyorlangan "Huvaydo. Ko'ngil dardi" deb nomlangan she'riy kitobi ham chop etilgan edi.

Huvaydo ijodi diniy manba sifatida

Huvaydo o'z she'rlariga, asosan, Qur'on oyatlari, hadislar va tasavvufiy g'oyalarni singdirgan. Bu esa o'sha davr ilm ahli uchun qo'llanma vazifasini o'tagan, deyish mumkin. Shoir hayoti va ijodini o'rgangan olim Qodirqul Ro'zmatzoda ham: "Xojamnazar Huvaydo aksariyat g'azal va muxammaslarini, ruboiylarini tariqat va ma'rifat yo'lidagi muridlari uchun dastur sifatida yozib qoldirgan" [P'yzmatzoda 2020], – deydi. Demak, diniy maktab va madrasalarda Qur'oni Karim, Hadisi sharif bilan birgalikda diniy-tasavvufiy mavzudagi g'azallar ham o'qitilgan. Shuning uchun uning qo'lyozmalari keng nusxada turli hududlarda tarqalgan. Bunga asos sifatida Buxoro xalq amaliy san'at muzeyi qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan Huvaydo kitoblarini keltirish mumkin.

1. Huvaydo g'azallari, duolar va hadislar majmuasi. 28053/11-raqamli qo'lyozma.

2. Huvaydo g'azallari. 10796/11-raqamli qo'lyozma.

3. Huvaydo g'azallari. 12307/11 raqamli qo'lyozma (1901-yilda ko'chirilgan).

4. Rohati dil. Huvaydo g'azallari. Muhimoti muslimin. Jamlanma (1869-yil ko'chirilgan).

5. Huvaydo, Mashrab, Amir Axtam sahoba g'azallari, islom tarixiga oid she'rlar. 11779/11-raqamli qo'lyozma.

6. Bayoz. Muqimiy, Haziniy, Muxlis, Huvaydo g'azallari. 12443/11-raqamli toshbosma.

7. Huvaydoyi Chimyoniy g'azallari. 163-raqamli toshbosma.

Yuqorida nomlari keltirilgan qo'lyozma va toshbosmalardan ham ma'lum bo'ladiki, Xojanazar Huvaydo g'azallari Qur'on va hadislar, islom tarixiga oid she'rlar bilan yonma-yon holda o'qitilgan. Bayozlarda ham shoir g'azallari mutasavvif so'fiylar ijodi va ayrim duolar bilan birgalikda jamlangan.

Shulardan biri 1900-yilda chop etilgan, 120 sahifadan iborat "Huvaydoyi Chimyoniy" nomli Buxoro toshbosmasi bo'lib, mazkur manba bugungi joriy yozuvga transliteratsiya qilindi. Ushbu toshbosma bilan 2005-yil Toshkentda "Yangi asr avlodi" nashriyotidan chiqarilgan Xojanazar Huvaydo "Devon"i hamda 2017-yilda qayta chop etilgan shu kitobning ikkinchi to'ldirilgan nashri o'zaro taqqoslandi. Ta'kidlash joizki, mazkur toshbosmani nisbatan to'liq devon toshbosmasi deyish mushkul. Chunki unga 197ta g'azal, bitta musaddas va yettita ikki baytli she'r kiritilgan va u an'anaviy devonlar kabi Basmala bilan boshlangan. Devondagi ilk she'r hamd xarakteridagi g'azaldir. Ammo toshbosmada an'anaviy devonchilikda kuzatiladigan holatlarga qat'iy rioya qilinmagan o'rinlar ham mavjud. Ya'ni hamd g'azaldan so'ng keltirilishi lozim bo'lgan munojot-g'azal toshbosmaning 13-sahifasida berilgan. Ahamiyatli jihatlaridan biri esa ushbu g'azal hozirga qadar nashr qilingan Huvaydo devonlarida uchramaydi. Quyida yangi topilgan g'azal matnini (hamda uning toshbosmadan fotonusxasini 1-ilovada) to'liq keltiramiz:

*Xudovando, tuman turluk balodin asrag'il, yo Rab,
Jami' bandalarni ul vabodin asrag'il, yo Rab.*

*Panoh bergilki, har bechorani vasvosi shaytondin,
Berib tavfiq-u toat, ko'nglimizni asrag'il, yo Rab.*

*Mani, o'jiz qulungni fitnayi oxir zamondin,
Baloni daf' aylab ham xatodin asrag'il, yo Rab.*

*Murakkab aylading hirs-u havo-u nafsi shaytondin,
Tarahhum aylagil, nafsi havodin asrag'il, yo Rab.*

Ilohi bandaga zavqi mutohhar aylagil ro'zi,

Ki man bechorani zavqi riyodin asrag'il, yo Rab.

*Jami' bandalarni ofiyat tut muftadi'lardin,
Ki nomahram zani shum, behayodin asrag'il, yo Rab.*

*Ki har vaqt, har zamon qilg'il kishig'a yaxshilig' har dam,
Tutub ko'z yaxshiliq tuxmi yomondin asrag'il, yo Rab.*

*Har kecha-kunduz Xudoga bandalikni qil mudom,
Oxir go'rda bo'lursen ham musofir, asrag'il, yo Rab.*

*Oli mag'firat qil bu Huvaydoning gunosini,
Ijobat qil duosini, gunahdin asrag'il, yo Rab.*

Matndan ma'lum bo'ladiki, g'azal boshdan-oxir Robbiga munojot tarzida bitilgan va *yo Rab* undalmasi radif tarkibida kelgan. Bunda shoir yer yuzida mavjud bo'lgan turli balolardan, ofat va davosiz dardlardan nafaqat o'zini, balki jami' bandalarni asrashini Xudovanddan yolvorib so'raydi.

Ma'lumki, Bahovuddin Naqshband ta'limotiga ko'ra, darvesh (so'fiy)lar jamiyatning ma'naviy hayoti uchun mas'uldirlar: Xudo avliyolarni xalq yukini ko'tarish uchun yaratgan. Avliyo – jahonning nuri, insonlar ko'zining gavhari, Muhammad Mustafoning izlaridan borgan va u kishining nafasidan bahramand bo'lgan odamdir. Diniy va tasavvufiy g'oyalar ruhida tarbiyalangan Huvaydo ham ijodkor sifatida o'zini jamiyat va xalq taqdiri uchun mas'ul, deb bildi. Buni quyidagi baytda ham ko'rish mumkin:

*Panoh bergilki, har bechorani vasvosi shaytondin,
Berib tavfiq-u toat, ko'nglimizni asrag'il, yo Rab.*

Har bir insonga nafs qutqusidan, shayton vasvasasidan panoh berishini o'tinib yolvorgan shoir ikkinchi misrada Allohdan tavfiq-u toat berib, ko'ngillarni asrashini so'raydi. Ko'ngil esa tasavvuf adabiyotida alohida obraz darajasiga ko'tarilgan tushunchadir. Ko'ngil pokligi va unga erishish so'fiylar nazdida eng yuksak pog'onalardan biridir.

G'azalning keyingi misralarida shoir o'zining Haq oldida ojiz bir qul ekanligini aytib, oxir zamon fitnalaridan, xato qilishdan, turli balolardan asrashini Robbidan o'tinib so'raydi:

*Murakkab aylading hirs-u havo-u nafi shaytondin,
Tarahhum aylagil, nafi havodin asrag'il, yo Rab.*

*Ilohi, bandaga zavqi mutohhar aylagil ro'zi
Ki, man bechorani zavqi riyodin asrag'il, yo Rab.*

Bu o'rinda Allohning *Rahim* sifatiga urg'u berilgan, chunki har qanday banda borki, xato qiladi va tavba qilib Robbidan kechirim so'raydi. Tasavvufdagi *xavf* maqomida solik qalbi ishonchdan, imon aminidan chiqish, ikkilanish holatida bo'ladi. Vaqtinchalik shayton nayrangi ham ko'ngilga xavf-qo'rquv soladi. Solik azobdan emas, balki, nafs makridan qo'rqadi.

Jami' bandalarni ofiyat tut muftadi'lardin

Ki, nomahram zani shum, behayodin asrag'il, yo Rab.

Avliyosifat adib bid'atchilardan nafaqat o'zini, balki butun jamiyatni ham uzoq tutishni, ya'ni sog'lom saqlashini, yana nomahram, shum niyatli ayoldan, behayolardan asrashini so'raydi. Baytda keltirilgan "*shum*" so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagi ma'nolari berilgan: 1) yomon fikrli, niyati buzuq, yaramas; 2) baxtsizlik yoki halokat keltiruvchi; 3) qo'lidan har qanday yomonlik keladigan, ayyor; 4) yaramas qiliqlar qiladigan, sho'x [Ўзбек тилининг изоҳли луғати 2006]. Ushbu izohlardan uchtasi shoir maqsadini ochishda qo'l keladi. Shuningdek, baytdan xalqdagi "Bir ayolning makri 40 tuyaga yuk bo'ladi", – degan maqol mazmuni ham anglashiladi.

Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarida *shum* so'zi nafsni tavsiflashda qo'llanilgan. Yassaviy har vaqt nafs haqida gapirganida unga inson kamolotiga xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatida *nafsi shum* deb baho beradi. Shuningdek, shoir *nafsi bad*, *nafs yo'li*, *nafs ilgi* singari istioralarni ham qo'llab, to'g'ridan to'g'ri nafsqa qarshi kurashni, uning yo'rig'iga yurmaslikni targ'ib etadi. Tahlil qilinayotgan g'azal muallifi Huvaydo ham Yassaviy izidan borib nafsni ojiz bandalar uchun yengish qiyin bo'lgan yovuz kuch deb qoralaydi va Allohdan uning makridan panoh so'raydi.

Ki har vaqt, har zamon qilg'il kishig'a yaxshilig' har dam,

Tutub ko'z yaxshiliq, tuxmi yomondin asrag'il, yo Rab.

G'azalning yettinchi baytida shoir lirik chekinish qiladi, o'ziga va atrofida qilargacha kishilarni hamisha o'zgalarga yaxshilik qilishi va buni mezon deb bilishi lozimligini uqtiradi. Yaratgan Robbidan esa yomonning tuhmatidan asrashini, faqat yaxshiliklar ato etishini so'raydi. Yaxshilik hamisha hamma uchun nurli chiroq va u xalq hayotini yoritib turadi. Ayni masala xalq maqollarida va juda ko'p shoirlar ijodida o'z aksini topgan.

Har kecha-kunduz Xudoga bandalikni qil mudom,

Oxir go'rda bo'lursen ham musofir, asrag'il, yo Rab.

*Oli mag'firat qil bu Huvaydoning gunosini,
Ijobat qil duosini, gunahdin asrag'il, yo Rab.*

Munojot g'azalning so'nggi ikki baytida bandalarga umr-ning o'tkinchiligi, oxir-oqibat hamma qabrga borishini unutmaslik, toki go'rda musofir bo'lib azob chekmaslik uchun Xudoga kecha-kunduz toat-ibodat qilib, odamlarga yaxshilik qilishni bir dam xayoldan chiqarmaslik kerakligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga o'z gunohlarining Alloh tomonidan mag'firat etilishi, duolarining ijobat bo'lishi va qayta gunoh qilishdan U zotning o'zi asrashini so'raydi. Mutasavvif shoir o'zi komil inson bo'lishga harakat qildi va ahli xoslar qalbida Allohga bo'lgan ilohiy ishq dardini alanga oldirish, nafsni o'ldirish, bu dunyoning o'tkinchi va bevafo ekanligini eslatish, oddiy avom ongida esa imon-e'tiqodni mustahkamlash orqali ijtimoiy muammolarni oqilona hal etishga umid bog'ladi. Shu bois, uning butun ijodida diniy ma'rifat va ilohiy ishq targ'ibi, komil inson shaxsini shakllantirish yetakchi o'rin egalladi.

Xojanazar Huvaydoning "Asrag'il, yo Rab" radifli munojot g'azali aruzning hazaji musammani solim (V- - -/ V- - -/ V- - -/ V- - -) vaznida yozilgan.

Ayrim toshbosmalarda bo'lgani kabi mazkur manbada ham g'azal tarkibidagi ba'zi so'zlar tushib qolgan. Bu holat she'rning uchinchi va yettinchi baytlarida ko'zga tashlanadi. Har ikki baytda *yo Rab* so'zlari keltirilmagan. G'azal vazniga va oldingi baytlar tarkibidagi radiflarga asoslanib, ushbu so'z g'azalning joriy yozuvdagi variantida tiklandi.

Huvaydo musammatlari

Bizgacha Xojanazar Huvaydoning "Kitobi eshon Huvaydoyi Chimyoniy" she'riy devoni, "Rohati dil" manzumasi va "Hikoyati Sulton Ibrohim Adham" asari to'liq holda yetib kelgan. Shoirning 2005-yili nashr etilgan "*Devon*"i hamda uning 2017-yildagi ikkinchi to'ldirilgan nashri shoir ijodini nisbatan to'liqroq qamrab oladi. "*Devon*"da uch yuz yetmishta g'azal, beshta mustazod, uchta muxammas, qirq bitta murabba va yigirma sakkizta ruboiy o'rin olgan. Ammo ushbu nashrlarda musaddas va musammanlar uchramaydi. Shoirning 1961-yili "O'z SSR davlat badiiy adabiyot" nashriyotidan chiqqan (V.Zohidov va S.G'aniyeva nashrga tayyorlagan) "Huvaydo. Tanlangan she'rlar" kitobida bir nechta g'azallar bilan birga bitta musaddas va bitta musamman kiritilgan. 1900-yili Toshkentdagi Ilin litotipografiyasida bosilgan "Huvaydoyi Chimyoniy" nomli Buxoro toshbosmasida shu kunga qadar nashrlarda uchramagan yana

bir yangi topilmasi – sakkiz bandli tasdis-musaddasi borligi ham aniqlandi. Mazkur musaddas Alisher Navoiyning *Shabiston ichra kiringach, sham'larning nurin etting gum...* deb boshlanuvchi g'azaliga tasdisdir.

Mumtoz adabiyotimizda g'azal asosida yaratilgan musammatlar salmoqli o'rin egallaydi. Bunday xarakterdagi she'rlarning o'ziga xos xususiyati – ular boshqa shoirlar tomonidan yaratilgan g'azal va ba'zan shoirning o'z g'azali asosida bitiladi. G'azal asosida yozilgan musammatlarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Muxammas. 2. Musaddas. 3. Musabba'. 4. Musamman [Носиров 1979, 119].

Musaddaslar muxammaslar kabi yaratilish xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1) mustaqil yaratilgan musaddaslar. Ular Sharq adabiyotshunosligida forsiy "tab'i xud musaddaslar" istilohi bilan ham yuritiladi;

2) tazmin musaddas, ya'ni o'zga shoir tomonidan yaratilgan g'azallarning vazni va qofiyasiga mos yaratilgan musaddaslar.

Mumtoz adabiyotda, odatda, taxmis muxammaslar ko'p uchraydi. Bunda muallif o'zga shoir yoki ba'zida (juda kam hollarda) o'z g'azalini asos – zamin qilib olib, shu mavzuni davom ettirgani holda, vazn, qofiya va radifni saqlab beshlik yaratadi. Bunda asos qilib olingan g'azaldagi har bir baytning yuqori qismiga uch misra qo'shiladi. Maqta' bandda taxmis bog'layotgan shoirning taxallusi ham keltiriladi. Mumtoz janrlarda barakali ijod qilgan Alisher Navoiy o'zining "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida o'nta muxammas kiritgan. Bularning barchasi taxmis muxammas bo'lishi bilan birga, ikkita musaddasi ham Lutfiy g'azallariga tazmin sifatida yaratilgan.

*Jonim o'rtarga ul o'tlug' chehra gulzori Xalil,
Oni ravshan aylagan gugird o'ti yonida nil,
Yo rab, ul husnu jamol avjida yuz ming oy-u yil,
Ne jamolingg'a zavol o'lsun, ne husnungga badil,
Ey, jamoling loyazolu bebadal husnung jamil,
Oy yuzungdur ahsani taqvim uchun ravshan dalil*

[Навоий 1987, 600].

Biroq mumtoz adabiyot tarixida tasdis musaddas bitish hodisasi juda kam uchraydi. She'riyatda Navoiyni o'ziga ustoz bilgan Huvaydo uning an'analarini davom ettirib, tasdis-musaddas yozadi. O'zga shoir g'azaliga taxmis bog'lash – bu go'yo shu shoir bilan ijodiy hamkorlik va muayyan ma'noda adabiy musobaqaga kirishishdir. Shuning uchun ham ijodkorlar, o'z taxmislarini badiiy mahorati

yuksalgan pallada yoza boshlaganlar. Bunda g'azal muallifi bilan unga taxmis bog'layotgan muallif o'rtasida mushtarak dunyoqarash, estetik ideal hamohanglik va g'oyaviy yaqinlik bo'lishi zarur. Taxmis muallifi g'azalda keltirilgan fikrlarni mantiqan rivojlantirib, uni o'z ijodiy g'oyalari bilan to'yintirishi va boyitishi kerakki, natijada, vujudga kelgan she'r unga asos bo'lgan g'azal bilan uyg'unlashib, bir muallif tomonidan yaratilgandek tasavvur uyg'otadi. Xuddi shu holat Huvaydoning Alisher Navoiy g'azaliga yozgan tasdis musaddasida namoyon bo'lgan (2-ilovada musaddasning tosh-bosma nusxasi taqdim etildi).

Tazmin-musaddasning joriy yozuvdagi tabdili:

*Guliston ichra yetgach maqdaming tashrifi ma'sum,
Navogar bo'ldi-bo'ldi qamar yillar afg'onidur qum-qum.
Gulistoningda yo'l tobmoqq'a had tobmas raqibi shum,
Jamoling partavi olamni ravshan qilmish, ey maxdum.
Shabiston ichra korgach sham'larni nurin etting gum,
Kecha yorug'roqo'lg'och tiyraroqo'lg'on kabanjum.*

*Ko'zimda jilvagar bo'lsang, na bo'lg'ay,ey mohitobon,
Firoqing shiddatini qilma go'yo jismim ichra jon.
Hayotim boisisan, sani aziz, jondan aziz jonon,
Erurlar odamiga yori jononsiz jahon zindon.
Chu sensen ayni insoniyat,o'lsang diydadin pinhon,
Qorong'udur jahon andog'ki, ko'zda bo'lmasa mardum.*

*Nigorim zulfig'a suvni sepibo'lgonda yig'larmen,
Ko'rib ko'z -qoshig'a vusmani surganda yig'larmen.
Berib ziynat manga boqmayo'tib turganda yig'larmen,
Mani Majnun ko'rubon itlari hurganda yig'larmen.
Xaloyiq kulmangiz,o'z holima ko'rganda yig'larmen,
Junun ko'rgilki, el holimg'a yig'larlar, kelur kulgum.*

*Jahonda bahri ummondek purofat bahrlar kamdur,
Jami bahri ummon uzra yozg'on, chunki badg'amdur.
Bilingkim, ishq bahri oldida ummon bir namdur,
Muhit hajri ulug'daryoyi Qulzum, balki Tamtamdur.
Agarchi ishq bahri hajr daryosidin a'zamdur,
Va lekin gar kichikroqdur, pur ofatlik erur Qulzum.*

*Vujudum raxtini ul ko'yi tufrog'ingga sotg'oymen
Murodimdur, o'zimni itlarning sonig'a qotqoymen.*

*Ko'yingda xasta bo'ynumni iting bo'ynig'a chotg'oymen,
Ne tunkim, xor-xoro ustida ko'yingda yotg'oymen.
Na kun bo'lg'ay sharobi vaslidun bir qatra totg'oymen,
Degaymenkim, yonim ostidadur sinjob ila qoqum.*

*Jahonda jahd qilg'il, istagil bir yori ma'quli,
Bo'lur shirin so'zungni qadrdon ollida maqbuli,
O'zi xushfahm bo'lsun, boqmag'il har nadur g'uli,
Qaro ko'zda javohir bil, ichida bo'lsa gar muli.
Agar ma'shuqi zebo bo'lsa, ne barlos-u ne lo'li,
Nafis yer bo'lsa kolo, mulki ne Bag'dod-u ne Torum.*

*Qilay tahrir tilg'a joriy uljomi maysofiy,
Qilib kavkab jalojil majlisining oy erur vofiy.
Quyosh jomig'a quymish zarf i vahdatdin mayi shofi,
Azal soqiysi ilkidin ichib bir jomigulfomiy.
Quyoshdek to'la davri kubdur og'zidin mayi sofiy,
Digar bo'ldi quyosh avlo bukim, garduncha bo'lg'ay xum.*

*Zamona ahlidin bo'lmas musallam asli behbudung,
Vafo qilmas, ulus savdosidin hargiz manga sudung.
Fanoo'tig'ao'rtonsun, fanoyi jismi farsudung,
Kuyub to bo'lg'ucha kul bo'lmag'oy zohiro't-u dudung,
Navoiy, shahr eli ashg'olidin gum bo'ldi maqsudung.
Bulardin istasang maxlas, fano dashtida bo'lg'il gum.*

G'azal asosida yaratilgan musammatlar orasida muxammas ko'rinishidagi she'r turi ko'proq yaratilgan bo'lsa-da, musammatning tasdis turi mavjudligi ham e'tirof etilgan [Халлиева 2019, 22]. Navoiy ijodida ham Lutfiy va Husayniyning ayrim g'azallariga muxammas va musaddas bog'laganligini ko'rish mumkin.

Ta'kidlash lozimki, musammatlarning bandlar chegarasi g'azaldagi baytlar soni bilan bir xil bo'ladi. Biroq g'azal asosida musammat yozilayotganda, g'azaldagi ayrim baytlarga musammat bog'lanmasligi, ya'ni musammat yozgan shoir g'azalni "qisqartirib" olishi mumkin. Aynan shu holat Huvaydo musaddasida ham kuzatiladi. Tasdisga asos bo'lgan Navoiy g'azali, aslida, hajman to'qqiz baytdan iborat. Ammo musaddas holida tasdis bog'langanda, uning bir bayti qoldirilib, sakkiz band holiga keltirilgan. G'azaldagi quyidagi bayt Huvaydo musaddasida uchramaydi:

Otang oy-u onang xurshid edi erkinki, sen tug'dung,

Vale husn-u latofatda ne ab o'xshar sanga, ne um.

Bundan tashqari, musaddas bandlarining ketma-ketligi tasdis bog'langan g'azal baytlari tartibi bilan mos emas, ya'ni baytlar o'rni almashgan. Navoiy g'azalining matni quyidagicha:

*Shabiston ichra kirgach, sham'larning nurin etting gum,
Kecha yorug'roq o'lgach, tiyraroq bo'lg'an kebi anjum.*

*Chu sensen ayni insoniyat, o'lsang diydadin pinhon,
Qorang'udur jahon andoqki, ko'zda bo'lmasa mardum.*

*Ne tunkim, xoru xoro ustida ko'yungda yotqaymen,
Degaymenkim, yonim ostidadur sinjob ila qoqum.*

*Otang oyu onang xurshid edi erkinki, sen tug'dung,
Vale husnu latofatda ne ab o'xshar sanga, ne um.*

*Agarchi ishq bahri hajr daryosidin a'zamdur,
Va lekin gar kichikroqdur, pur ofatroqdurur Qulzum.*

*Quyoshdektur to'la kup og'zi davridin mayi sofiy
Ki, gar bo'ldi quyosh avlo bukim, garduncha bo'lg'ay xum.*

*Agar ma'shuqi zebo bo'lsa, ne barlosu ne lo'li,
Nafis ar bo'lsa kolo, mulki ne Bag'dodu ne Torum.*

*Xaloyiq kulmagin o'z holima ko'rganda yig'larmen,
Junun ko'rgilki, chun dardimg'a yig'larlar, kelur kulgum.*

*Navoiy, shahr eli ishg'olidin gum bo'ldi maqsudung,
Bulardin istasang maxlas, fano dashtida bo'lg'il gum*

[Навоий. 1987, 286].

Buxoro toshbosmasidagi musaddas bilan Alisher Navoiy-ning 20 jildlik "Mukammal asarlar to'plami" 6-jildi – "Favoyid ul-kibar" devoni 406-raqamli ushbu g'azal matni qiyoslaganda, ma'noga ta'sir qiladigan va ma'noga ta'sir qilmaydigan farqli o'rinlar aniqlandi. G'azalning matla'si va ikkinchi bayti Huvaydo musaddasining birinchi va ikkinchi bandlari so'ngida keltirilgan. G'azaldagi "sham'larning" so'zi "sham'larni" tarzida, "o'lgach" so'zi "o'lg'och", "bo'lg'on" so'zi "o'lg'on" tarzida berilgan. Bunday tafovutli so'zlar bayt ma'nosiga ta'sir qilmaydi.

G'azalning uchinchi bayti Huvaydo musaddasining beshinchi bandida, birinchi misrasi o'zgargan holda berilgan. Alisher Navoiyda quyidagicha:

Ne tunkim, xoru xoro ustida ko'yungda yotqaymen,

Degaymenkim, yonim ostidadur sinjob ila qoqum.

Huvaydoda esa:

Na kun bo'lg'ay sharob vaslidun bir qatra totg'oymen.

Degaymenkim, yonim ostidadur sinjob ila qoqum.

Huvaydo tasdis bog'laganda, g'azalning to'rtinchi baytini tushirib qoldirgan, beshinchi baytini esa musaddasning to'rtinchi bandi oxirida keltirgan. G'azalning oltinchi bayti musaddasning yettinchi bandiga tafovutli o'rinlar bilan ifoda etilgan. Navoiy g'azalining oltinchi bayti quyidagicha:

Quyoshdektur to'la kup og'zi davridin mayi sofiy

Ki, gar bo'ldi quyosh avlo bukim, garduncha bo'lg'ay xum.

Huvaydoda “Quyoshdektur” – “Quyoshdek”, “to'la”- “to'ladur”, “kup” - “ko'b” va “og'zi davridin” jumlasini “duri og'zidin” tarzda o'zgartirilgan. Mazkur tafovutlar ma'noga ham ta'sir qiladi. Navoiy asarlari lug'atida “davr” so'zining aylana, tevarak, aylanish, zamon, vaqt kabi ma'nolari berilgan. “Kup” so'zi may quyiladigan katta sopol idish ma'nosida bo'lib, Navoiy misrada may solingan idish quyoshdek to'la bo'lib, sof, toza may idish og'zida aylanishini aytgan bo'lsa, Huvaydo misrani “Quyoshdek to'la va ko'pdur og'zida toza may” ma'nosida qo'llagan. Keyingi misraning birinchi so'zi “Ki, gar” – “Digar” tarzida o'zgartirilgan. G'azaldagi yettinchi bayt musaddasning oltinchi bandida, sakkizinchi bayt esa uchinchi bandida tafovutli farqlar bilan berilgan. Navoiy g'azalida quyidagicha keltirgan:

Xaloyiq kulmagin o'z holima ko'rganda yig'larmen,

Junun ko'rgilki, chun dardimg'a yig'larlar, kelur kulgum.

Huvaydo musaddasida “kulmagin” so'zini “kulmangiz”, “chun dardimg'a” jumlasini “el holimg'a” tarzida qo'llagan. G'azal maqta'si esa o'zgarishsiz berilgan. Alisher Navoiy va Huvaydoning mazkur she'rlaridagi tafovutlarni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Alisher Navoiy g'azali baytlari	G'azal matni	Huvaydo musaddasi bandlari	Musaddasda keltirilgan g'azal matni
1-bayt	Shabiston ichra kirkach, sham'larning nurin etting gum, Kecha yorug'roq o'lgach, tiyraroq bo'lg'an kebi anjum.	1-band	Shabiston ichra kirkach sham'larninurin etting gum, Kecha yorug'roq o'lg'och tiyraroq o'lg'on kabi anjum.
2-bayt	Chu sensen ayni insoniyat, o'lsang diydadin pinhon, Qorang'udur jahon andoqki, ko'zda bo'lmasa mardum.	2-band	Chu sensen ayni insoniyat, o'lsang diydadin pinhon, Qorong'udur jahon andog'ki, ko'zda bo'lmasa mardum.
3-bayt	Ne tunkim, xoru xoro ustida ko'yungda yotqaymen, Degaymenkim, yonim ostidadur sinjob ila qoqum.	5-band	<u>Na kun bo'lg'ay sharob</u> <u>vaslidun bir qatra</u> <u>totg'oymen,</u> Degaymenkim, yonim ostidadur sinjob ila qoqum.
4-bayt	Otang oyu onang xurshid edi erkinki, sen tug'dung, Vale husnu latofatda ne ab o'xshar sanga, ne um.	-	Ushbu baytga taxmis yozilmagan
5-bayt	Agarchi ishq bahri hajr daryosidin a'zamdur, Va lekin gar kichikroqdur, pur ofatroqdurur Qulzum.	4-band	Agarchi ishq bahri hajr daryosidin a'zamdur, Va lekin gar kichikroqdur, pur ofatlik erur Qulzum.
6-bayt	Quyoshdektur to'la kup og'zi davridin mayi sofiy Ki, gar bo'ldi quyosh avlo bukim, garduncha bo'lg'ay xum.	7-band	<u>Quyoshdek to'ladavri</u> <u>kubdur og'zidin</u> mayi sofiy, Digar bo'ldi quyosh avlo bukim, garduncha bo'lg'ay xum.
7-bayt	Agar ma'shuqi zebo bo'lsa, ne barlosu ne lo'li, Nafis ar bo'lsa kolo, mulki ne Bag'dodu ne Torum.	6-band	Agar ma'shuqi zebo bo'lsa, ne barlosu ne lo'li, Nafis er bo'lsa kolo, mulki ne Bag'dodu ne Torum.
8-bayt	Xaloyiq kulmagin o'z holima ko'rganda yig'larmen, Junun ko'rgilki, chun dardimg'a yig'larlar, kelur kulgum.	3-band	Xaloyiq kulm angiz , o'z holima ko'rganda yig'larmen, Junun ko'rgilki, el holimg'a yig'larlar, kelur kulgum.
9-bayt	Navoiy, shahr eli ishg'olidin gum bo'ldi maqsudung, Bulardin istasang maxlas, fano dashtida bo'lg'il gum	8-band	Navoiy, shahr eli ishg'olidin gum bo'ldi maqsudung. Bulardin istasang maxlas, fano dashtida bo'lg'il gum.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash o'rinlidir. Mumtoz adabiyotda tazmin-musammatlar biror shoirga izdoshlik, maslakdoshlik, uning g'azalidan ta'sirlanish, ilhomlanish, unda o'z fikr-kechinmalariga hamohanglik ko'rish asosida yuzaga kelgan. Huvaydo ham o'z musaddasida asos qilib olgan Navoiy g'azalidagi fikrlarni rivojlantirgan, kechinmalarni badiiy sharhlab, mavzuni kengaytirgan. Bunda Alisher Navoiy bilan musaddas yaratuvchisi bo'lmish Huvaydoning tafakkur va taxayyuli uyg'unlashganligini ko'rish mumkin. Ijodi tasavvuf g'oyalari yo'g'rilgan Huvaydo o'z musaddasida Navoiy kabi ilohiy ishqni tarannum etgan. "Navoiy mutafakkir shoir sifatida Alloh - Olam - Odam munosabatlarini teran badiiy talqin qilib, ko'plab mav'iza she'rlar, falsafiy mushohadalari mahsuli bo'lmish hikmatli bayt-u misralar tizgan. Orif shoir sifatida Huvaydo ijodida ham pand-u nasihat yetakchi o'rin tutadi. Chunki Navoiy kabi Huvaydo ham so'zni ma'rifat quroli deb bilgan" [Ochilov 2023, 46].

Huvaydo turli janrlarda qalam tebratar ekan, har bir janrda o'zining badiiy mahoratini namoyon eta olgan. She'riy shakllarning yangi imkoniyatlarini kashf qilishga intilgan.

Uning g'azallari, mustazodlari, musaddas-u muxammaslari o'quvchida zavq-shavq uyg'otadi, oliy insoniy fazilatlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shu bois olimi Suyuma G'aniyeva: "Shoir ishq majoziy hayotda ham, ishq haqiqiy hayotda ham ajib ehtiros bilan, najib dardmandlik bilan qalam tebratadi. Shoir she'riyatida didaktik ohanglar ham yetakchi o'rin tutadi. Lekin ular quruq shunchaki pand-u nasihatlar emas, ularning asosida g'amdan, nochorlikdan yaralgan donolikni uqamiz. Shoirning qator g'azallarida isyonkorona ruh shu qadar yolqinlik, beixtiyor otash haroratini his etamiz. Tasavvufiy g'azallarda esa e'tiqodda ustuvorlik, iymonda poklik tarannum qilinadi, ruhiyatni Haq sari izchil yo'naltirishga da'vat etiladi" [Huvaydo 2009, 4] – deb yozgan edi.

Bugun Huvaydo asarlari o'rganilib, chop etilmoqda. Shoir adabiy merosini butun mukammalligi bilan o'rganish bugungi mumtoz adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar

Алишер Навоий. 1987. *Бадоеъ ул-бидоя*. Мукаммал асарлар тўплами.

Йигирма томлик. Биринчи том. Тошкент: Фан.

Бухорий. 1991. *Ал-жомиъ ас-саҳиҳ*. 1-китоб. Тошкент.

Болтабоев, Ҳ. 2004. Мумтоз сўз қадри. Адабий-илмий мақолалар.

- Тошкент: Адолат.
- Бобораҳим Машраб. 1990. *Меҳрибоним қайдасан*. Тошкент. “1900” ھويداي جمانى. Buxoro toshbosmasi.
- Ҳувайдо. 2005. *Девон*. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Ҳувайдо. 2009. *Кўнгил дарди*. Тошкент: MERIYUS.
- Жабборов, Н. 2019. “Ўзбек матншунослиги ва унда матн танқиди, илмий-танқидий матн истилоҳларининг ўрни”. *Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари*: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Тошкент: Мумтоз сўз.
- Жумахўжа, Н. 1998. “Ҳувайдо тасаввуфий шеърларида фалсафий-бадий талқин”. *Шарқ юлдузи* 4: 176-181.
- Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1983. 4 жилдлик. 1 жилд. Тошкент: Фан.
- Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати*. 1983. 4 жилдлик. 2-жилд. Тошкент.
- Очилов, Э. 2023. “Ҳувайдо ижодида Навоий анъаналари”. *Халқаро конференция материаллари* 68: 46-48. Тошкент.
- Рўзматзода, Қ. 2020. *Хожамназар Ҳувайдо диний-мистик қарашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривожигадаги ўрни*. Докторлик диссертацияси автореферати. Тошкент.
- Рўзматзода, Қ. 2001. “Хожаназар Ҳувайдо ва тасаввуф”. *Сирли олам* 3: 54-57.
- Усмон Турар. 1999. *Тасаввуф тарихи*. Тошкент: Истиқлол.

Newly found poems of Huvaiddo

Zilola Amonova¹
Munavvar Olimova²

Abstract

Khojanazar Huvaiddo is a mature representative of the Kokand literary environment and master poet. His lyrical legacy was published as a divan. The article compared the poet's published divan with the lithograph called "Huvaiddoyi Chimyoni" kept in the Bukhara Museum of Literature and Art. Also, a munajaat ghazal unknown to the scientific community

¹Zilola K. Amonova – Doctor of philology sciences, Bukhara State University.

E-mail: zilolajonamonova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-7710-3065

²Olimova Munavvar – researcher, Bukhara State University.

E-mail: m.s.olimova@buxdu.uz

For citation: Amonova, Z., Olimova, M. 2022. “Newly found poems of Huvaiddo”. *Golden scripts* 3: 21–35.

and a musaddasi related to Navai's ghazal are being published for the first time. The text of the ghazal and musaddas was analyzed based on its idea and artistic features, converted from the old Uzbek script to the current script. In the analysis, special attention was paid to the mystical content of the ghazal.

Key words: *textology, manuscript, stone print, bayaz, ghazal, prayer, divan, Qur'an, hadith, mysticism, tariqat, wayfarer.*

References

- Alisher Navoiy. 1987. *Badoe' ul-bidoya*. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. Birinchi tom. Toshkent: Fan.
- Buxoriy. 1991. *Al-jomi' as-sahih*. 1-kitob. Toshkent.
- Boltaboev, H. 2004. *Mumtoz so'z qadri*. Adabiy-ilmiiy maqolalar. Toshkent: Adolat.
- Boborahim Mashrab. 1990. *Mehribonim qaydasan*. Toshkent.
- Huvaydoi Cimyoniy*. 1900. Buxoro toshbosmasi.
- Huvaydo. 2005. *Devon*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Huvaydo. 2009. *Ko'ngil dardi*. Toshkent: MERIYUS.
- Jabborov, N. 2019. "O'zbek matnshunosligi va unda matn tanqidi, ilmiy-tanqidiy matn istilohlarining o'rni". *O'zbek mumtoz adabiyotini o'rganishning nazariy va manbaviy asoslari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari*. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Jumaxo'ja, N. 1998. "Huvaydo tasavvufiy she'rlarida falsafiy-badiiy talqin". *Sharq yulduzi* 4: 176-181.
- Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati*. 1983. 4 jildlik. 1 jild. Toshkent: Fan.
- Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati*. 1983. 4 jildlik. 2-jild. Toshkent: Fan.
- Ochilov, E. 2023. "Huvaydo ijodida Navoiy an'analari". *Xalqaro konferensiya materiallari* 68: 46-48. Toshkent.
- Ro'zmatzoda, Q. 2020. *Xojamnazar Huvaydo diniy-mistik qarashlarining XVII-XVIII asrlar Markaziy Osiyo tasavvufi rivojida o'rni*. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.
- Ro'zmatzoda, Q. 2001. "Xojanazar Huvaydo va tasavvuf". *Sirli olam* 3: 54-57.
- Usmon Turar. 1999. *Tasavvuf tarixi*. Toshkent: Istiqlol.

“Hasht bihisht” va “Majolis un-nafois” asarlarning matniiy tadqiqi

Parviz Izzatillayev¹

Abstrakt

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkiri va uning forsiy tarjimai – “Hasht bihisht” oʻzaro solishtirib oʻrganilgan. Tadqiqot natijasida tarjimon – Qazvinining yutuq va kamchiliklari ishonchli manbalarga tayangan holda, birma-bir sanab oʻtilgan. Jumladan, Qazvinining oʻz tarjimai “Hasht bihisht”da Faxriy Hirotiy kabi “Majolis un-nafois” asarining asl turkiy matnini qanday berilgan boʻlsa shundayligicha tarjima qilmay, tarjimaga koʻplab oʻzgartirishlar kiritgani, buning natijasida asl turkiy matndan ancha uzoqlashgani misollar keltirish, tahlil qilish yoʻli bilan isbotlab berilgan. Shu bilan birga tarjimon yoʻl qoʻygan xato va kamchiliklar ustida ham fikr yuritilib, asarning Toshkent nashri yordamida mazkur kamchiliklar bartaraf etilgan. Tehron nashrida yoʻl qoʻyilgan ayrim bahsli kamchiliklarni esa Toshkent nashri yordamida bartaraf etish boʻyicha yechimlar berilgan.

Kalit soʻzlar: *“Majolis un-nafois”, Qazviniiy, “Hasht bihisht”, qoʻlyozma, tarjima, matniiy tadqiq, Tehron nashri, Toshkent nashri.*

Kirish

Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari XV XVI asr boshlaridagi adabiyot tarixiga oid muhim tazkiralardan biri boʻlib, Ali Asgʻar Hikmat 1945-yilda mazkur asardan qilingan ikki tarjimini – Faxriy Hiraviyning “Latoyifnoma” va Qazvinining “Hasht bihisht” asarlarini bir kitobda jamlagan holda Tehronda nashr ettiradi. Ali Asgʻar Hikmat mazkur nashrdan oʻrin olgan ikkinchi tarjima – Qazvinining “Hasht bihisht” asarini nashrga tayyorlashda birinchi navbatda mazkur asarning eronlik olim Said Nafisiy qoʻlidagi forsha qoʻlyozmasidan foydalanadi, ammo

¹ Izzatillayev Parviz Inoyatillayevich – oʻqituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: parvizisohoni@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-5754-2690

Iqtibos uchun: Izzatillayev, P. I. 2022. “Hasht bihisht” va “Majolis un-nafois” asarlarning matniiy tadqiqi”. *Oltin bitiglar* 3: 36-58.

ushbu tarjima xato va kamchiliklardan xoli bo'lmaganligi bois uni Istanbuldagi As'ad Afandi kutubxonasida 3788-inventar raqami ostida saqlanayotgan boshqa fors tilidagi tarjima asosida to'ldirib, tarjimalar asosida ilmiy-tanqidiy matn yaratadi. Shu bilan cheklanmasdan “Latoyifnoma”ni nashrga tayyorlashda foydalangan uch nusxa – Muhammadali Tarbiyat kutubxonasidagi bir va Sipohsolor kutubxonasida saqlanayotgan asarning ikki turkiy qo'lyozmasi bilan muqoyasa qilgan holda o'rganib chiqadi va kamchiliklarni iloji boricha bartaraf etadi va uni nashr etadi.

“Majolis un-nafois” asari 1961-yilda navoiyshunos olimi S.G'aniyeva tomonidan O'zbekistonda nashr etiladi. Olima Suyima G'aniyeva Vena, Parij, Leningrad, Boku va ikki Toshkent nusxasi, 6 ta qo'lyozma asosida tazkiraning ilmiy-tanqidiy tekstini tuzishga muvaffaq bo'ladi. A. Hikmat “Hasht bihisht” asarini nashr etishda foydalangan qo'lyozma nusxalar bilan S. G'aniyeva “Majolis un-nafois” asarini chop etishda foydalangan qo'lyozma nusxalarni kitobat qilingan sanalari, kotiblari, qo'lyozmaning qay darajada saqlangan, tili kabilarni qiyosiy o'rganishimiz natijasida, olimi S. G'aniyeva foydalangan nusxalar A. Hikmat foydalangan nusxalarga nisbatan qadimiy va ayni vaqtda mo'tabarroq ekani ma'lum bo'ldi. Shu asosda bu ikki nashrni solishtirib o'rganishda S. G'aniyeva nashrini tayanch manba sifatida olishga jazm etdik.

Nashrlardagi farqlar

Ikkila olim nashrini o'zaro solishtirib o'rganish natijasida, ular orasida anchagina tafovut borligi namoyon bo'ldi.

Qazviniiy “Hasht bihisht”da “Majolis un-nafois” asarining asl turkiy matnini Faxriy Hiraviy kabi qanday berilgan bo'lsa shundayligicha tarjima qilmay, tarjimaga ko'plab o'zgartirishlar kiritgan, buning natijasida asl turkiy matndan ancha uzoqlashgan. Buning natijasida asl matnda mavjud bo'lgan ayrim qismlarning butunlay tushirib qoldirilgan, asl matnda mavjud bo'lmagan qo'shimcha ma'lumotlar kiritilgan, hatto ayrim matn qismlarining nomlari va mazmuniga o'zgartirishlar kiritilgan. Bu “tushirilib qoldirilish”, “qo'shimcha kiritish” va “o'zgartirish kiritish”lar ba'zan shoirlarning ismi va ular haqida keltirilgan ma'lumotlarda, ba'zida esa ularning ijodidan keltirilgan misollarda, gohida bir shaxs haqidagi barcha ma'lumotlarda ko'zga tashlanadi.

Asl turkiy matnda mavjud bo'lib, ammo Qazviniiy tomonidan tushirib qoldirilgan matn qismlari asosan shoirlarning ismi yoxud ular haqidagi ma'lumotlar, shoirlar qalamiga mansub baytlar

va ularning sharhi holi bilan bog'liqdir. Qazviniiy tomonidan tushirib qoldirilgan asl matnning qismlari birinchi navbatda ayrim shoirlarning ismi, taxallusi va tug'ilgan joyi bilan bog'liqdir. Shuningdek, Qazviniiy ba'zan shoirlar ijodidan keltirilgan baytlarni tarjimasida keltirmagan bo'lsa, ba'zida ayrim shoirlarning sharhi holi bilan bog'liq bir qism ma'lumotlarni tarjima qilmasdan tashlab ketadi. Hatto ba'zi shoirlar haqidagi ma'lumotlarning to'lig'icha tarjima qilinmasdan tashlab ketilish holatlari ham uchraydi.

Qazviniiy asl matnda mavjud bo'la turib, o'z tarjimasida ularni tashlab ketgan matn qismlari, uning asl matnga "sodiq" bo'lmaganidan dalolat va bu uning tarjimasidagi zaif nuqta desak yanglishmagan bo'lamiz.

Quyidagi shoirlar va ularning ijodiga taalluqli ma'lumotlar tashlab ketilgan:

1) *Qozi Muhammad – dar Xuroson az jumlai ilmu fazl ast va base xushtab' va sohibkamol ast va ba mansabi quzzo ishg'ol menamoyad va gohe she'r niz mefarmoyad va in matla' az o'st:*

*Guftamash gul, gul baromad rangi ruxsorat zi mul,
G'unchai o' dar tabassum shud ki az gulho chi gul"*

[Amir Alisher Navoiy 1323, 189].

Mazkur shoir "Majolis un-nafois" asarining asl turkiy matnida Qozi Muhammad Imom tarzida keltirilgan bo'lib, u haqda shunday deyiladi:

Qozi Muhammad Imomiy — mutadayyim va xushtab' kishi erdi. Xurosonning qoziyul-quzotlig' mansabida mutammakkin bo'ldi. Va nazmg'a gohi mashg'ul bo'lur erdi. Ash'ori Hiri shahrida el orasida bor. Bu matla' aningdurkim:

*Guftamash gul-gul baromad rangi ruzsorat zi mul,
G'unchai o' dar tabassum shudki, az gulho chi gul.*

Va qabri Hiriya Imom Quzotning go'ristonidadur [Navoiy 2013, 298].

Qazviniiy tarjima asnosida uning ismiga qo'shib aytiladigan "Imom"lik sifatini keltirmasdan, faqatgina Qozi Muhammad tarzida keltirish bilan cheklangan. Bundan tashqari Toshkent nashrida mavjud "Ash'ori Hiri shahrida el orasida bor" jumlasida hamda u dafn etilgan mazor bilan bog'liq ma'lumot ham Qazviniiy tarjimasida uchramaydi.

Keyingi "tashlab ketish" shoir – Xoja Fazlulloh Samarqandiy bilan bog'liqdir. U haqda Tehron nashrida quyidagicha ma'lumot beriladi:

2) *Xoja Fazlulloh Samarqandiy – o'ro ba vositai kasrati donishi ilmi fiqh Abuhanifai Soniy mego'yand. Va bo on ki a'lami ulamoi Samarqand buda, mayl ba she'ru muammo niz mefarmuda. Va in matla' az o'st:*

*Qaddi chun sarvi tu jon ast maro balki ravon,
So'yam, ey sarvi ravon shav, ki fado sozam jon*

[Navoiy 1323, 201].

Bu shoir Alisher Navoiyga "farzandim" deya murojaat qilgan o'sha Xoja Fazlulloh Abullaysiy bo'lib, Toshkent nashrida u haqda shunday deyiladi:

Xoja Fazlulloh Abullaysiy — Samarqand akobiridindur. Faqih Abullays avlodidandur. Fiqhda ani Abu Hanifai Soniy derlar erdi va arabiyatda Ibn Hojib kaffasida tutarlar erdi...

Bovujudkim, Samarqandning a'lami ulamosi erdi, she'r va muammog'a dag'i moyil erdi.

Bu matla' alarningdurkim:

*Qadi chun sarvi tu jon ast maro, balki ravon,
So'yam, ey sarv, ravon shavki, fido sozam jon*

[Navoiy 2013, 309].

Ammo Qazviniiy unga berilgan "Abullaysiy" nisbasini keltirmasdan, Xoja Fazlulloh Samarqandiy shaklida berish bilan cheklangan.

Keyingi shoir bu Mavlono Faseh bo'lib, Tehron nashrida u haqda shunday ma'lumot keltiriladi:

3) *Mavloni Faseh – shaxse tavonost va marde dono va dar donish benazir va behamto, va dar xidmati Jo'gi Mirzo mebud va kitobati qasrhoi bog'oti o' she'ri o'st. Va tatabbo'i qasidai masno'i Salmon karda, va Maxzan ul-asrori Shayx Nizomiro niz javob gufta; In bayt dar bobi nihon doshtani asror az o'st:*

*Har nafas k-az tu kase bishnavad,
Beshak az o' hamnafase bishnavad* [Navoiy 1323, 205].

Bu shoir "Majolis un-nafois" asarining Toshkent nashrida Mavlono Faseh Rumiiy tarzida quyidagicha keltiriladi:

Mavloni Fasih Rumiiy — donishmand kishi erdi. Jo'gi Mirzo xizmatida bo'lur erdi va aning bog'oti, qasrlarining kitobalari Mavlononing ash'oridur. Xoja Salmonning masnu' qasidasig'a tatabbu' qilibdur. O'z xo'rdi holig'a yomon aytmaydur. Va Hazrat Shayxning "Maxzan ul-asror"ig'a javob aytibdur, bu bayt "rozni nihon asrar" bobida aningdurkim:

*Har nafas k-az tu kase bishnavad,
Beshak az u hamnafase bishnavad* [Navoiy 2013, 314].

Qazviniiy o'z tarjimasida uning ismiga qo'shib aytiladigan "Rumiy" nisbasini qo'shmay, Mavlono Fasih shaklida keltiradi.

Navbatdagi shoir Xoja Burhon bo'lib, Tehron nashrida u to'g'risida shunday ma'lumot keltiriladi:

4) *Xoja Burhon – az farzandoni hazrati shayxulislom Ahmadi Jom ast... Dar in matla' tasnifi "Isfahon" az o'st:*

*Rasida mavsumi shodiyu zavqu ayshu tarab,
Agar gado ba murodi dile rasad, chi ajab* [Navoiy 1323, 215].

Bu shoir "Majolis un-nafois"ning Tehron nashrida Xoja Yusuf Burhon deya tilga olingan bo'lib [Navoiy 2013, 323], Qazviniiy tarjimasida "Yusuf" ismini uning nomu nasabida aks ettirmay, faqatgina Xoja Burhon tarzida keltirish bilan cheklangan.

Qazviniiy o'zining "Hasht bihisht" tarjima asarida shoirlarining ismi bilan bog'liq bundan boshqa yana 92 ta qisqartirish va o'zgartirishlarni ham amalga oshirgan bo'lib, ularning barchasini keltirishning imkoni yo'qligi bois quyidagi jadvalda nomma-nom berishni lozim topdik:

Asl turkiy matnda (Toshkent nashri) shoirlarning nom-u nasabi	Qazviniiy tarjimasida (Tehron nashri) shoirlar ismi bilan bog'liq qisqartirishlar va o'zgartirishlar
Mavlono Ashraf (1-majlis, 296-bet)	Mavlono Sharaf (1-bihisht, 187-bet)
Xoja Ismatullo (1-majlis, 296-bet)	Xoja Ismat (1-bihisht, 187-bet)
Mavlono Yax'yo Sebak (1-majlis, 297-bet)	Mavlono Yahyo Shebak (1-bihisht, 188-bet)
Mir Islom G'azzoliy (1-majlis, 297 bet)	Miri Islom (1-bihisht, 189-bet)
Mavlono Ruhiiy Yoziriy (1-majlis, 299-bet)	Mavlono Ruhiiy (1-bihisht, 190-bet)
Mavlono Sohib Balxiy (1-majlis, 299-bet)	Mavlono Sohib (1-bihisht, 190-bet)
Mavlono Simiy (1-majlis, 300-bet)	Mavlono Simiy Nishoburiy (1-bihisht, 191-bet)
Mavlono Ali Ohiiy (1-majlis, 300-bet)	Mavlono Ohiiy (1-bihisht, 191-bet)
Bobo Savdoiyy (1-majlis, 301-bet)	Mavlono Savdoiyy (1-bihisht, 192-bet)
Mavlono Zohidiiy (1-majlis, 302-bet)	Mavlon Zohid (1-bihisht, 193-bet)
Mavlono Amiriy (1-majlis, 302-bet)	Mavlono Amir (1-bihisht, 193-bet)

Mavlonο Burunduq (1-majlis, 302-bet)	Mavlonο Boyazid (1-bihisht, 193-bet)
Mavlonο Sulaymoniy (1-majlis, 303/304-betlar)	Mavlonο Sulayman (1-bihisht, 194-bet)
Mavlonο Masihiy (1-majlis, 304-bet)	Mavlonο Shayxiy (1-bihisht, 196-bet)
Mavlonο Muhammad Jomiy (1-majlis, 305-bet)	Mavlonο Muhammad (1-bihisht, 197-bet)
Mir Shohiy (1-majlis, 306-bet)	Amir Shohiy (1-bihisht, 197-bet)
Mir Haydar Majzub (2-majlis, 311-bet)	Mir Sadriddin Majzub (2-bihisht, 202-bet)
Mir Yodgorbek (2-majlis, 312-bet)	Mir Yodgor (2-bihisht, 204-bet)
Hofiz Ali Jomiy (2-majlis, 315/316-betlar)	Mavlonο Ali Jomiy (2-bihisht, 207-bet)
Sayid Kamol Kachkul (2-majlis, 316-bet)	Sayyid Kamol Kajka'l (2-bihisht, 207-bet)
Mavlonο Hoji Nujumiy (2-majlis, 320-bet)	Mavlonο Nujumiy (2-bihisht, 212-bet)
Mavlonο Qanbariy (2-majlis, 320-bet)	Mavlonο Qabriy (2-bihisht, 213-bet)
Harimiy Qalandar, (2-majlis, 321 bet)	Jarimiy Qalandar (2-bihisht, 214-bet)
Mavlonο Sa'idiy (2-majlis, 324-bet)	Mavlonο Sa'diy (2-bihisht, 216-bet)
Mavlonο Mir Arg'un (2-majlis, 324-bet)	Mir Arg'un (2-bihisht, 217-bet)
Mavlonο Muhammad Omiliy (2-majlis, 325-bet)	Mavlonο Muhammad Abliy (2-bihisht, 218-bet)
Darvesh Nozukiy (2-majlis, 326-bet)	Darvesh Nozuk (2-bihisht, 218-bet)
Mavlonο Ahmad Mujallid (2-majlis, 327-bet)	Mavlonο Muhammad Mujallid (2-bihisht, 219-bet)
Mavlonο Muhammad Ne'matobodiy (2-majlis, 328-bet)	Mavlonο Muhammad (2-bihisht, 220-bet)
Mavlonο Mir Qarshiy (2-majlis, 328-bet)	Mavlonο Qarshiy (2-bihisht, 220-bet)
Mavlonο Yaqiniy (2-majlis, 332-bet)	Mavlonο Naqibiy (2-bihisht, 224-bet)
Mavlonο Sakkokiy (2-majlis, 333-bet)	Mavlonο Sakkoliy (2-bihisht, 225-bet)
Nur Saidbek (2-majlis, 334-bet)	Saidbek (2-bihisht, 225-bet)
Darveshbek (2-majlis, 336-bet)	Mirzo Aliy (2-bihisht, 227-bet)
Hazrat Maxdumiy Shayxul-islomiy Mavlonο Nuriddin Abdurahmon Jomiy (3-majlis, 338-bet)	Hazrati Shayx-ul islom va nur-ul inom Mavlonο Nuriddin Abdurahmon Jomiy (3-bihisht, 229-bet)
Amir Shayxim Suhayliy (3-majlis, 338-bet)	Mir Shayxim Suhayliy (3-bihisht, 230-bet)

Mavlono Sayfiy (3-majlis, 339-bet)	Mavlono Sayfiy Buxoriy (3-bihisht, 230-bet)
Sayid Qutb Lakadang (3-majlis, 344-bet)	Mavlono Sayid Qutbi Lakadnik (3-bihisht, 237-bet)
Mavlono Muqbiliy (3-majlis, 345-bet)	Mavlono Muqimiy (3-bihisht, 237-bet)
Mavlono Nargis (3-majlis, 346-bet)	Mavlono Nargisiy (3-bihisht, 238-bet)
Mavlono Jamishd (3-majlis, 349-bet)	Mavlono Hamid (3-bihisht, 239-bet)
Xoja Muso (3-majlis, 354-bet)	Mavlono Mushiy (3-bihisht, 250-bet)
Mavlono Zirakiy (3-majlis, 359-bet)	Mavlono Zirak (3-bihisht, 250-bet)
Do'st Muhammad (3-majlis, 360-betlar)	Mavlono Do'st (3-bihisht, 251/252-betlar)
Mavlono Asiruddin (3-majlis, 361-bet)	Mavlono Naziruddin (3-bihisht, 252-bet)
Mavlono Hamdamiy (3-majlis, 362-bet)	Hamdamiy (3-bihisht, 254-bet)
Mavlono Osimiy (3-majlis, 362-bet)	Mavlono Osiy (3-bihisht, 254-bet)
Mavlono Sifotiy (3-majlis, 358-bet)	Mavlono Safoiyi (3-bihisht, 255-bet)
Mavlono Fazliy (3-majlis, 364-bet)	Mavlono Fayziy (3-bihisht, 256-bet)
Mavlono Zohiriy (3-majlis, 365-bet)	Mavlono Tohiriy (3-bihisht, 257-bet)
Zova Qozisi (3-majlis, 367-bet)	Qozizoda (3-bihisht, 258-bet)
Mavlono Doiy (3-majlis, 370-bet)	Mavlono Domiy (3-bihisht, 260-bet)
Mavlono Hamidgul (3-majlis, 371-bet)	Mavlono Hamid (3-bihisht, 260-bet)
Mavlono Volahiy (3-majlis, 372-bet)	Volahiy (3-bihisht, 262-bet)
Mir Sarbarahna (4-majlis, 374-bet)	Said Sarbarahna (4-bihisht, 265-bet)
Mavlono Burhonuddin (4-majlis, 375-bet)	Mavlono Burhon (4-bihisht, 265-bet)
Mavlono Husayn Voiz (4-majlis, 378-bet)	Mavlono Voiz (4-bihisht, 268/269-betlar)
Mirond (4-majlis, 379-bet)	Mavlono Mirxond (4-bihisht, 379-bet)
Mir Ixtiyoruddin (4-majlis, 380-bet)	Sayyid Ixtiyor (4-bihisht, 271-bet)
Mir Sayyid Husayn Abivardiy (4-majlis, 382-bet)	Sayyid Husayn Bovardiy (4-bihisht, 273-bet)
Mirak Husayn (4-majlis, 386-bet)	Mavlono Mirak Husayn (4-bihisht, 276-bet)
Sufiy Piri Sesadsola (4-majlis, 388-bet)	Piri Sufiy-Piri Sadsola (4-bihisht, 274-bet)
Xoja Abu Nasr (4-majlis, 392-bet)	Xoja Abu Nasr Mehna (4-bihisht, 279-bet)

Xoja Husayn Kirangiy (4-majlis, 393-bet)	Hoja Hasan Kirangiy (4-bihisht, 279-bet)
Mavlono Muhammad Xurosoniy (4-majlis, 394-bet)	Mullo Muhammad Xurosoniy (4-bihisht, 280-bet)
Xoja Abdulloh Sadr (4-majlis, 394-bet)	Xoja Abdulloh (4-bihisht, 281-bet)
Amir Davlatshoh (5-majlis, 396-bet)	Amir Davlatshoh bin Firoʻzshoh (5-bihisht, 282-bet)
Mir Husayn Ali Jaloyir (5-majlis, 397-bet)	Amir Hasan Jaloyir (5-bihisht, 282-bet)
Abdolvahhob (5-majlis, 397-bet)	Mir Abdolvahhob (5-bihisht, 283-bet)
Sulton Husayn (5-majlis, 398-bet)	Mir Sulton Husayn (5-bihisht, 283-bet)
Muhammad Solih (5-majlis, 398-bet)	Mir Muhammad Soleh (5-bihisht, 283-bet)
Ibrohim Muhammad Xalil (5-majlis, 400-bet)	Ibrohim Xalil (5-bihisht, 284-bet)
Soqiy (5-majlis, 401-bet)	Malik Soqibek (5-bihisht, 283-bet)
Xoja Xurd (6-majlis, 403-bet)	Xoja Xusrav (6-bihisht, 286-bet)
Abulbaraka (6-majlis, 403-bet)	Qozi Abulbaraka (6-bihisht, 286-bet)
Xoja Xovand (6-majlis, 404-bet)	Xoja Fazlulloh (6-bihisht, 287-bet)
Amir Mahmud Barlos (6-majlis, 404-bet)	Mir Mahmud Parlos (6-bihisht, 287-bet)
Darvesh Shuhudiy (6-majlis, 404-bet)	Mavlono Foniy (6-bihisht, 288-bet)
Mavlono Moʻminiy (6-majlis, 404-bet)	Mavlono Moʻmini Samarqandiy (6-bihisht, 288-bet)
Orif Farkatiy (6-majlis, 405-bet)	Mavlono Orif (6-bihisht, 288-bet)
Mavlono Xayriy (6-majlis, 405-bet)	Mavlono Sabriy (6-bihisht, 289-bet)
Mavlono Solihiy (6-majlis, 406-bet)	Mavlono Soleh (6-bihisht, 290-bet)
Mavlono Darvesh Dehakiy (6-majlis, 406-bet)	Darvesh Dehakiy (6-bihisht, 290-bet)
Shayx Najm (6-majlis, 407-bet)	Shayx Najmiddin (6-bihisht, 295-bet)
Mavlono Bayzoiy (6-majlis, 410-bet)	Mavlono Bayoziy (6-bihisht, 312-bet)
Sayyid Imod (6-majlis, 410-bet)	Sayyid Imoduddin (6-bihisht, 312-bet)
Ulugʻbek Mirzo (7-majlis, 413-bet)	Mirzo Ulugʻbek (7-bihisht, 314-bet)
Abdullatif Mirzo (7-majlis, 414-bet)	Mirzo Abdullatif (7-bihisht, 315-bet)
Saydi Ahmad Mirzo (7-majlis, 414-bet)	Sayyid Ahmad Mirzo (7-bihisht, 315-bet)
Kichik Mirzo (7-majlis, 415-bet)	Mirzo Kijik (7-bihisht, 315-bet)

Sulton Badiuzzamon Mirzo (7-majlis, 415-bet)	Sulton Badiuzzamon (7-bihisht, 315-bet)
Xoja Abulvafoi Xorazmiy (1-majlis, 4-bet)	Xoja Abulvafo (1-bihisht, 185-bet)

“Majolis un-nafois” tazkirasida shoirlar ijodidan baytlar keltirilgan bo‘lib, asl turkiy matndagi ayrim baytlar Qazviniyning tarjima asari “Hasht bihisht” asaridan o‘rin olmay qolgan. Quyidagi shoirlar haqida qismlardagi she‘rlar “Hasht bihisht”da keltirilmagan

1) **Mavlono Amir.** *Turkast va she‘ri o‘ turkist va bo vujudi on ki dar g‘oyati xubist, mashhur nest va dar she‘ri forsi tatabbo‘i Shayx Kamol namuda. In matlai purhol az o‘st:*

*Ro‘zi qismat har kase az aysh baxshi xud sitond,
G‘ayri zohid k-o‘ riyozato‘o kashidu xushk mond*

[Navoiy 1323, 193].

“Majolis un-nafois”ning Toshkent nashrida bundan boshqa yana bir bayt keltirilgan bo‘lib, Qazviniy tarjima qilish jarayonida bu baytni keltirmasdan birdan keyingi shoir haqidagi ma‘lumot tarjimasini keltiradi. Asl turkiy matnda mazkur shoir va uning baytlari quyidagicha keltirilgan:

Mavlono Amiriy — *turk erdi va turkcha she‘ri yaxshi voqe‘ bo‘lubdur, ammo shuhrat tutmabdur. Va bu bayt aning "Dahnoma" sidindur:*

*Ne yemakdin, ne uyqudin solib so‘z,
Yemakdin to‘yub uyqudin yumub ko‘z.*

Va forsiyda shayx Kamol tatabbu‘i qilibdur. Bu matla‘ aningdurkim:

*Ro‘zi qismat har kase az aysh baxshi xud sitond,
G‘ayri zohid k-o‘ riyozatho kashidu xushk mond*

[Navoiy 2013, 302].

Ko‘rib turganingizdek, Tehron nashrida Toshkent nashrida mavjud turkiy bayt keltirilmasdan, forsha bayt bilan cheklangan. Qazviniyning bunday yo‘l tutishida, ehtimol forsiy o‘quvchi shoirning turkiy baytini tushuna olmaydi degan o‘y sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Toshkent nashrida mavjud bo‘lib, tarjima jarayonida Qazviniy tomonidan tarjima asarga kiritilmay qolib ketgan keyingi bayt muallifi – Mavlono Qudsiydir. Mazkur shoir haqida Tehron

nashrida quyidagicha ma’lumot keltiriladi:

2) **Mavlono Qudsiy** – Hiraviy ast. *Va kase shiringuftor va shirinkirdor ast, va marazi laqva dorad, va az in jihat obi bisyor beixtiyor az dahoni o’ ravon ast, va qatra-qatra az on chakon, va dar in bob in bayt gufta:*

*Bo vujudi chunin dahan, ki marost,
She’r go’yam, ki ob az on bichakad* [Navoiy 1323, 190].

“Majolis un-nafois”ning Toshkent nashrida bundan boshqa yana bir bayt keltirilgan bo’lib, Qazviniiy tarjima jarayonida bu baytni keltirmasdan birdan keyingi shoir haqidagi ma’lumot tarjimasini beradi. Asl turkiy matnda mazkur shoir va uning baytlari quyidagicha keltiriladi:

Mavlono Qudsiy — *hiriylidur, shiringo’y kishi ermish. Va og’zida laqva marazi bor erdi, andoqkim og’zidin suv borur erdi va zabt qila olmas erdi, bu bobda debdurkim:*

*Bu vujudi chunin dahanki, marost,
She’r go’yamki, ob az u bichakad.*

Bu matla’ dag’i aningdurkim:

*Ey, ki man’am mekuni az didani on gul’uzor,
Holati dilro namedoni, maro ma’zur dor* [Navoiy 2013, 299].

Toshkent nashrida mavjud bo’lib, tarjima jarayonida Qazviniiy tomonidan tarjima asarga kiritilmay qolib ketgan keyingi bayt muallifi – Mavlono Qadimiydir. Mazkur shoir haqida Tehron nashrida quyidagicha ma’lumot keltiriladi:

3) **Mavlono Qadimiy** – *ba naqorachirai mashhur ast va ba nazmi neko’ ma’ruf. Va in matlai xub az o’sst. Matla’:*

*Be jamolash didai ravshan chi kor oyad maro,
Ravshani dar dida az didori yor oyad maro*

[Navoiy 1323, 196].

“Majolis un-nafois”ning Toshkent nashrida bundan boshqa yana bir bayt keltirilgan bo’lib, Qazviniiy tarjima jarayonida bu baytni keltirmasdan birdan keyingi shoir haqidagi ma’lumotni keltiradi. Asl turkiy matnda mazkur shoir va uning baytlari quyidagicha keltiriladi:

Mavlono Qadimiy — *naqorachilikka mashhurdur, ammo tab’i nazmlarda mulonim erdi, bu matla’ aningdurkim:*

*Be jamolash didai ravshan chi kor oyad maro,
Ravshani dar dida az didori yor oyad maro.*

*So'ngg'i bayti yaxshiroq voqe' bo'lubdur:
Oh az on soat, ki nogah dar rahe pesh oyadam,
Muddate boyad, ki to dil barqaror oyad maro*

[Navoiy 2013, 304].

4) **Mavlono Muhammad Arab** – *marde donishmand bud, valekin dimog'ash az kasarat fikrat dar ulum muxabbat gashta bud va az in jihat doim havo'i saltanat dar sar dosht va hamisha hamt bar tahsil va takmili asbobi on megumosht... Ey baso orzu, ki xok shuda. Va in matla' az o'st:*

*Xatti sabzat hamagi moyai dilshodii most,
In xati sabz magar nomai ozodii most* [Navoiy 1323, 203].

“Majolis un-nafois”ning Toshkent nashrida yuqorida keltirilgan baytning o'rnida boshqa bir bayt keltirilgan:

Mavlono Muhammad Arab – *ul ham donishmand kishi erdi. Dimog'i habt qildi va xayoli Mir Haydar xayoli borg'on sori bordi. Doim saltanat so'zini mazkur qilur erdi, to ulkim chin yo yolg'on Mavlononi munga muttaham qildilarkim, uyidin xuruj aslahasi paydo bo'lubtur deb, chun aziz va musin kishi erdi, podshohi zamon anga shahardin ixroj hukmi buyurdi. Ul yerdin Siyistong'a bordi va so'zi ham ushbu rang erdi, o'zining podshohlig'i qoidasida "Shohnoma" aytibdur. Bu bayt ul abyotdindurkim:*

*Kase mahrami shah ba juz shoh nest,
Zi ahvoli shah juz shah ogoh nest.
Mazori Siyistonda – o'qdur* [Navoiy 2013, 311].

Tehron nashrida Mavlono Tabriziy to'g'risida quyidagicha ma'lumot keltiriladi:

5) **Mavlono Musayyab** – *o' niz masti bodai g'urur va zulm va ta'addi buda, va ba havo'i vazorat va kifoyati podshoh mardumro zahmat medoda va rahmat bar Ibodulloh namekarda va ba muqtazoi “man a'ana zoliman sallatahullohu ‘alayhi” siyosati podshoh bar o' musallat gasht va ba on gashta-gashta, va qabri o' dar xonai o'st* [Navoiy 1323, 226].

Qazviniiy tarjima asar “Hasht bihisht”da “Majolis un-nafois”-da mazkur shoir qalamiga oid bir baytni keltirmaydi. Mazkur shoir haqida Toshkent nashrida quyidagicha ma'lumot beriladi:

Xoja Musayyab – *andin ajabroq kishi erdi. Ul dag'i vazorat bexudlig'idin musulmonlarg'a ajab zulmlar qilurg'a bel bog'lab erdikim, qazo devonidin bevosita siyosatqa mustavjib bo'lub va el aning sharridin xalos bo'ldilar.*

Qabri ham o‘z viloyatidadur. Bu matla’ aningdurkim:

*Guzasht umru zi g‘aflat man on chunon mastam,
Ki, hech tavba nakardamki, boz nashkastam*

[Navoiy 2013, 334].

6) Mavlono Ziyo Tabriziy – marde xushxulq va shirinkor va kamozor bud. Va hamai harakot va sakinoti u bisyor maqbul menamud va jahti tahsil ulum ba Hiriy omada bud va dar asnoi tahsil ilmi she‘r niz meguft. Va in matla’ az o‘st:

*Ajab nabvad agar parvona imshab tarki jon karda,
Ki binad naxl umri sham’ bunyodi xazon karda*

[Navoiy 1323, 237/238].

Toshkent nashrida mazkur baytdan tashqari yana bir bayt keltirilgan bo‘lib, Qazviniiy o‘z tarjimasida ikkinchi baytni keltirmasdan qoldirib ketadi:

Mavlono Ziyo – tabrizlikdur. Ko‘ngulga yaqin shirinado-liq maqbulg‘ina kishidur. Haqir ul-jussa uchun as‘hobqa mujibi bast ham bo‘lur. Shahrg‘a tahsil uchun keldi. Tahsil asnosida she‘rga ham ishtig‘ol ko‘rguzdi, dag‘i yaxshigina she‘rlar ham aytti. Bu matla’ aningdurkim:

*Ajab nabvad agar parvona imshab tarki jon karda
Ki, binad naxli umri sham’ bunyodi xazon karda.*

Bu matla’ ham xub voqe’ bo‘lubtur:

*Xush on soatki, oyad turki man shamsheri kin bo u,
Raqibon jumla bigrezandu man monam hamin bo u*

[Navoiy 2013, 345].

7) Qazviniiy **Abdurahmon Jomiy** to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tarjima qilib bo‘lganidan so‘ng, o‘zi mustaqil ravishda shoir ijodidan qo‘shimcha ravishda 14 misra she‘r keltirib, aynan “Majolis un-nafois”da keltirilgan bir baytni o‘z tarjimasida keltirmaydi. “Majolis un-nafois” asarining Toshkent nashrida keltirilgan o‘sha bir bayt quyidagicha:

*Rahravoni borkashro sahl don oshomi qahr,
Dar dahoni noqa xori xushk xurmoi tar ast*

[Navoiy 2013, 338].

8) **Mavlono Nizom** – Astrobodi ast va qasidai neko‘ megufta, va dar “Bahoriya” in matla’ az o‘st:

Naxoham peshi mardum dida bar didori yor aftad,

Chu pesh oyad nazar bar ro'yi o' beixtiyor aftad

[Navoiy 1323, 260].

Qazvinij **Mavlono Nizom** haqida ma'lumot berib, undan "Majolis un-nafois" asarida mavjud baytni emas, balki boshqa bir baytni misol tariqasida keltirdi. "Majolis"da keltirilgan bayt esa quyidagicha:

*Mavlono Nizom – astrobodlig'dur. Qasidani yaxshi aytur
va bu "Bahoriya" qasidasi yaxshi voqe' bo'lubturkim:*

*Boz gulzori xat az sabzai tar paydo kard,
Kori bo'stoni jahon rangi digar paydo kard*

[Navoiy 2013, 370].

Qazvinij shoirlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tarjima qilish jarayonida ayrim shoirlar bilan bog'liq ma'lumotlarning bir qismini tarjimasida keltirmay qoldirib ketgan holatlar ham uchraydi. Jumladan, **Shayx Ozariy** haqida asl turkiy matnda mavjud bo'lib, Qazvinij o'z tarjimasida keltirmagan matn qismlari quyidagilardir:

1) ... *Gulbarga podshohi Shayxqa bir lak yarmoq taklif qildi,
ammo o'z rasmlari birla bosh yerga qo'ymoq, taklifi ham ko'rguzdi.*

*... va ba'zi kutub, misli "Ajoyib ud-dunyo" va "Javohir ul-asror"
shayxningdur. O'zga musannafoti ham bordur* [Navoiy 2013, 294].

Shuningdek, Qazvinij **Mavlono Ashraf** to'g'risidagi ma'lumotning asl nusxada mavjud quyidagi qismlarini ham tarjima qilmagan:

2) ... *Va kiyiz bo'rk ustiga qurchuq chirmar erdi. Va el bila dag'i
omizishi oz erdi* [Navoiy 2013, 296].

Qazvinij "Hasht bihisht"da aslida "Majolis un-nafois"da mavjud bo'lib, lekin u tarjima qilmasdan qoldirib ketgan **Mavlono Yahyo Sebak** bilan bog'liq quyidagi ma'lumotni ham qayd etib o'tish joiz:

3) **Mavlono Yahyo Sebak:** *Bu faqir aruz fanida vosita
bila Mavlononing shogirdimen. Inshoollohkim, o'z yerida kelgay.
Mavlono darveshvash va qone' kishi erdi. Go'shaye ixtiyor qilg'on
jihatidin latoyifi tab'i ozroq shuhrat tutti. Sana isno va xamsina va
samona miada olamdin o'tdi* [Navoiy 2013, 297].

Bularga qo'shimcha ravishda quyidagi shoirlar bilan bog'liq ayrim ma'lumotlarni ham Qazvinij o'z kitobida keltirmasdan qoldirib ketadi:

4) **Mavlono Burunduq:**

*...ul zamon shuarosi aning tilidin qo'rqub, aning jonibini ko'p
rioyat qilur ermishlar va ani ustod lafzi bila xitob qilur ermishlar*

[Navoiy 2013, 302].

5) Mir Shohiy:

... Asli sarbadorlardin bo'lar. ... Farog'atdo'st va xushbosh kishi erdi. ... G'azali agarchn ozdur, ammo barcha xaloyiq qoshida pisandida va mustahsandur. Faqir agarchi ani ko'rmadim, ammo aning bila faqirni orasida e'lom va irsol voqe' bo'ldi. ... Astrabodda aytqon ikki matlai tuganmay qolg'on erdikim, vasiyat qilg'ondurkim, Xoja Avhad alarni tugatsun deb, biri budurkim.. ... Xoja Avhad ikkalasin tugatti va devonig'a bitildi va shahr shuaro sig'a marsiya taklifi qildikim, ayttilar. Bu bir bayt ul marsiya ab'yotidindurkim... [Navoiy 2013, 306].

6) Xoja Avhad Mustavfiy:

... O'z asrining yagonasi erdi. Bu faqir ul buzrukvor suhbatig'a yetar erdi, ko'p iltifotlari bor erdi. Va she'rda dag'i devon tartib qilibdur, yaxshi qasoyidlari bor [Navoiy 2013, 308].

Shuningdek, Qazviniiy tarjimasida qo'shimcha ravishda shoirning Sherozga borganini va o'sha yerda olamdan o'tganini yozadi: *Va Xoja dar Sheroz mebud, va ham az onjo rihlat ba oxirat farmuda* [Navoiy 1323, 201].

Ammo “Majolis un-nafois”da uning Sabzavorda bo'lgani va o'sha yerda olamdan o'tgani hamda qabri ham o'sha joyda ekani haqida yozilgan: *Va Xoja Sabzavorda sokin erdi ham anda-o'q olamdan o'tdi va qabri o'zi bo'lar maskanida-o'qdur* [Navoiy 2013, 309].

7) Mir Mufliisiy:

Mashhad sodotidindur. ... Ilkiga va barmoqlariga halqalar solur erdi. Doyim o'z-o'zi birla so'zlashur erdi. Hushi borida yaxshi abyotlar aytib edi [Alisher Navoiy 2013, 312].

Qazviniiy uning qabri Mashhadda ekanini yozadi: *Va qabri o' dar Mashhad ast* [Amir Alisher Navoiy 1323, 203]. Ammo “Majolis un-nafois”ning asl matnida uning qabri qayerda ekani to'g'risida batafsilroq ma'lumot berilgan: *Va qabri Mashhadda Xoja Xizr langaridadur* [Navoiy 2013, 312].

8) Mir Sarbarahna:

... G'oyat sho'x tab'lig'idin tirziq aytmoq qoidasin Mir paydo qildi. Bovujudi bu goh-goh Yaxshi tirziklar ham navish qilurlar va yigitlikda Oqil kungurga mutaallaq bo'lub, ofiyat tariyqin tark qilib, ul toifag'a tobe' bo'lub erishib yururda aning pesh saloti g'oyib bo'lg'onda, Mir ma'rakada pesh saloti bo'lub aytqon abyotdin bu ruboiydurkim...

... Mir ul viloyatning vojib ul-ehtirom sodotidindur, agarchi arzol va xubaso musallam tutmaslar va nimagina derlar, ammo ul toy-

ifaning so'ziga e'tibor yo'qtur. Va Mirning mufrit taom yemakka ko'p shaafolari bor. Ul jihatdin ko'proq avqot imtilo marazig'a giriftordurlar [Navoiy 2013, 374-375].

9) Mir Husayn Ali Jaloyir:

"...Ali Jaloyirning o'g'lidurkim, otasi Yodgor Mirzo eshigida amir ul-umaro va sohib ixtiyor erdi. Ammo o'zining otasig'a nisbati yo'qtur.

... Ul hazrat ham ani yaxshi tarbiyatlar qildilar. Andoqkim, viloyat bildi va qo'sh devonida muhr bosti va parvonachi bo'ldi va taqarrub va nayobatqa daxli bor erdi. Falakning andinkim, fazl ahlig'a hasadi bor, bir taqsir bila oni dargohi falak ishtibohdin yiroq solibdur, aning xud bu qayg'udan kunduz qarori va kecha uyqusi yo'qtur. Umid ulkim, podshohona lutf va karam dastgiri bo'lg'ay [Navoiy 2013, 397].

10) Muhammad Solih:

"... ko'p vaqtlar Chahorjo'y navohisidin Adoq navohisig'a degicha amorat qildi va ... Ulug'bek va Jo'gi Mirzo eshigida sohib ixtiyor va jumlat ul-mulk erdi. Ammo bag'oyat badfe'l va badxulq kishi erdi. O'zi muloyim yigitdur. Atvorining otasi atvorig'a nisbati yo'qtur. Anga ham g'arib sahv tushtikim, Sulton Sohibqiron qullug'idin g'aybat ixtiyor qildi.

Ba'zi derlarkim, bexudlig' olamida yomon musohiblar ani bu yomon yo'lg'a tutubturlar. Tab'ida xeyli diqqat birla choshni bor. Xatqa ham qobiliyati ko'pdur [Navoiy 2013, 398].

Qazviniiy tarjima asnosida yuqorida tilga olingan kamchiliklardan tashqari, "Majolis un-nafois"da keltirilgan ayrim shoirlarni o'z tarjimasida keltirmasdan ketadi. Jumladan, "Majolis un-nafois"da Mavlono Ali Ohiy va Mavlono Tole'iy orasida Mavlono Ali Shihob va Mavlono Ali Shug'oniylar ismli ikki shoir haqida ham ma'lumot keltirilgan [Navoiy 2013, 30-301]. Ammo Qazviniiyning "Hasht bihisht" asarida Mavlono Ali Ohiydan keyin Mavlono Tole'iy haqida ma'lumot keltirilgan, ya'ni Qazviniiy ikki shoir – Mavlono Ali Shihob va Mavlono Ali Shug'oniylar to'g'risidagi matnni umuman tarjima qilmay qoldirib ketadi [Navoiy 1323, 191]. Shuningdek, Qazviniiy "Hasht bihisht" tarjima asarining 1-bihishtida, "Majolis un-nafois" asarining 1-majlis oxirida Mir Shohiydan so'ngra Mavlono Mushtariy, Mavlono Ali Darzdo'z, Mavlono Tole'iy va Mavlono Muhyilar haqida ma'lumot berilganiga qaramay [Navoiy 2013, 306-307], uni tarjima qilmasdan, 1-bihishtni Mir Shohiy to'g'risidagi ma'lumot bilan yakunlaydi. Bundan tashqari, Navoiy tomonidan birinchi majlis so'ngida **"Majolis un-nafois"ning avvalgi majlisining itmomi** [O'sha joy] tarzida keltirilgan qismni ham tarjima

qilmay tashlab ketadi.

Ikkinchi bihishtda esa Qazviniiy – Mavlono Zayniy, Mavlono Burujiy, Mavlono Safoiy, Mavlono Muqimiy va Mavlono Bilol to‘g‘risida asarning asl matnida ma’lumot berilganiga qaramay ularni o‘z tarjimasida keltirmaydi. Shuningdek, ikkinchi majlis oxiridagi **“Ikkinchi majlis ixtimomi”** [Navoiy 2013, 377] tarzida berilgan asar qismini ham tarjima qilmasdan tashlab ketadi.

“Majolis un-nafois”ning uchinchi majlisida keltirilib, ammo tarjima asar “Hasht bihisht”ning uchinchi bihishtida keltirilmagan shoirlar 55 tani tashkil qiladi va ular quyidagilardir:

Majolis un-nafois (Toshkent nashri)	Hasht bihisht (Tehron nashri)
Mavlono Muzhir 3-m, 342-bet.	-
Darvesh Xusomiy 3-m, 345-bet.	-
Mavlono Salomiy 3-m, 348-bet.	-
Mavlono Forig‘iy 3-m, 348-b.	-
Mavlono Shihob 3-m, 349-bet.	-
Mavlono Abdulhaq 3-m, 349-bet.	-
Mavlono Abu Tohir 3-m, 351-bet.	-
Sayyid Naqibiy 3-m, 351-b.	-
Mavlono Hajriy 3-m, 352-b.	-
Mavlono Mashrabiy 3-m, 354-b.	-
Mavlono Vafoiy 3-m, 354-b.	-
Mavlono Habib, 3-m, 354-b.	-
Mavlono Harimiy, 3-m, 354-b.	-
Mavlono Qalandar, 3-m, 354-b.	-
Mavlono Qironiy, 3-m, 354-b.	-
Mavlono Shodiy, 3-m, 354/355-betlar.	-
Mavlono Xalil, 3-m, 355-b.	-
Mavlono Haybatiy, 3-m, 355-b.	-
Mavlono Fanoiy, 3-m, 355-b.	-
Mavlono Qanbariy, 3-m, 355-b.	-
Sayyid Orif, 3-m, 355-b.	-
Lutfiyi Soniy, 3-m, 355-b.	-
Mavlono Adimiy, 3-m, 355-b.	-
Mavlono Shabobiy, 3-m, 355/356-b.	-
Mavlono Darvesh, 3-m, 356-b.	-
Mavlono Ayoniy, 3-m, 356-b.	-
Mavlono G‘iyosiddin, 3-m, 356-b.	-

Sayyid Abdulatif, 3-m, 356-b.	-
Mavlono Muhammad, 3-m, 356-b.	-
Mavlono Faxriy, 3-m, 357-b.	-
Mavlono Rukniy, 3-m, 357-b.	-
Mavlono Nosihiy, 3-m, 357-b.	-
Mavlono Toyiriy, 3-m, 357-b.	-
Sayyid Haziniy, 3-m, 357-b.	-
Mavlono Mahdiy, 3-m, 358-b.	-
Mavlono Toyifiy, 3-m, 358-b.	-
Mir Lavand, 3-m, 358-b.	-
Mavlono Shayxiy, 3-m, 363-b.	-
Mavlono Hirotiy 3-m, 363-b.	-
Mavlono Nargisiy, 3-m, 364-b.	-
Mir Asadulloh, 3-m, 365-b.	-
Mir Ahadulloh, 3-m, 365-b.	-
Mavlono Shoh Ali, 3-m, 365/366-b.	-
Mavlono Husayn, 3-m, 367-b.	-
Mavlono Koshiy, 3-m, 367-bet.	-
Mavlono Zoyiriy, 3-m, 367-b.	-
Mavlono Qone'iy, 3-m, 367/368-b.	-
Mavlono Ziyoiy, 3-m, 368-b.	-
Mavlono Nuriy, 3-m, 368-b.	-
Mavlono Fayziy, 3-m, 368-b.	-
Mavlono Ayniy, 3-m, 368-b.	-
Mavlono Mu'iniy, 3-m, 368-b.	-
Mavlono Xizriy, 3-m, 368-b.	-
Ustod Muhammad O'bahiy, 3-m, 368/369-b.	-
Mavlono Yoriy, 3-m, 370-b.	-

Bundan tashqari, “Majolis un-nafois”ning uchinchi majlisi soʻngida **“Uchinchi majlisning xatmi”** [Navoiy 2013, 373] nomi bilan keltirilgan qism ham Qazviniiy tomonidan tarjima qilinmagan va “Hasht bihish”ga kiritilmasdan qolib ketgan.

“Majolis un-nafois”ning toʻrtinchi majlisida keltirilib, ammo tarjima asar “Hasht bihisht”ning uchinchi bihishtida keltirilmagan shoirlar 21 tani tashkil qiladi va ular quyidagilar:

Majolis un-nafois (Toshkent nashri)	Hasht bihisht (Tehron nashri)
Mavlono Gʻiyosuddin Aziz, 4-m, 375/376-b.	-

Xoja Kamoluddin Udiy, 4-m, 376/377-b.	-
Ali Karmol, 4-m, 377-b.	-
Sulton Ibrohim Musha'sha', 4-m, 379-b.	-
Mavlon Xondamir (4-majlis, 379-bet)	-
Mavlon Hoji Muhammad (4-majlis, 381-bet)	-
Hofiz Muhammad Sultonshoh (4-majlis, 382-bet)	-
Mavlon Faxriy, 4-m, 382-bet.	-
Sayyid Asadulloh, 4-m, 383-b.	-
Mavlon Qosim, 4-majlis, 383/384-b.	-
Mavlon Ali, 4-m, 384-b.	-
Mavlon Shihob, 4-m, 384-b.	-
Mavlon Sharifi Bohi Shahriy, 4-m, 388-b.	-
Mavlon Shoh Ali, 4-m, 388-b.	-
Mavlon Bahlul, 4-m, 388-b.	-
Pahlavon Darvesh Muhammad 4-m, 391-b.	-
Muhammad Ali, 4-m, 391-b.	-
Pahlavon Sulton Ali Go'shtigir, 4-m, 391-b.	-
Xoja Qutbiddin, 4-m, 393-b.	-
Xoja Yusuf Mehna, 4-m, 393-b.	-
Xoja Yahyo, 4-m, 395-b.	-

Shuningdek, “Majolis un-nafois”ning to‘rtinchi majlisi so‘ngida **“To‘rtinchi majlis oxiri”** [Navoiy 2013, 396] nomi bilan keltirilgan qism ham “Hasht bihisht”ga kiritilmasdan qolib ketgan.

“Majolis un-nafois”ning beshinchi majlisida keltirilib, ammo “Hasht bihisht”ning beshinchi bihishtida keltirilmagan shoirlar 3 nafar – Mir Ibrohim [Navoiy 2013, 398], Sheram [Navoiy 2013, 399] va Bek Malakiylardir [Navoiy 2013, 401].

Shuningdek, “Majolis un-nafois”ning beshinchi majlisi so‘ngida **“Beshinchi majlisning g‘oyati”** [Navoiy 2013, 402] nomi bilan keltirilgan qism ham Qazviniiy tomonidan tarjima qilinmagan va “Hasht bihisht”ga kiritilmasdan qolib ketgan.

“Majolis un-nafois”ning oltinchi majlisida keltirilib, ammo “Hasht bihisht”ning oltinchi bihishtida keltirilmagan shoirlar 3 nafar – Adhami Ibrohim [Navoiy 2013, 398], Xoja Alouddin [Navoiy 2013, 399] va Mavlon Ahliylardir [Navoiy 2013, 401].

Shuningdek, “Majolis un-nafois”ning oltinchi majlisi so‘ngida **“Oltinchi majlisning nihoyati”** [Navoiy 2013, 410] nomi bilan keltirilgan qism ham Qazviniiy tomonidan tarjima qilinmagan va “Hasht bihisht”ga kiritilmasdan qolib ketgan.

“Majolis un-nafois”ning yettinchi majlisida keltirilib, ammo tarjima asar “Hasht bihisht”ning yettinchi bihishtida keltirilmagan shoirlar esa 12 tani tashkil qiladi va ular quyidagilar:

No	Majolis un-nafois (Toshkent nashri)	Hasht bihisht (Tehron nashri)
1	Abubakr Mirzo, 7-m, 412-b.	-
2	Sulton Iskandar Sheroziy, 7-m, 412-b.	-
3	Xalil Sulton, 7-m, 413-b.	-
4	Jahonshoh Mirzo, 7-m, 414-bet.	-
5	Ya'qub Mirzo, 7-m, 414-b.	-
6	Boyqaro Mirzo, 7-m, 415-b.	-
7	Shoh G'arib Mirzo, 7-m, 416-bet.	-
8	Faridun Husayn Mirzo, 7-m, 416/417-b.	-
9	Muhammad Husayn Mirzo, 7-m, 417-b.	-
10	Boysung'ur Mirzo, 7-m, 417-b.	-
11	Sulton Mas'ud Mirzo, 7-m, 417-b.	-
12	Sulton Ali Mirzo, 7-m, 417-b.	-

Bundan tashqari, “Majolis un-nafois”ning yettinchi majlisi so'ngida **“Yettinchi majlisning tuganchisi”** [Navoiy 2013, 417-418] nomi bilan keltirilgan qism ham H. Qazvinij tomonidan tarjima qilinmagan. Qazvinij “Hasht bihisht”da “Majolis un-nafois”ning so'nggi sakkizinchi majlisida keltirilgan Husayn Boyqaro to'g'risidagi ma'lumotni qisqartirishlar bilan fors tiliga o'girib, uni yettinchi majlis oxiriga qo'shib qo'yadi va shu bilan yettinchi majlis o'z nihoyasiga yetadi.

Xulosa qilib aytganda, Qazvinij o'z tarjimasida Faxriy Hirotiy kabi “Majolis un-nafois” asarining asl turkiy matni qanday berilgan bo'lsa, shundayligicha tarjima qilmay, o'z tarjimasiga ko'plab o'zgartirishlar kiritgan, buning natijasida asl turkiy matndan ancha uzoqlashgan.

Bu kabi o'zgartirishlarga tarjimon tomonidan asl matnda mavjud bo'lgan ayrim qismlarning butunlay tushirilib qoldirilishi, asl matnda mavjud bo'lmagan qo'shimcha ma'lumotlarning kiritilishi yoki tarjima asnosida tarjimon tomonidan matn qismlarining nomlari va mazmuniga kiritilgan o'zgartirishlarni sanab o'tmoq joiz.

Asl turkiy matnda mavjud bo'lib, ammo Qazvinij tomonidan “tushirib qoldirilgan” matn qismlari asosan shoirlarning ismi yoxud ular haqidagi ma'lumotlar, shoirlar qalamiga mansub baytlar va ularning sharhi holi bilan bog'liqdir.

Qazvinij asl matnda mavjud bo‘la turib, o‘z tarjimasida tashlab ketgan matn qismlari, uning asl matnga “sodiq” bo‘lmanidan dalolat beradi. Bu ishni ma‘lum ma’noda uning tarjimasidagi zaif nuqta desak xato bo‘lmaydi.

Xulosa

Qazvinij o‘zining “Hasht bihisht” tarjima asarida shoirlarning ismi bilan bog‘liq 100 ga yaqin qisqartirish va o‘zgartirishlarni amalga oshirganligi ma‘lum bo‘ldi.

“Majolis un-nafois”ning asl matnida keltirilib, ammo tarjima asar “Hasht bihisht”da tarjimadan tushib qolgan shaxs nomlari bilan bog‘liq quyidagi holatlar aniqlandi:

1) birinchi majlisda zikr etilgan, ammo tarjimada tushib qolgan shoirlar – 6 nafar;

2) ikkinchi majlisda zikr etilgan, ammo tarjimada tushib qolgan shoirlar – 5 nafar;

3) uchinchi majlisda zikr etilgan, ammo tarjimada tushib qolgan shoirlar – 55 nafar;

4) to‘rtinchi majlisda keltirilib, ammo tarjimada tushib qolgan shoirlar – 21 nafar;

5) “Majolis un-nafois”ning beshinchi majlisida keltirilib, ammo tarjimadan tushib qolgan shoirlar – 3 nafar;

6) “Majolis un-nafois”ning oltinchi majlisida keltirilib, ammo tarjimada aks etmagan shoirlar – 3 nafar;

7) “Majolis un-nafois”ning yettinchi majlisida keltirilib, ammo tarjimadan tushirib ketilgan shoirlar – 12 nafarni tashkil etmoqda.

Bundan tashqari, Qazvinij tomonidan majlislar xatmi, ixtimomi bilan bog‘liq o‘rinlar ham tarjimadan tushirib qoldirilgan, jumladan: “Ikkinchi majlis ixtimomi”, “Uchinchi majlisning xatmi”, “To‘rtinchi majlis oxiri”, “Beshinchi majlisning g‘oyati”, “Oltinchi majlisning nihoyati”, “Yettinchi majlisning tuganchisi”.

Qazvinij “Hasht bihisht”da “Majolis un-nafois”ning so‘nggi sakkizinchi majlisida keltirilgan Husayn Boyqaro to‘g‘risidagi ma‘lumotni qisqartirishlar bilan fors tiliga o‘girib, uni yettinchi majlis oxiriga qo‘shib qo‘yadi va shu bilan yettinchi majlis o‘z nihoyasiga yetadi.

Adabiyotlar

Алишер Навоий. 2013. *Тўла асарлар тўплами*. 10-жилдлик. 9-жилд.

Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.

امير عليشير نوابی، به کوشش علی اصغر حکمت، منوچهری، تهران
۳۲۳۱

اوحدی بلیانی، تقی الدین محمد. عرفات العاشقین و عرصات العارفین. به تصحیح ذبیح الله صاحب کاری و آمنه فخر احمد. ۱ ج. تهران: میراث مکتوب، ۹۸۳۱.

آقابزرگ تهرانی، محمد محسن. الذریعه الی تصانیف الشیعه. ج ۹. بیروت: دار الاضواء.

خیامپور، عبدالرسول. فرهنگ سخنوران. تبریز: چاپ خانه شرکت سهامی چاپ کتاب آذربایجان، ۰۴۳۱.

دولتشاه سمرقندی، امیر دولتشاه بن علاءالدوله. تذکره الشعرا. به تصحیح ادوارد براون. لیدن: بریل.

رازی، امین احمد. هفت اقلیم. به تصحیح سید محمد رضا طاهری. ج ۲. تهران: سروش، ۹۸۳۱.

سنبله مراد آدلی، میر حسین دوست. تذکره حسینی. لکهنو: نول کشور، ۲۹۲۱ ق.

صبا، محمدمظفر حسین. روز روشن. به اهتمام محمدحسین رکن زاده آدمیت. تهران: کتابخانه رازی، ۳۴۳۱.

فخر الدین علی صفی بیهقی، لطایف الطوائف. به تصحیح احمد گلچین معانی. چ ۳. تهران: شرکت نسبی اقبال و شرکا، ۲۵۳۱. گلچین معانی، احمد. تاریخ تذکره های فارسی. ۱ ج. تهران: کتابخانه سنایی، ۳۶۳۱.

واله داغستانی، علی قلی حان. ریاض الشعرا. به اهتمام ابو القاسم رادفر و گیتا اشیدری. ۲ ج. تهران: پژوهشگاه علوم انسانی، ۱۹۳۱.

Comparative analysis of “Hasht bihisht” and “Majolis un-nafois”

Parviz Izzatillaev¹

Abstract

This article compares the work of Alisher Navai “Majolis un-nafois” and its Persian translation, “Hasht bihisht”. The study lists the strengths and weaknesses of the translator, Hakim Shah Qazvini, one by one, based on reliable sources. For example, Hakim Shah Qazvini, in his translation not translated from the original Turkish text “Majolis un-nafois” as Fakhri Hiroti did, but made many changes in the translation as a result which he deviated from the original Turkish text. At the same time, the mistakes and shortcomings of the translator were considered, and with the help of Tashkent edition of the work, these shortcomings were eliminated. Some of the controversial shortcomings of the Tehran edition have been resolved with the help of Tashkent edition in this article.

Key words: “Majolis un-nafois”, Hakim Shah Qazvini, “Hasht bihisht”, manuscript, translation, textual research, Tehran edition, Tashkent edition.

References

- Alisher Navoiy. 2013. *Tula asarlar tuplami*. (10 jildlik). Gafur Gulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi: Toshkent, 9-zhild.
- Amin Ahmad Rozij. 1389. *Haft iqlim*. Be tashihe Sajjid Muhammad Rizo Tohirij. j.2. Tehron: Surush.
- Amir Alisher Navoiy, 1323. *Mazholis un-nafois*. Be kushehe Ali Asghar Hekmat. Tehron: Manuchehri.
- Abdurrasul Xayyompur. 1340. *Farhange suxanvaron*. Tabriz: Chopxoneje sherkate sahhomiye chope ketobe Ozarbojzhon.
- Aliqulixon Vola Dogestonij. 1391. *Rijoz ush-shuaro*. Be ehtemome Abulqosem Rodfar. zh. 2. Tehron: Pajuheshgohe ulume ensonij.
- Ahmad Gulchin Maonij. 1363. *Torixe Tazkerehoje forsi*. zh. 1. Tehron: Keteobxoneje Sanoij.
- Davlatshoh Samarqandi. *Tazkirat ush-shuaro*. Be tashihe Eduord Broun.

¹Parviz I. Izzatillaev – teacher, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: parvizisosoni@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-5754-2690

For citation: Izzatillaev, P. I. 2022. “Comparative analysis of “Hasht bihisht” and “Majolis un-nafois”. *Golden scripts* 3: 36–58.

Liden: Bril.

Mir Huseyn Dust Murod Odelij. 1292. *Tazkereye Huseynij*. Lakhnau.

Muhammad Muzaffar Huseyn Sabo. *Ruze Roushan*. Be ehtemome Muhammad Huseyn Runzoda Odamijjat. Tehron: Ketobxoneye Rozij.

Muhammad Muhsin Oghobuzurg Tehronij. *az-Zaria*. zh. 9. Bejrut.

Taqiuddin Muhammad Vohidi Buljoni. 1389. *Arafot ul-oshiqin va arasot ul-orifin*. Be tashihe Zabihulloh Sohibkorij va Omine Faxr Muhammad. zh. 1. Tehron: Mirose maktub.

Faxriddin Ali Safiy. 1352. *Latoyef ut-tavoyef*. Be tashihe Ahmad Gulchin Ma'oni. zh. 3. Tehron.

Alisher Navoiy devonlarining Turkiston¹ va boshqa hududlardagi toshbosma nusxalari

Dilnoza Rustamova²

Abstrakt

Jahon sivilizatsiyasiga sabab bo'lgan Gutenberg ixtirosidan qariyb besh asr o'tib, Turkistonga matbaachilik kirib kelgan bo'lsa-da, uning jadal rivojlanishi o'lka madaniy hayotida jiddiy ahamiyat kasb etdi. Turkiston general gubernatorligi va Xiva xonligida dastlab, davlat matbaalari, so'ngra xususiy matbaalar paydo bo'lishi mahalliy kitoblarning keng yoyilishida davrning asosiy ko'makchisi bo'lib xizmat qildi.

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Andijon, Namangan kabi shaharlarning bosmaxonalarida chop etilgan kitoblarning eng qiymatlilarini sanaganda, shubhasiz, Alisher Navoiy asarlari salmoqli o'rin egallaydi. Bugungi davrgacha olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, 1879–1917-yillar davomida shoirning asarlari yetmish martadan ziyod nashr etilgan.

Kalit so'zlar: *terma devon, toshbosma kitob, kotib, noshir, matbaa, kolofon, lirik janrlar.*

Kirish

Toshbosma nashrlar ichida Navoiy lirik merosini tashkil etuvchi “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining nisbatan mukammali hijriy 1299-yil, milodiy 1881–1882-yillarda Xivada nashr etilgan “Chahor devon”dir. Kulliyot xon topshirig'i bilan xattot Ibrohim Sulton Eroniy tomonidan Komil Xorazmiy noshirligida Muhammad Rahimxon II matbaasida chop etilgan [Хакимов 1991, 51]. Matnshunos R. Mahmudova Navoiy toshbosma devonlarining ushbu nashrini sinchkovlik bilan tadqiq etib, “... lirik janrlar

¹XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkiston o'lkasi nazarda tutilmoqda.

²Rustamova Dilnoza Ahmad qizi – tayanch doktorant, O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi.

E-pochta: dilnozashahriyor@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-5422-9915

Iqtibos uchun: Rustamova, D.A. 2022. “Alisher Navoiy devonlarining Turkiston va boshqa hududlardagi toshbosma nusxalari”. *Oltin bitiglar* 3: 59–77.

tarkibi devon tuzish qoidasiga muvofiq bo'lsa ham, lekin ular bir-biridan ma'lum darajada tarkibining har xilligi bilan farq qiladi", deydi. Xususan, Hamid Sulaymon aniqlagan "Xazoyin-ul-maoniy" nashri bilan solishtirganda "G'aroyib-us-sig'ar"dagi g'azallar 641ta (aslida, har to'rt devonda g'azallar 650tadan o'rin olganligi bizga ma'lum), ruboiy esa 126ta (133ta bo'lishi lozim), "Navodir-ushshabob" devonida 634ta g'azal, qit'a 21ta (50ta bo'lishi lozim), "Badoye'-ul-vasat"da 637ta g'azal, qit'a 43ta (60ta bo'lishi lozim), mustazod va tuyuq (yo'q), "Favoyid-ul-kibar" 610ta g'azal, fard 82ta (86ta bo'lishi lozim) kabi farqlanishlarni kuzatadi [Махмудова 1979, 140]. Ammo shunga qaramay, ushbu devon Navoiy asarlari ichidagi eng nodir nusxa sifatida qadrlidir.

Alisher Navoiy devonlari nashrlari

Matnshunos olim H.Sulaymon ushbu davr manbalariga nisbatan "shoirning toshbosmada nashr qilingan asarlari ichida eng ko'pi "Xazoyin-ul-maoniy" she'rlaridan tuzilgan turli hajm va tartibdagi kompilyativ devonlardir", deya ta'rif beradi [Навоий 1963, 32]. Albatta, Xivada chop etilgan dastlabki devon bu ta'rifdan mustasnodir. Zero, "kompilyativ" ("turli manbalardan yig'ilgan" ma'nosini anglatadi) atamasini bu nashrga nisbatan qo'llash joiz emas. Uni ko'proq terma devonlarga nisbatan ishlatish mumkin.

Asosiy e'tiborini mumtoz namunalar va o'z davri lirik asarlarini chop qilishga qaratgan Xiva toshbosmasi "Badoye'-ul-vasat" devonini 1300/1882-yili alohida holda kitobxonalarga taqdim qilgan. Matnshunos M.Hakimov ushbu devon ham Muhammad Rahimxon II farmoni bilan Muhammadniyoz ibn Oxund Komil Xorazmiy tomonidan nashrga tayyorlangani, ammo kotibi ko'rsatilmagani haqida ma'lumot beradi [Ҳақимов 1991, 41]. Bundan tashqari, ayni yilda xattoti noma'lum terma devon ham chop etilgan.

Toshkent Turkistonning Alisher Navoiy devonlari eng ko'p chop etilgan markaziy hududlaridan hisoblangan. Bir tomondan, bu yerda bosmaxonalar ko'p bo'lgani, ikkinchi tomondan, bunda asosan o'zbek tilidagi asarlar nashr etilishiga e'tibor berilgani bilan bog'liq. 1889-yili Furqat "Laxtin" bosmaxonasi bilan tanishadi va bu haqida "Turkiston viloyatining gazetisi"da ma'lumot beradi. Muhim jihati, Laxtin Navoiy devonlarini nashr ettirgan Toshkentdagi dastlabki bosmaxonalardandir. Unda hijriy 1334/1884-yili "Amir Alisher Navoiy navvarallohu marqadahu devonlari" Sankt-Peterburgning 1884-yil 14-dekabrdagi 745-raqamli ruxsatnomasi

bilan nashr etilgan. 288 betdan iborat devon Shohmurod Mullo Shohne'mat o'g'li tomonidan ko'chirilib, Rahimxo'ja eshon ibn Alixo'ja eshon noshirligida chop etilgan. "Laxtin"da Navoiy devonining ayni kotib va noshir hamkorligidagi 1888-yili ham chop etilgan nusxasi ham mavjud.

Navoiy devonlarining Turkiston va undan tashqaridagi hududlarda nashr etilishi va yoyilishi bir-biriga bog'liq kechgan. Xususan, 1891-yili S.I.Laxtin matbaasi qarz tufayli aka-uka Kamenskiylar qo'liga o'tadi. Shu bois shoirning keyingi devonlari Kamenskiylar matbaasida chop etilgan. R. Mahmudova tadqiqotida ushbu bosmaxonada ikki marta (1893–1894) chop etilgan deb yozsa [Махмудова 1979, 64], B. Qosimxonov Navoiy devonlarining uch tavsifi (barchasi 1893-yil)ni keltirgan. Ular: "Amir Alisher Navoiy navvarallohu marqadahu devonlari", "Amir Alisher Navoiy devonlari", "Devoni Amir Alisher mullaqab bi-Navoiy" deb nomlangan intixob devonlardir. Shuni aytish joizki, ba'zi manbalarda ushbu nusxalar "Badoye' ul-vasat" devoni deb berilgan, aslida esa terma devon. Sababi boshlanma g'azallar va tugallanma baytlarning hamda aksariyat she'rlar shu devondan olinganligi tavsif qiluvchida shunday taassurot uyg'otgan [Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan toshbosmalar katalogi 2020, 20].

Aka-uka Kamenskiylar 1899-yili bosmaxonani V.M.Ilinga sotib yuboradilar. Bunga qadar Ilin 1896-yili uncha katta bo'lmagan bosmaxonaga ega bo'lgan. Matbaaning kengayishi bilan kitoblar turi ham oshib, "Amir Navoiy" (1318/1900), "Navoiy" (1319/1901), "Devoni mavlono Amir Alisher" (1324/1906), "Amir Alisher Navoiy" (1324/1906) devonlari shu yerda chop etilgan. R. Mahmudovanning xabar berishicha, bu matbaa Navoiy devonlarini sakkiz marta chiqarishga muyassar bo'lgan. Olima ularning 1900, 1903, 1906-yillardagi nashrlarini nisbatan to'liqroq, deb hisoblaydi [Махмудов 1979, 63].

Toshkentda joylashgan Breydenbax litografiyasida esa Navoiy devoni 1897–1898-yillari to'rt marta, "Turkiston harbiy okrugi shtabi" matbaasida ikki marta, Yakovlevda 1908-yili bir marta hamda "Turkiston kuryeri" gazetasi matbaasida Mirza Ahmad Mirza Karim o'g'li noshirligida 1334/1915-yili 70 sahifadan iborat kichik hajmli "Amir Alisher Navoiy" devoni nashr qilingan.

Samarqanddagi Demurov matbaasida noshir Solihxo'ja Buxoriy tashabbusi bilan 1322/1904-yili Navoiy devoni nashr etildi. 1910-yili esa Qori Abdulrauf noshirligida kotib Sayid Abdussalom Mahdum Samarqandiy xati bilan shoir devonining yana bir nusxasi

chop qilingan. Samarqanddagi dastlabki nashr she'rlar miqdori va janrlar xilma-xilligi bilan keyingi nashrdan to'liqroqdir. Aytish joizki, bu matbaa O'rta Osiyodagi bir necha rangli mahsulot bosa oladigan yirik yagona bosmaxona bo'lgan.

Yangi Buxorodagi Levin va Kogon matbaalarida 1910-1913-yillari shoir lirikasi to'rt marta nashr etilgan. Xususan, Mullo Sayidxo'ja noshirligi va Mulla Muhammad Usmon kotibligida Kogon toshbosmasida "Mavlono Amir Navoiy" devoni Buxoro ahliga yetib borgan.

Qo'qonda 1902-yili "G'aroyib us-sig'ar" devoni Vayner bosmaxonasida chop etilgan. Bu hududda toshbosma asarlar boshqalariga nisbatan kam. Ammo Qo'qon xoni Muhammadalixon topshirig'i bilan "Xazoyin ul-maoniy" 1254/1838-1839-yillarda 300 nusxada ko'chirilgani ma'lum. Shu bois bu davrda Qo'qonni Navoiy devonlari eng ko'p kitobat qilingan hudud deb ko'rsatish mumkin.

Shoir lirikasi bu davrda asosan terma devon tuzilishida chop qilingan. Albatta, Xiva matbaasi nusxasi bundan mustasno. Intixob devonlarning nashr etilishiga esa bir qancha omillar sabab bo'lgan. Birinchidan, matbaachilik bilan shug'ullanuvchi kishilar o'z davrining ziyoli qatlami edi. Ular xalq qiziqishlari, ehtiyojiga qarab, xossatan, moddiy manfaatdorlikni ham ko'zlab kitoblar chop qilishgan. Lirik asarlar nasriy kitoblarga nisbatan oson va tez o'qiladi. Qolaversa, "Xazoyin-ul-maoniy"ning to'rt kitobdan iborat to'liq nusxasini nashr qilish katta xarajatni talab etardi. Moddiy tomondan qiynalib, tez-tez yopilib turadigan matbaalarga bu qiyinchilik tug'dirardi. Ikkinchidan, terma devonlarga xalq tomonidan sevib o'qiladigan, qo'shiq qilib kuylanadigan she'rlarning kiritilishi kitoblarning kengroq yoyilishiga sabab bo'lardi. Buni toshbosma devonlar mundarijasi bilan tanishish orqali bilish mumkin.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston hududida 70 dan ortiq kotib (25 kotib Navoiy asarlarini ko'chirganligi ma'lum), 80 dan ziyod noshir va bir qancha kitob savdogarlari bilan birgalikda davr ehtiyojidan kelib chiqib, kitoblar nashr qilishgan. Bu, albatta, Navoiy devonlarini nashr etishda ham ana shu inson omillari ishtirok etganligini inobatga olish lozimligini anglatadi.

Xususan, matnshunos M.Hakimov Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar faoliyatini o'rganar ekan, aynan 1888-1916-yillari "Xazoyin ul-maoniy"dan tanlab olingan terma devonlar 40 martadan ortiq nashr qilinganligi haqida xabar berib, shunday yozadi: "Navoiy terma devonlarining mana shu o'nlab toshbosma nusxalari mavjud eski usul maktablarida hamda yangi usul maktablarida ilmi adab

(adabiyot)dan darslik vazifasini ham bajargan". Olimning ushbu xulosasi shoir terma devonlari ahamiyatining nechog'li baland ekanligini ko'rsatadi. Zero, darsliklar boshqa toshbosma kitoblarga nisbatan ko'proq nashr etilgan bo'lishi, natijada kengroq tarqalganligi oydinlashadi. Albatta, ularning barchasini terma devon talablariga to'la amal qilib tayyorlangan deb ham bo'lmaydi.

"G'ulom Hasan Orifjonov" matbaasida chop etilgan Navoiy toshbosma devonlari

Turkistonda milliy matbaa va noshirlarning paydo bo'lishi mahalliy kitoblarning nashr qilinishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. XIX asrning 90-yillarida marg'ilonlik Azimxo'ja, toshkentlik Esonboy Husaynboyev kabi ziyolilar litografiya tashkil etgan, noshirlik faoliyatini olib borgan ilk mahalliy vakillar edi. Xususiyl matbaa ochmoqchi bo'lgan mahalliy kishi chor hukumatining senzurasidan ruxsatnoma olishda bir qancha muammolarga duch kelardi. Shunga qaramay, o'sha yillari mahalliy matbaachilar soni oshib boravergan. Zero, bu paytda hudud aholisining asosiy qismi, ya'ni 98 foizi mahalliy millat vakillaridan iborat edi.

Dastlabki faoliyatini sahhoflikdan boshlagan G'ulom Hasan Orifjonov matbaachilik va noshirlik sohasida nafaqat Toshkent yoki Turkistonda, balki O'rta Osiyo hududida ham muhim o'ringa ega bo'lgan. Orifjonov litografiyasining qachon tashkil etilganligi haqida turli qarashlar bor. R.Mahmudova bosmaxona ochilishining aynan yilini keltirmay, XX asr boshlarida deya umumiy ma'lumot bergan [Махмудов 1979, 26]. A.Boboxonov esa "XIX asrning ikkinchi yarmi oxirlarida ish boshlagan" deb yozadi [Бобохонов 1979, 67]. A.Mirzoraximov o'z tadqiqotida "Al-Kofiya ma'a fiqh" asari 1897-yili ushbu matbaada chop etilganini keltirib, shu yili toshbosmaxonaga asos solinganini dalillaydi [Мирзорахимов 2009, 47]. Bosmaxona "G'ulomiya", "Orifjonov", "G'.H.Orifjonov" nomlari bilan kitoblarni 1923-yilga qadar nashr etib turgan. Matbaaning o'ziga xosligi unda xalq og'zaki ijodi namunalari, mumtoz badiiy asarlar va diniy adabiyotlarning yuzdan ortig'i chop qilingani edi. Bu bilan Orifjonov milliy matbaachilik tarixida jiddiy o'rin tutgan, mahalliy kitoblarni targ'ib qilishda fidoyilik ko'rsatgan hamda o'zbek tilidagi kitoblar salmog'ining oshishiga katta hissa qo'shgan. Birgina Alisher Navoiy asarlarining o'n martadan oshiq nashr qilinganligi korxona faoliyatining ko'lamini ko'rsatib turibdi [Абдуазизова 2000, 31]. B.Qosimxonov tuzgan Alisher Navoiy asarlarining toshbosma nashrlari tavsifida esa to'qqiz marta deb ma'lumot beriladi

[Қосимхонов 1988, 4].

Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida G'ulom Hasan Orifjonov matbaasida chop etilgan toshbosma kitoblar ham o'rin olgan. Fondga saqlanayotgan Navoiy devonlarining 5 nusxasi shu matbaaga tegishli.

Ularning nisbatan dastlabkisi hazrat Navoiy she'rlaridan tashkil topgan 944-raqamli toshbosma devondir. Asarga مولانا امير نواى – “Mavloni Amir Navoiy” deb unvon berilgan. Kitob “Kimning qalbida ginasi bo'lsa, unda din bo'lmaydi” ma'nosidagi hadis bilan boshlangan. Unvon doira shaklidagi moychechak gulli naqshlar ichida joylashtirilgan, doira yo'nalishi bo'ylab esa quyidagi ma'lumot keladi:

در ماه عشو ۲۱ با يهتمام ملا قوام الدين قارى ملا موسى قارى نينک اوغلي نينک .
خراجاتی برلا باسملا بولدی در ۷۲۳۱ سنا.

Matndan ma'lum bo'ladiki, kitob hijriy 1327/1909-yilning ashuro oyi 12-sanasida noshir Mulla Qavomiddin Qori Mulla Muso Qori o'g'li sa'y-harakati bilan bosmaga berilgan. Noshir devonni o'sha davrning faol matbaa korxonasi غلامى الحسنى – G'ulomi al-Hasaniyda chop qildirgan. Kitobning so'nggi 118-sahifasida qisqa xotima mavjud: تمت الكتاب بعون الملك الوهاب. الراقيم ملا يو سوجان بين ملا . ذاكرجان مرحوم. Asar ko'chiruvchisiga “marhum” deb izoh berilganidan ayon bo'ladiki, kotib Mulla Yusufjon ibn Mulla Zokirjon kitob chop etilguniga qadar vafot etgan.

Devon 169ta g'azal (2-89-betlar), soqiynoma (asli tarji'band) (90-96-betlar), maviza (asli tarji'band) (97-103-betlar), 2ta mustazod (104-bet) 3ta qit'a (105-bet), 75ta ruboiy (106-118-betlar)ni qamrab olgan.

Kitob muqovasi qattiq kartondan bo'lib, oq fonga qizil rangda naqsh bosilgan. Jami 118 sahifadan iborat. O'lchami: 13,5x22,5 sm.

Ushbu devon basmaladan so'ng “G'aroyib us-sig'ar”ning kirish g'azali “Ashraquat...” bilan boshlangan. Ayni shu devonning 119-ruboiysi esa asarga yakun yasagan:

آخر دم عمر ايتسا شتاب ايساقى
توتغيل مينكا آنچا مى ناب ايساقى
كم حشردا مست اولسا خراب ايساقى
تا انكلاماى ايتسالر عذاب ايساقى.

Keyingi Navoiy lirikasidan tanlab olingan she'rlardan tashkil topgan مولانا امير نواى – “Amir Navoiy” devoni ham Davlat adabiyot muzeyi ekspozitsiya qismida E.22-raqami bilan saqlanadi. Unda 168ta g'azal (2-90-betlar), soqiynoma (asli tarji'band) (90-96-betlar), ma'viza

(97–103-betlar), 2ta mustahzod (103–105-betlar), 3ta ruboiyot (asli qit'a) (105–106-betlar), yana 75ta ruboiy (106–120-betgacha) o'rin olgan.

Asosiy matn 2-sahifadan basmaladan so'ng "Ashraquat..." g'azali bilan boshlanib, "G'aroyib us-sig'ar"dagi 119-ruboiy bilan tugaydi.

Adabiyot muzeyi toshbosma asarlar katalogida kitob "Alisher Navoiy "G'aroyib us-sig'ar" g'azallaridan jamlangan terma devon" deb berilgan [Toshbosma asarlar katalogi 2020]. "Amir Navoiy"ning tugallanish va boshlanish she'rlari aynan shu devondan olinganligi bois shunday ma'lumot berilgan ko'rinadi. Aslida esa, unda "Xazoyin-ul-maoniy"ning to'rt devonidagi she'rlar tanlab olingan.

Devon *عبد السلام ابن ملا عبد الرحمن* – Abdussalom ibn Mulla Abdurahmon tomonidan ko'chirilgan. Ammo homiy yoki noshir haqida biror ma'lumot berilmagan. Kitob Toshkentdagi *غلامی* – "G'ulomiya" matbaasida hijriy 1332/1913-yili chop etilgan.

Yashil fonda naqshlar bilan bezalgan qattiq karton muqova ichiga Hofiz devonidan bir sahifa yopishtirilgan. Kitob jami 120 sahifani tashkil qiladi. O'lchami: 13,5x23 sm.

Ta'kidlash lozimki, 944- va E. 22-raqamli devonlardagi she'rlar hajmi jihatdan bir-biriga o'xshasa-da, g'azallar mundariyasi jiddiy farqlanadi. Ba'zi o'rinlarda rasmiy devonlarga kirmagan g'azallar ham uchraydi. Bunda har ikki kotibning badiiy didi aks etgan. Ammo kichik janrlar haqida so'z ketganda, bir jihat e'tiborni tortadi. 944-raqamli toshbosmaning 73- va E. 22 devonining 71-ruboiysi Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub "Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi" (toshbosmada "g'urbatda" so'zi "mehnatda" bilan almashgan) misralari bilan boshlanuvchi to'rtligidir. Devonlarning davr jihatidan avvalgisi, albatta, 944-raqamli toshbosma kitob. Demak, xattot Yusufjon Zokirjon o'g'li Bobur ruboiysini o'zi ko'chirgan terma devoniga kiritgan. Ikkinchi kotib esa undan nusxa olgan. Bu kotibning Navoiyga tegishli asarlar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmaganidan, yoxud devon tuzishda foydalangan manbasida shunday berilganligi, yoinki misradan oldin kelayotgan Navoiy ruboiysiga juda yaqin yozilgani bois kotibning kuchli subyektiv xohishiga ko'ra Bobur she'ridan mantiqiy davom sifatida foydalangan deyish mumkin. Undan oldingi to'rtlik esa mana bunday:

*Yo koshifi asrori nihon bo'lsa kishi,
Halloli rumuzi osmon bo'lsa kishi,*

*Yo oshiqi zori notavon bo'lsa kishi,
Devona-vu rasvoyi jahon bo'lsa kishi.*

Keyingi Bobur ruboiysi:

*Yod etmas emish kishini mehnatda kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni g'urbatda kishi,
Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi oh,
G'urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.*

Har ikki ruboiyning faqat radifigina o'xshash bo'lmay, ma'nosi, ohangi ham bir-biriga uyg'undir. Bizningcha, shu bois kotib Bobur misralarini savqi tabiiy bilan Navoiy devoniga kiritib yuborgan.

Sharq kitobatchiligida XVIII asrdan kulliyot tuzish an'ana tusiga kirgan bo'lsa-da, XX asr kulliyotlarida mukammallik yetishmaydi. Xususan, Alisher Navoiy toshbosma devonlari orasida "Kulliyot" deb atalganlari ham bor. Ammo terma devon tuzilishidagi bunday to'plamlar "Xazoyin-ul-maoniy"dagi she'rlarni ham to'liq jamlamagan. Shunday asarlardan biri – 219-raqamli کلیات دیوان امیر نوایی "Kulliyoti devoni Amiri Navoiy"dir. Kitob hijriy 1333/1914-yili ملا صدیق جواجه خجندی – Mulla Siddiqxo'ja Xo'jandiy homiyligi va noshirligida nashr etilgan. Devonning so'nggi sahifasidagi ma'lumotlarga ko'ra, kotib ملا يولداش – Mullo Yo'ldosh tomonidan ko'chirilgan.

Terma devon 265ta g'azal (2–121-betlar), 35ta ta ruboiy (121–127-betlar), 2ta tuyuq (123–124-betlar), 3ta muxammas (128–131-betlar), soqiynoma (asli tarji'band) (132–137-betlar), ma'viza (137–141-betlar), mustazod (141-bet), 3ta qit'a (142-bet) kabi she'rlardan tarkib topgan.

Devonni "G'aroyib us-sig'ar"ning ilk g'azali boshlab beradi (2-bet):

اسرقت من عكسى شمس الكاسى انوار الهدا
يار عكسين ميذا كور ديب جامدين چىقتى صدا.

Kitob oxirida esa xuddi shu devonning fano sharbatı bobidagi 3-qit'asi berilgan:

فانى مطلق اولماين سالک
انکا يوقتور اميد مقصد کل
قرا تفرأغى سينماين قطره
اندين امکانى يوق آچيلماق کل.

Matn nasta'liq xatida ikki ustunli jadval ichiga va 32-bet-gacha hoshiyada ham joylashtirilgan. G'azallar maqta'lari ikki ustun

orasiga ajratib yozilgan. Kolofon 1-sahifa markazida doira o'rtasida berilib, atrofi gumbazsimon naqshlar bilan bezalgan.

Toshbosma muqovasi ustiga qora rangli shildiroq qog'o'z qoplangan qattiq kartondan tayyorlangan. Kitob 142 sahifadan iborat. O'lchami: 17x26,5sm.

Muzey fondida "Kulliyot" nomi bilan atalgan yana bir devon 220-raqam ostida saqlanadi. Har Ikki devonning ham muqovasi va o'lchami bir xil, ammo matn tuzilishi hamda kotib-u noshirlari bilan jiddiy farqlanishga ega.

Toshbosma asar کلیات دیوان امیر نوای "Kulliyoti devoni Amir Alisher Navoiy" deb nomlangan. Devonning ushbu nusxasi kotib ملا اوتب - Mullo O'tab tomonidan tayyorlanib, hijriy 1334 (milodiy 1915) yili chop etilgan. Tarkibiga ko'ra 317 g'azal (2112-betlar), tarji'band (113-118-betlar) soqiynoma (118-120-betlar), masnaviy (120-128-betlar), tarji'band (128-131-betlar), soqiynoma (131-136-betlar), 12 ruboiy (136-38-betlar), tuyuq (138-bet) yana 23 ruboiy (139-142-betlar), 2 muqattaot (qit'a) (142-bet), 8 muhtamalot (tuyuq) (142-bet), 3 mufradot (143-bet)ni tashkil qiladi. Matn jadval ichiga ikki ustunda va hoshiyada qiyalatib bitilgan. Ba'zi sahifalarda poygir qo'yilgan. 1 a varaqdagi kitob unvoni va matbaa haqidagi ma'lumotlar kvadrat ichida, atrofi gulli naqshlar bilan bezalgan.

Noshiri ملا تیمور خواجا بین حاجی محمد خجندی Mulla Temurxo'ja ibn Hoji Muhammad Xo'jandiy.

Kitob muqovasi qora rangli qattiq kartondan. 143 sahifadan iborat. O'lchami 16,5 x26 sm.

Muqovadan keyingi sahifada bosma harflarda "Литография Гуламъ Хасанъ Арифджанова. Стар. Ташкент" deb yozilgan.

Ushbu devon ham "G'aroyib us-sig'ar"ning ilk g'azali bilan boshlangan. "Favoyid ul-kibar"ning ikkinchi fardi esa kitobni xulosalagan (143-bet):

نبی شرعاً تا بمقام استقامت
ایرور سالیکی کا مشکل راک کرامت.

Har ikki kulliyotga homiylik qilgan noshir aka-ukalar Mulla Siddiqxo'ja Xo'jandiy va Mulla Temurxo'ja ibn Hoji Muhammad Xo'jandiy Navoiy devonlarini bir necha marta nashr etiganlar. Xususan, matbaa noziri, noshir va kitob savdogari Siddiq Xo'jandiy O'rta Osiyo, Hindiston va Turkistonda o'z faoliyatini olib borish bilan birga, Istanbulda Sayyid Mahmudbek matbaasi bilan hamkorlikda hijriy 1319/milodiy 1901-yili Amir Navoiy devonini chop qilgan [Navoiy Alisher. O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot

muzeyi fondi. 237-raqamli toshbosma, 223].

Adabiyotshunos R. Mahmudova Alisher Navoiy devonlari-ning “G‘ulomiya” toshbosmasidagi boshqa nashlardan mukammalroq deya 1915-yildagi nashrni ko‘rsatadi [Mahmudova 1979, 64]. Chindan ham, Navoiy toshbosma asarlari ichida 220-raqamli devon janrlar sonining boshqa devonlarga nisbatan ko‘proqligi, xushxatligi bilan ajralib turadi.

Terma devon tuzilishidagi Alisher Navoiy asarlarining yana biri fondning 18-raqam ostida saqlanuvchi امير نواى – “Amir Navoiy” toshbosma manbasidir. Mazkur nusxa hijriy 1333/1914-yili Toshkentda G‘ulomiya matbaasida chop etilgan.

Noshiri: ملا زفر شکور محمد اوغلى – Mulla Zafar Shukurmuhammad o‘g‘li.

Devon yakunida kotib ملا آرتوق – Mulla Ortuq ekanligi bitilgan. Kitobning bir necha o‘rnida unga egalik qilgan shaxs ملا عبد الوهاب جان – Mulla Abdulvahobjonning ismi eslatilgan.

Ushbu nuxsada boshqa toshbosma devonlardan ko‘ra she‘rlar miqdori kam. 121ta g‘azal (2–66-betlar), soqiynoma (asli tarji‘band) (66–72-betlar), maviza (asli tarji‘band) (73–80-betlar), 2ta mustazod (80–81-betlar), 3ta ruboiy (asli qit‘a) (81-bet), 75ta ruboiy (82–96-betlar) berilgan. Matn ikki ustunga joylashtirilib, nasta‘liq xatida ko‘chirilgan.

Muqova qattiq karton ustiga naqshli bezaklar berilgan yashil yupqa qog‘oz yopishtirib tayyorlangan. O‘lchami: 13,5x23 sm.

Devon basmaladan so‘ng, “G‘aroyib-us-sig‘ar”ning mashhur 1-g‘azali bilan boshlangan. Tugallanmada esa shu devondagi 119-ruboiy xulosa yasagan. Bu tartib 944- va E. 22-raqamli toshbosmalar bilan o‘xshash. Ammo hajm jihatidan 18-raqamli devon ixchamlik kasb etgan.

“G‘ulomiya” matbaasining texnik imkoniyati boshqa matbaalarga qaraganda ancha yuqori bo‘lgan deb qaraladi. M.Rustamov va R.Mahmudova tadqiqotlarida yozilishicha, har bir kitob o‘rta hisobda 2000-3000 tirajda nashr etilgan [Rustamov 1968, 32; Mahmudova 1979, 36]. Ammo matnshunos M. Hakimov: “Toshbosmada bosilgan har bir nashrning tiraji (adadi) 500-600 nusxadan oshmagan. Kamdan-kam hollardagina bir nashrning adadi 1000 nusxaga borgan. Xattot tomonidan yozilib toshqolipga o‘tkazilgan matndan muayyan nusxa (ko‘pincha 500-600 atrofida) olingach, matn siyqalanib o‘cha boshlagan. Natijada xattot o‘sha nashr matnini yangidan yozib bergan”, – deb yozadi [Hakimov 1991, 43]. N. Abduazizovanning mana bu ma‘lumotlari ham o‘rinli:

“Statistik ma’lumotlarga qaraganda, 1913-yili kitob nashri bor-yo’g’i 56 nusxani, shuningdek, o’zbek tilida 33 nusxani tashkil etardi, xolos. Ularning umumiy tiraji 100 ming nusxani, o’zbek tilidagisi atigi 8 ming nusxani tashkil qilar edi” [Abduazizova 2000, 31] 33 turdagi kitobning o’rta hisobda 200-300 nusxadan chiqishi 8 ming nusxani tashkil qiladigan bo’lsa, toshbosmalar 2000-3000 nusxada nashr etilmaganligi ma’lum bo’ladi. Bu M.Hakimov qarashlariga asos borligini ko’rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, “G’ulomiya” Navoiy asarlarini eng ko’p nashr qilgan, shuning bilan uning targ’ibiga hissa qo’shgan milliy matbaadir. Garchi devonlarda janrlar nomlanishi va matn bilan bog’liq ba’zi xatoliklarga yo’l qo’yilgan bo’lsa-da, Navoiy asarlariga qayta-qayta murojaat etilishining o’ziyoq matbaachi, noshir va xattotlarning, qolaversa, mahalliy aholi ehtiyojini ko’rsatib turibdi.

Navoiy devonining Istanbul toshbosma nusxasi

Alisher Navoiy lirik merosi jamlangan toshbosma kitoblar ichida Istanbulning ikki matbaasi – Orif Afandi va Sayyid Mahmudbekda chop etilgan bir nechta devonlar ham mavjud. Davlat adabiyot muzeyida Sayyid Mahmudbek matbaasida nashr qilingan ikki terma devon saqlanadi. Ulardan biri 237-raqamdan o’rin olgan toshbosma kitob دیون میر علی شیر نوائی (“Mir Alisher Navoiy devoni”) deb nomlangan. Asar 1319/1901-yili chop etilgan. Terma devon tuzilishidagi ushbu manba 439ta g’azal (2–198-b.), tarji’band (199–204-betlar), soqiynoma (205–207-betlar), 6ta dar bayoni qismat, ruboiy (207–208-betlar), masnaviy (208–210-betlar), tarji’band (210–218-betlar), 5ta muqattaot (218–219-betlar), 10ta muhtamalot (219–221), 7ta mufradot (221–222-betlar), so’nggi 223-sahifada kotibning xotimasi bilan tugallangan.

Devon basmaladan so’ng “Badoye’ ul-vasat”ning ilk g’azali bilan boshlangan (2-bet):

ای نوبهار عارضینک صبیغه جانپرور هوا
اندین گل و بلبل تاپیب یوز برگ برلا مینگ نوا

Tugallanishi (222-bet) fard:

کیشی عیبین یوزیگا قیلما یظهار
تاءمل عیلا اوذ عیبینگنی ذینهار

عبدالصمر تبریزی She’rlar ravon va yirik nasta’liq xatida kotib
– Abdussamad Tabriziy tomonidan ko’chirilgan. Kitob sariq va pushtirangli fabrika qog’ozida chop qilingan. Lirik asarlar ikki ustunda ramkaga olingan. Ustun tepasida sahifa raqami ko’rsatilgan

bo'lsa-da, ostida poygir ham qo'yilgan. Devonning barcha sahifalari mavjud.

Kitob sarvarag'ida uch qator chizilgan islamiy naqshlar ichiga kotib tomonidan ishning xayrli yakunini tilab duo yozib qo'yilgan:

بعون صناع مكيين ومكان و فضل خلاق زمين و اسمان

(*Bi'avni sina'i makin va makon va fazl xollaqu zamin va osmon*)

So'ng *deya* Istanbul *maorif* nazoratidan o'tganligi haqida ma'lumot beriladi. Ikkinchi qatorda unvon – *مير علی شیر نوایی دیون* (“Mir Alisher Navoiy devoni”) uning ostida esa kitob noshiri, aniqroq, tojiri kutub *صالح خوجه بخاری* – Solihxo'ja Buxoriy va Islombuldagi Mahmudbek matbaasida nashr qilingani eslatib o'tilgan.

Kitob muqovasi qattiq karton ustiga binafsha rangli naqsh va bezaklarsiz yupqa qog'oz qoplama bilan tayyorlangan. Bichimi – 17,5x26,5 sm. Umumiy 223 sahifadan iborat.

Istanbuldagi Sayyid Mahmudbek matbaasida nashr etilgan yana bir devon esa *دیوانی امیر نوایی* – “Amir Navoiy devoni” deb nomlangan. Asar 248-inv. raqam ostida saqlanadi. Ushbu kitob ham hijriy 1319-, milodiy 1901-yili chop qilingan. She'rlar ketma-ketligidan bilish mumkinki, bu ham terma devonlarning biri. Unda g'azallar soni 392ta (2–181-betlar). Tarji'bandlar birin-ketin emas, boshqa janrlardan keyin ikki o'rinda kelgan (181–187; 198–202-betlar). Soqiynoma (188–189-betlar), qismat bayonida (190-bet), 3ta ruboiy (190-bet), masnaviy (191–198-betlar), 7ta ruboiy (202-bet), 8ta muhtamalot (204–205-betlar), mufradot (205–206-betlar)dan so'ng kolofon matni o'rin olgan.

Devonni “G'aroyib us-sig'ar”ning ochqich g'azali boshlab bergan (2-bet):

اسرقت من عکسی شمس الکاسی انوار الهدا
یار عکسین میدا کور دیب جامدین چیققی صدا

Tugallanishi esa 237-raqamli toshbosma devondagidek “Favoyid-ul-kibar”dagi 30-fard bilan yakunlangan.

Ushbu devon ham nasta'liq xatida ko'chirilgan. Chop etishda pushti, sariq, havorang fabrika qog'ozidan foydalanilgan. She'rlar ikki ustunli jadval ichida tartib bilan joylashtirilgan. Kitobning ba'zi sahifalari ko'chgan, ammo matnda saktalik yo'q.

Noshiri: *حاجی محمد صدیق* – Hoji Muhammad Siddiq Xo'jandiy.

Asar ko'chiruvchisi: *محمد صادق افغان قندهاری* – Muhammad

Sodiq Afg'on Qandahoriy.

Muqova qattiq kartondan, yuzi yashil rangli naqshlar bilan bezatilgan. Kitob 207 sahifani tashkil qiladi. Bichimi –15,5x24 sm.

Bu ikki devon tuzilishi jihatidan farqlansa-da, ularni birlashtirib turadigan ikki muhim jihat bor, bular – bir matbaada chop etilgani va deyarli bir xil kolofonga egaligidir. Albatta, har ikki kitobning aynan bir matbaada chop etilishida g'ayrioddiylik yo'q. Ammo matbaachilikning Turkiston hududida 1870-yillari kirib kelganini hisobga olsak, bu yerda 1901-yillari kitob nashr qilish unchalik katta muammo tug'dirmasdi. Shunday ekan, noshirlarning kitoblarni Istanbulda chop etishlarida va bu devonlarda qanday farqli tomonlar borligi haqida fikr yuritishni joiz deb topdik.

Mahmudbek matbaasi 1872–1873-yillarda Istanbulda zamonasining ziyoli vakili Mahmudbey tomonidan xususiy bosmaxona o'laroq tashkil etilgan. Usmonli davlatida ushbu matbaaning alohida o'rni bo'lgan. Unda XIX–XX asrlarda madaniyat va ta'lim sohalariga oid 2017 turdagi kitob, 63ta jurnal va gazetalar chop etilgan. O'z o'rnida vazirlik maqomida bo'lgan Maorif nazorati matbaada chop etilayotgan har bir manbani tekshirib turgan. Buni biz yuqorida tavsifini keltirgan har ikki devonning 1-sahifasidagi nazoratdan o'tganligi haqidagi ma'lumotdan ham bilish mumkin. Ushbu nufuzga ega bo'lgan matbaada chop qilingan Navoiy devonlarini kitobat san'atining go'zal namunasi va sifatli qog'ozdan foydalanilgan nashr deb baholash qiyin. Bizningcha, Navoiy asarlarini kengroq yoyish bilan birgalikda ularning sotuvdagi ahvolini yaxshilash uchun ham aynan Mahmudbek matbaasi tanlangan. Zero, 1890-yillari bu bosmaxona o'z kitob do'konini ochgan. Bugungi til bilan aytganda, unda kitob savdosi marketingi yaxshi yo'lga qo'yilgan edi.

Navoiy asarlarining toshbosma nashrlari tavsifini keltirgan B. Qosimxonov Istanbulda chop qilingan devonlarning noshirlari Hoji Muhammad Siddiq Xo'jandiy va Solih xo'ja Buxoriylarni ham keltiradi [Қосимхонов 23–24]. Albatta, kitob tayyorlashda sa'y-harakat ko'rsatgan, uni moddiy ta'minotini amalga oshirgan odamni noshir deyish joiz. Ammo har ikki manbaning 1-betida ular تاجر كتب – “tojiri kutub”, ya'ni “kitob savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxs” deya ko'rsatilgan. Bizningcha, kitob savdogarlari devonlarni Istanbulda nashr qilinishida ko'proq uning savdo imkoniyatidan manfaatdor bo'lishgan.

Solihxo'ja Buxoriy 1904-yili Navoiy devoniga yana murojaat qilgan. Bu safar kitob Samarqanddagi Demurov matbaasida chop etilgan.

Istanbuldagi devonlar tuzilishi, mavzu ko'lamini jihatidan Turkistonda nashr qilingan terma devonlardan jiddiy farqlanmaydi. Janrlarni nomlashda kotib tomonidan ayrim xatoliklarga yo'l qo'yilgan. 237-raqamli devonning dastlab "Dar bayoni qismat" deb kelgan she'rni mantiqan qit'a janrining shunday nomlanishi deyish mumkin. Ammo ruboiy sarlavhasi ostida kelgan to'rtliklar ham qit'alardir. Aslida, ularning qofiyalanish tarzidanoq ruboiy janriga taalluqli emasligi (a-a-b-a tarzida qofiyalanmaganligi) anglashiladi. Mana ulardan dastlabkisi:

<i>Muhammad arabiy barmog'i ishorat ila Sipehr xonida oy qursin ul sifat oson. Ikki oyirdiki, bir nonni xoni ichra xalil, Aningdek ikki ushatmoq emasturur oson. ("Favoyid-ul-kibar" 2-qit'a)</i>	محمد عربی بarmaqi یشارت ایلا سپهر خوانیدین ای قرصین اول صفت آسان ایکی ایردکی بر ناننی خوانی ایچرا خلیل انینگدیک ایکی اوشاتماق ایمسدورور آسان.
--	--

Abdusamad Tabriziy kotibligidagi ushbu علی شیر دیون میر علی شير Abdusamad Tabriziy kotibligidagi ushbu "Mir Alisher Navoiy devoni"dan boshqa asarni uchratmadik. M. Hakimovning "Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar" kitobida ham faqat shu devon haqida, 248-raqamli devonni ko'chirgan Muhammad Sodiq Afg'on Qandahoriyning esa Istanbuldagi Orif Afandi matbaasida "Amir Alisher Navoiy devonlari"ni ham ko'chirgani haqida ma'lumotlar berilgan [Хакимов 1991, 47]. Shu o'rinda har ikki kotib tomonidan yaratilgan deb qarash mumkin bo'lgan devon oxiridagi kolofon xususida to'xtalsak.

Qayd etish joizki, har ikki devondan bir xil xotima o'rin olgan:
(237-inv. raqamli toshbosma)

طبع دین تابتی حلا زیبا عاقبات بولری بخت راهنمون راقم امیدى موندین اجرو ثواب طبعاً و مثیلىنى زینت افزای بارچا سین بی تعلل اول بردی جمع ایدی اندا رافت و شفقت خیرو ایحسانغا دایما قایم مغفت برلان ایلاسون مسعود سورسا هر کیمسا اوچود اون توققود ینگ.	شکرالله بو شاهر رعنا سعی لار کورگودوب نیچا تونو کون تا تمام ولدی و شبو خوب کتاب انتی صالح خوجا بخارای هر خراجات کیم بولوب ایردی چونکی ایردی جوان باهیمنت خلق نفعینی کوزلاگان دایم کاتب عبد الصمدغا رب دورور سال طبعیغا نوایینی مینگ
---	--

Shukrolloh, bu shahar ra'no
 Tab'adin tobtu hala zibo,
 Sa'ylar ko'rsatib necha tun-u kun,
 Oqibat bo'ldi baxt rahnamun.
 Tamom bo'ldi ushbu xo'b kitob,
 Roqim umidi mundin ayr-u savob.
 Etti sohibi xo'ja Buxoriy
 Tab'a va mislini ziynat iqroiyy,
 Har xarojatkim bo'lib erdi,
 Barchasin beta'qlil ul berdi.
 Chunki erdi javon behimmat,
 Jam' edi onda rof'at-u shafqat.
 Xalq naf'ini ko'zlagan doim,
 Xayr-u ehsong'a doimo qoim.
 Kotibi Abdussamadg'a robbidur
 Mag'firat birlan aylasun mas'ud,
 Sol tab'a kitob firuz bil
 Ming uch yuz o'n to'qquz yil.

248-raqamli toshbosma devonda esa ushbu matnning noshir va kotibi tilga olingan misralarigina farqlanadi:

طبعاً و تمثیلىنى كمر بندى انگا لطفیلأ ئادایده خالق	انتى حاجى صديق خجندى كاتىبى دور محمد صادق
--	---

Kolofonni o'ziga xos nazmiy asar deb baholash mumkin. Zero, har bir misra qofiyalanib, terma devonning yaratilishi haqida ma'lumot va ishning yakuniga xulosa muddaosini anglatgan.

Ikkala devonning asosiy qismini tashkil qilgan g'azallar mundariyasi farqli bo'lsa-da, tarji'band, soqiynoma, qit'a, tuyuq va fardlar deyarli bir-birini takrorlaydi. Xotima matnining o'xshashligi esa uni bir kotib bitgan, ikkinchisi undan ko'chirgan degan xulosaga olib keladi. Va yana har ikki devonda ham xotimadan ayri holda quyidagi jumla keladi:

237-raqamli toshbosma:

حسب الفرمايش عليحضرت ستوره خصلت پندیده فطرت جناب فضیلت هآب
 ایثان صالح خواجا تاجری کتب بخارای فی شهری رمضان 9131.

(Hisb al farmoyish oliy hazrat satura xislat pandida fitrat janobi fazilati hob Eshon Solihxo'ja tojiri kutub Buxoriy fi shahri ramazon 1319.)

248-raqamdagi devon so'ngida esa:

بفرمایش علیجاه عززت و سعادت اکتیناه حاجی محمد صدیق ایشان خجندی
حقر العباد محمد صادق افغان قندهاری تحریری نموده.

(Bifarmoyish oliyjah izzatu va saodat iktinohi Hoji Muhammad Siddiq Eshon Xo'jandi haqrulibad Muhammad Sodiq Afg'on Qandahori tahriri namuda)

Quyidagi jumla esa 237-devonning oxirida sahifa ostida, 248-raqamli devonda bo'lsa 1-sahifaning hoshiya chizig'idan pastda o'rin olgan. Ularda hech qanday farq ko'rinmaydi:

معارف نظارت جلیلا سینیگ ۲ جمار لاول ۹۱۳۱ ترخ ۳۸۲ نومورلو رخستناما
محمودبک مطبعه سینده طبع اولمیشدر.

(Maorif nazorati jaliylasining 2 jumod ul-avval 1319-tarix 283 numuralu ruxsatnoma Mahmudbek matbaasinda tab'a o'lmishdir.)

Ko'ringanidek, har ikki kitobning ruxsatnoma raqami bir xil. Ehtimol, bu devonlar bir paytda – jumod ul-avval oyida nashr etilishi reja qilingan bo'lishi mumkin. Ammo biz yuqorida keltirgan ma'lumotda 237-toshbosma devonning kotib tomonidan 1319-yilning ramazon oyida yakunlangani anglashiladi. Shunga ko'ra, bu kitob 248-raqamli devondan keyinroq chop qilingan degan xulosaga kelish mumkin.

Har ikki devonda Mahmudbek matbaasining Islombulda ekanligi ta'kidlangan. Shahar tarixiga oid manbalar kuzatilganda, XVIII–XIX asrlarda Istanbul shahrining Islombul shaklida qo'llangani haqidagi ma'lumotlar uchraydi. Demak, ushbu davrdagi manbalarda Islombul shaklida berilishi tabiiy bir holdir.

Xulosa

Navoiy toshbosma devonlarining nusxalarini tadqiq etish natijasida quyidagilarni sanash mumkin:

1870-1915-yillari davlat va xususiy matbaalarda Navoiy devonlari 40 martadan ortiq nashr qilindi.

1. Xalq talabidan va bozor munosabatidan kelib chiqib, terma devonlar ko'proq chop qilindi.

2. Navoiy devonlaridan bu davrda yangi usul va eski usul maktablarida adab darsligi sifatida foydalanildi.

3. Navoiy toshbosma devonlari turkistonlik noshir va kotiblarning sa'y-harakati bilan shoir asarlari nafaqat bizning hududimizda, balki turkiy davlatlarda ham targ'ib qilingan va keng yoyilgan.

4. Devonlar targ'ibotida noshirlar alohida rol o'ynadi.

5. Terma devonlar mukammalligi jihatidan Xiva va Toshkent nusxalari ajralib turadi.

Xiva matbaasida “Xazoyin ul-maoniy”ning bir qadar yaxlitligini saqlagan devonlar, Toshkent va Istanbulda g’azal, tarji’band, soqiynoma, masnaviy, mustahzod, muxammas, qit’a, ruboiy, tuyuq, fard kabi o’nlab janrlar o’rin olgan devonlar, Buxoro hamda Samarqand nashrlarida besh janr – g’azal, soqiynoma, mustahzod, ruboiy va qit’alardan tashkil topgan nisbatan ixcham devonlar xalqqa yetib borganligi ma’lum bo’ldi. Kitobatchilik an’anasi va she’rlar miqdorining ko’pligi bilan Toshkent nusxalari yetakchilik qiladi. Aytish joizki, kitobatchilik san’ati va an’anasi XV asrda keng taraqqiy etgan bo’lsa, O’rta Osiyoda toshbosma asarlarning chop etilishi bilan uning yangi bosqichi boshlandi. Zero, an’anaviy kitobat san’atiga XIX–XX asrga xos uslub ham aks eta boshladi. Manbalarni tadqiq etish jarayonida Orifjonov matbaasida xattotlik san’atiga yuksak ehtirom bilan qaralganiga guvoh bo’lish mumkin.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий асарларининг тошбосма нашрлари тавсифи. 1988. Тузувчи: Б.Қосимхонов. Тошкент.
- Алишер Навоий. 1963. *Ғаройиб-ус-сиғар*. Ўн беш жилдлик. Биринчи жилд. Тошкент: ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти.
- Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейида сақланаётган тошбосмалар каталоги. 2020. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий. ЎЗР ФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи фонди. 237-рақамли тошбосма.
- Алишер Навоий. ЎЗР ФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи фонди. 248-рақамли тошбосма.
- Бобохонов, А. 1979. *Ўзбек матбааси тарихидан*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги санъат ва адабиёт нашриёти.
- Ҳакимов, М. 1991. *Навоий асарларини қўчирган хаттотлар*. Тошкент: Фан.
- Маҳмудова, Р. 1979. *Тошбосма китоблар ва уларнинг ўзбек адабиёти тарихидаги аҳамияти*. Филол. фан. ноз. дисс. Тошкент.
- Мирзораҳимов, А. 2009. *Ўрта Осиёда тошбосма китоб тарихи*. Тарих. фан. ном. ...дис. Тошкент.
- Туркистон матбуоти тарихи*. 2000. Тузувчи: Абдуазизова. Тошкент: Академия.
- Рустамов, М. 1968. *Ўзбек китоби*. Тошкент.
- Cemal Belek. 2019. *Osmanlı'dan cumhuriyet'e Mahmud Bey matbaası ve basin faaliyetleri*. Istanbul.
- Yavuz Kartallıoğlu. 2016. “İstanbul Şehir Adının Telaffuzunun Tarihî Süreç İçinde Gelişmesi”. *FSM İlmî Araştırmalar İnsan ve Toplum Bilimleri Dergisi* 7: 124.

Copies of lithographs of Alisher Navoi's diwans in Turkestan and other regions

Dilnoza Rustamova¹

Abstract

Although printing was introduced in Turkestan nearly 5 centuries after Gutenberg's invention, its rapid development gained serious importance in the country's cultural life. First, the appearance of state printing houses in the Governorate of Turkestan and the Khanate of Khiva, and then private printing houses, served as the main helper of the period in the wide distribution of local books.

When counting the most valuable books published in the printing houses of cities such as Tashkent, Samarkand, Bukhara, Khiva, Kokand, Andijan, Namangan, Alisher Navoi's works undoubtedly occupy a significant place. According to the research carried out until today, during the years 1879-1917, the works of the great poet were published more than 70 times.

Key words: *selected divan, lithographic book, secretary, publisher, printing press, colophon, lyrical genres.*

References

- Alisher Navoiy asarlarining toshbosma nashrlari tavsifi.* 1988. Tuzuvchi: B.Qosimxonov. Toshkent.
- Alisher Navoiy. 1963. *G'aroyib-us-sig'ar.* O'n besh jildlik. Birinchi jild. Toshkent: O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti.
- Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan toshbosmalar katalogi.* 2020. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi. 237-raqamli toshbosma.
- Alisher Navoiy. O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi. 248-raqamli toshbosma.
- Boboxonov, A. 1979. *O'zbek matbaasi tarixidan.* Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi san'at va adabiyot nashriyoti.
- Hakimov, M. 1991. *Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar.* Toshkent: Fan.

¹ Dilnoza A. Rustamova – doctoral student, Alisher Navoi State Literature Museum of the Republic of Uzbekistan.

E-mail: dilnozashahriyor@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-5422-9915

For citation: Rustamova D.A. 2022. "Copies of lithographs of Alisher Navoi's diwans in Turkestan and other regions". *Golden scripts* 3: 59– 77.

- Mahmudova, R. 1979. *Toshbosma kitoblar va ularning o'zbek adabiyoti tarixidagi ahamiyati*. Filol. fan. noz. diss. Toshkent.
- Mirzorahimov, A. 2009. *O'rta Osiyoda toshbosma kitob tarixi*. Tarix. fan. nom. ... dis. Toshkent.
- Turkiston matbuoti tarixi*. 2000. Tuzuvchi: Abduazizova. Toshkent: Akademiya.
- Rustamov, M. 1968. *O'zbek kitobi*. Toshkent.
- Cemal Belek. 2019. *Osmanli'dan cumhuriyet'e Mahmud Bey matbaasi ve basin faaliyetleri*. Istanbul.
- Yavuz Kartallıoğlu. 2016. "İstanbul Şehir Adının Telaffuzunun Tarihî Süreç İçinde Gelişmesi". *FSM İlmî Araştırmalar İnsan ve Toplum Bilimleri Dergisi* 7: 124.

LINGVISTIKA

LINGUISTICS

**O‘zbek va uyg‘ur-arab alifbosining
qarindoshlik munosabatlari**

(Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari
uyg‘urcha tarjimasida aks etgan singarmonizm
hodisasi misolida)

Song Ho-Lim¹

Abstrakt

Abdulla Qodiriy o‘zbek tilida yozilgan ilk zamonaviy roman muallifidir. XX asr boshlarida adabiy asarlarning aksariyati fors-arab yozuvi imlosida yozilgan. Qodiriy ham o‘zining dastlabki asarlarida xuddi shu yozuvdan foydalangan. Biroq uning “O‘tkan kunlar” romanining 1925-yilgi birinchi nashri milliy uygo‘nish davrida paydo bo‘lgan yangi o‘zbek-arab yozuvida chop etilgan. Bu yozuv asosida keyinchalik uyg‘ur-arab alifbosi shakllantirilgan. Boshqacha aytganda, Qodiriy ijodi chig‘atoy turkiy tilidan hozirgi uyg‘ur va o‘zbek tillari ajralish davrini o‘zida aks ettiradi. Ushbu tadqiqotda “O‘tkan kunlar”da qo‘llanilgan yangi o‘zbek-arab yozuvi shu asarning 1982-yilgi uyg‘urcha tarjimasidagi uyg‘ur-arab yozuvi bilan qisqacha taqqoslanadi. Bu orqali ikki xalq o‘rtasidagi etnolingvistik aloqalarni, ayniqsa, qarindoshlik munosabatlarini ma‘lum darajada kuzatish mumkin. Qolaversa, uyg‘ur tilidagi fonetik o‘zgarishlar, xususan, singarmonizm hodisasini yozuvda aks ettirish, uni tilda saqlash uchun qilingan xatti-harakatlar tarixiy voqealiklar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Abdulla Qodiriy, uyg‘ur tili, singarmonizm, umlaut, arab yozuvi, chig‘atoy tili, uyg‘ur imlosi.*

Kirish

1894-yili Toshkentda tug‘ilgan Abdulla Qodiriy O‘zbekistondagi ilk zamonaviy roman muallifidir. Qodiriy O‘zbekiston Sotsial-

¹ *Song Ho-Lim* – SamDU filologiya fakulteti, Hankuk chet tillar universiteti Markaziy Osiyo kafedrasi doktranti, Seul, Koreya.

E-pochta: *riohavana@naver.com*

ORCID ID: 0009-0008-3211-5255

Iqtibos uchun: Song Ho-Lim. 2022. “O‘zbek va uyg‘ur-arab alifbosining qarindoshlik munosabatlari (Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari uyg‘urcha tarjimasida aks etgan singarmonizm hodisasi misolida)”. *Oltin bitiglar* 3: 78–92.

istik Respublikasining dastlabki yillarida yashab, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Ashurali Zohiriy va Cho‘lpon kabi mashhur jadid ziyolilari bilan bir davrda faoliyat yuritib, bugungi o‘zbek adabiy tilining shakllanishiga katta hissa qo‘shdi.

Bu davrda o‘zbek tilida badiiy asarlar yozgan ziyolilarning ko‘pchiligi bir vaqtlar “sart” sifatida ta’riflangan, ham forsiy, ham turkiy tillarda so‘zlashuvchi zullisonaynlar edi. Qodiriyning o‘zi ham asarlarida arabiy va forsiy so‘zlardan keng foydalandi. Shunday bo‘lsa-da, Qodiriyning uslubi Furqat kabi turkiy yozuvchilarning ijodiga nisbatan ancha sayqal topganligi va nafisligi aniq. Boshqacha aytganda, Qodiriy asarlarida chig‘atoy turkiy tilidan uyg‘ur va o‘zbek tillariga o‘tish davridagi xususiyatlar bir qadar saqlanib qolgan. Xususan, “O‘tkan kunlar” romanining 1925-yili chop etilgan birinchi nashri 1920-yillardan isloh qilinib qo‘llana boshlagan o‘zbek-arab yozuvida bosib chiqarilgani e’tiborga loyiq. 1930-yillardan keyin bekor qilingan arab yozuvining ushbu yangi varianti arab va fors tillari an’analari birla turkiy tilning fonologik xususiyatlarini bir muncha aks ettirgan.

Ushbu tadqiqotda 1925-yilda chop etilgan ilk o‘zbek romani “O‘tkan kunlar”dagi yangi o‘zbek-arab yozuvi hamda 1982-yildan qo‘llana boshlagan hozirgi uyg‘ur-arab yozuvi solishtirilgan holda bu tillardagi fonetik xususiyatlar, ayniqsa, singarmonizm tahlil qilinib, ular orasidagi tafovut sabablari o‘rganiladi.

Asosiy qism

Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” asarining birinchi qo‘lyozma matnini 1920-yil dekabr oyida yozib tugatgan. Shundan so‘ng 1922-yildan 1923-yilgacha – ikki yil davomida “Inqilob” jurnalida “O‘tkan kunlar”ning dastlabki qismlari fors-arab yozuvida chop etib borildi. Biroq romanning rasmiy nashri dastlab 1925-yilda “O‘zbek davlat nashriyoti” tomonidan bosib chiqarildi. Bir yildan so‘ng, 1926-yilda ikkinchi – tahrirlangan nashri bosmadan chiqdi [Karim 2013]. “O‘tkan kunlar” 1920-yillarda qabul qilingan imloda nashr qilingan bo‘lsa-da, lekin hamma o‘zbek nashriyotlari ham bir xil standart yozuvni qabul qilmagan edi. 1920-yillardan oldin “o‘zbek tili” tushunchasiga etalon adabiy til sifatida emas, balki ko‘chmanchi o‘zbek urug‘lari tomonidan ishlatilgan sheva sifatida qaralgan.

Boshqacha aytganda, bugungi o‘zbek tilining ajdod tili “o‘zbek” nomi bilan emas, balki “chig‘atoy turkiy” deb atalgan. Chig‘atoy turkiy tili ko‘chmanchi o‘zbeklarning ona tili bo‘lmay, balki o‘troq turkiy musulmonlar, ayniqsa, sartlarning adabiy tili edi. Chun-

ki ko‘chmanchi qabilalar o‘troq shahar aholisiga solishtirganda yuqori savodxonlik darajasiga ega emas edi. Savodxonlik (o‘qish va yozish qobiliyati), asosan, shaharda istiqomat qiluvchi davlat xizmatchilariga, savdogarlarga, ulamolarga va zodagonlarga zarur edi.

“... xususan, tavoifi atarok (turklar) va o‘zbeklar o‘tgan urug‘ va qabilalarini yodda tutmoqqa g‘oyatda harakat qiladurlar. Ammo bizning Turkiston sartiyyalari tarixga ko‘p ahamiyat bermay ikki-uch otadan ilgari o‘tgan salaflarini va ularni zamonalaridagi hikoyat va voqeatlarni aslo bilmaydurlar. Farg‘ona va Xo‘qand xonlari va ularning ahvolatlarini ba‘zi tavorixlardan va ko‘hna sol odamlardan va ham xud kamina o‘zim eshitgan va ko‘rganlarimni soda va rasmi chig‘atoy turk tilida musavvad aylab Tarixi Turkiston nom qo‘yib shuru‘ qildim” [Maxdum Hoji 1915, 4].

Ammo, Turkiston o‘lkasida Samarqand va Buxoro turk-jadid ziyolilari atrofida markazlashgan “sart”lar emas, balki faqat o‘zbek etnik guruhlari mavjud, degan fikr ilgari suriladi [Behbudiy 1915]. 1920-yillardan sart va boshqa qipchoq qabilalari yangi paydo bo‘lgan “o‘zbek” millatiga qo‘shilib ketdi va ularning tillari ham “chig‘atoy turkiy” yoki “qipchoq” nomlari o‘rniga “o‘zbek tili” deb atala boshlandi.

“O‘tkan kunlar”ning 1925-yilgi nashri haqida

“O‘tkan kunlar”ning 1925-yili chop etilgan avvalgi nashri yangi o‘zbek-arab yozuvida va umumo‘zbek tilida yozilgan dastlabki zamonaviy roman edi. Shu sababli ham ba‘zi imlo chalkashliklari mavjud. Masalan, alifbolardagi nomuvofiqlik muammosi uchraydi. Kirish qismida, *va* (و) hamda *davr* (دەۋر) kabi so‘zlarning yozilish belgilarida ba‘zi hollarda *yangi vov* (ۆ) bilan emas, balki *beilgisiz vov* (و) tarzida yozilgan [Qodiriy 1925, 4]. O‘zbek tilida yangi o‘zbek-arab yozuvidan foydalanganda *o* (و) harfi faqat /o/ yoki ba‘zi Andijon-Far‘gona shevalarida /o/ yoki /ø/ tovushi uchun ishlatilishi kerak. O‘sha kamchilik 1926-yilgi ikkinchi nashrida tuzatildi.

Bundan tashqari, o‘sha vaqtda bosmadan chiqqan jurnal va gazetalar ham matbuotdagi atamalar uchun aniq qaror qabul qilinmaganligi sababli, مرغينان (Marg‘inon) – مرغيلان (Marg‘ilon]), تاشكېند (Toshkent) - تاشكېنت (Toshkent) kabi toponimlar talaffuzi qorishmasidan foydalangan [Karim 2013]. Forsiy imlo kabi chig‘atoy adabiy tili an‘anasini saqlab qolish uchun ushbu nomlar “Marg‘inon” va “Toshkent” tarzida yozilishi kerak. Ammo, asosan og‘zaki til xususiyatiga ega vodiycha shevalarda ikkala fonologik o‘zgarishlar qo‘llanilgan holatda esa “Marg‘ilon” va “Toshkent” tarzida bo‘ladi. Bun-

day tartibsizliklarning bir qismi 1930-yillarda lotin alifbosi qabul qilingan davrda qoidalashtirildi.

“O‘tkan kunlar”ning uyg‘urcha tarjimasida haqida

“O‘tkan kunlar”ning uyg‘urcha tarjimasida o‘zbek olimi I.Sultonov tomonidan 1960-yili Toshkentdagi “Sharq haqiqati” nashriyotida chop etilgan. Bu nashr ham qayta ko‘rib chiqilib, 1982-yili “Shinjon xalq nashriyoti” tomonidan chop etildi [Qadir 1982, 527]. Ushbu maqolada tahlil qilingan uyg‘urcha tarjima 1982-yildagi nashrdan olindi. 1980-yillardan oldin turkiy jadidlar tomonidan yozilgan “O‘tkan kunlar” kabi asarlarni uyg‘urlar vatanida Mao Szedun temir iskanjasining qattiq siyosiy muhiti sababli chop etishga yoki uyda saqlashga ruxsat berilmagan. “Katta Sakrash” (大跃进运动) va “Madaniy inqilob” (文化大革命) harakati yillari (1958-1960, 1966–1976) davomida minglab chig‘atoy-turkiy qo‘lyozmalar va o‘zbekcha-uyg‘urcha kitoblar yoqib yuborildi, yo‘q qilindi.

Biroq uyg‘urlarning matbuot erkinligi, mitinglar o‘tkazish va ta’limga oid faoliyatidagi siyosiy ahvollari Den Syaopinning boshqaruv yillarida (1978–1989) yaxshilandi. Bu vaqtda turli xil chig‘atoy turkiy mumtoz adabiyotlari hozirgi uyg‘ur tiliga tabdil-tarjima qilinib chop etildi, shuningdek, yangi uyg‘ur-arab alifbosi – *Uyghur Ereb Yéziqi (UEY)* joriy etildi. Masalan, 1981-yili Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” nashridan boshlab, 1988-yili Sharqiy Turkistonda chig‘atoy adabiyotining eng noyob namunalarini hisoblangan “Tarixi Hamidiy”, “Tarixi Aminiya”, va “Tazkirayi azizon” kabi yagona nusxadagi tarixiy manbalar birin-ketin tarjima qilinib, UEY yozuvi bilan bosmadan chiqdi. 1991-yili “Boburnoma”ning uyg‘ur tiliga tarjimasida mashhur uyg‘ur tilshunosi Hemit Tömür tomonidan om-maga ilk bor taqdim etildi.

Yangi o‘zbek-arab yozuvi haqida

1991-yili amerikalik filolog Peter T. Daniels jahondagi yozuv tizimlarini 3 turga ajratadi;

- 1) sof undosh yozuv – *Abjad*;
- 2) undoshlar va unli larni baravar ifodalovchi yozuv – *Alifbo*;
- 3) undoshlar atrofida faqat /a/ kabi muayyan unli larnigina ko‘rsatuvchi – *Abugida*.

Bular orasida *Abjad* qadimgi finikiyaliklar va ibroniy kabi semitik tillarda unli fonemalar oz bo‘lishi va ko‘plab so‘zlar uchta undoshdan tashkil topishiga asoslangan [Daniels 2003, 43–44, 54]. Masalan, ibroniycha “Tetragrammaton” (to‘rt harfdan iborat) so‘zi

lotinlashtirilganda faqat undosh tovushlar birikmasi bo'lgan *yhwh* (יהוה) sifatida yoziladi. Bundan tashqari, *rhmt* (رحمت: rahmat), *tškr* (تشكر: tashakkur) kabi arabcha so'zlar ham sof undoshlar birikmasi sifatida yoziladi.

Lekin, turkiy ziyolilar orasida keng ishlatilgan fors-arab yozuvi to'liq *Abjad* bo'lmay, balki undosh alifbolarga, ayniqsa, *Abugidaga* anchagina o'xshashdir. Unda faqat cho'ziq unlilar belgilanadi, qisqa unlilar esa belgilanmaydi. Ushbu yozuv usuli Markaziy Osiyodagi turkiy musulmon ziyolilari uchun qiyinchilik tug'dirmagan. XIX asrga qadar aksar turkiy bilimdon yozuvchilar ham forsiy ham turkiyni biladigan zullisonayn edilar. Shunday bo'lishiga qaramay, o'sha davr turkiy elitasi tarixini o'z ona tilida yozmoqchi bo'ldi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II hukmronligi davrida (1864–1910) olib borilgan katta hajmdagi fors klassiklarini turkiyga tarjima qilish loyihasi shuni ko'rsatadiki, turkiy til Markaziy Osiyoning munosib adabiy tiliga aylanib borayotgan edi. XIX asr boshlaridagi turkiy tarjimada hech bir o'zgarishsiz qo'llanilgan arab va fors tilidan olingan so'zlar XX asr tarjimasida asli turkiy bo'lgan sinonimlar bilan almashtirildi [Toutant 2019, 248].

Mumtoz o'zbek adabiyotining namoyandalari bo'lgan Furqat, Haziniy va Muqimiy kabi shoirlar ham forsiy tilda ravon so'zlashganlar. Ammo forsiy tilda ijod qilishga e'tibor qaratishdan ko'ra, ular chig'atoy tilidan foydalanib asarlar yaratdilar. 1917-yildagi rus inqilobidan ruhlangan jadid ziyolilari, nihoyat, xalqning savodxonlik darajasini oshirish orqali sotsialistik inqilob muvaffaqiyatiga erishishga intildi. Bu esa o'zlarining g'oya va mafkuralarini ko'proq proletarlarga singdirish edi. Bu maqsadga erishish uchun esa turkiy-o'zbek tilini talaffuzda to'g'ri va aniq aks ettiruvchi yangi yozuv turi va orfografiyani yo'lga qo'yish zarur edi.

1921-yil yanvar oyida o'zbek yozuvi va fonetikasi muhokamasiga bag'ishlangan ilk qurultoy o'tkazildi. Unda Fitrat, Zohiriy va Botu kabi jadid marifatparvarlari qatnashdilar. Fitrat mavjud forsiy-arab yozuvi turkiy-o'zbek tilining asl talaffuziga mos kelmasligini ta'kidlab, bir necha fonetik belgilar qo'shilgan yangi o'zbek-arab alifbosi islohotiga chaqirdi. Ammo Zohiriy yozuv islohoti o'tkazilsa, arab-fors tillaridan o'zlashgan so'zlar ma'nosi buzilishi mumkinligiga e'tibor qaratdi. Botu esa eski fors-arab yozuvidan voz kechib, lotin yozuviga to'laligicha o'tish fikrini ilgari surdi [Jamolxonov 2005, 117-118].

Yangi arab yozuvi islohoti 1922-yili *kof* (ك), *gof* (گ) va *ng* (ڭ) harflarini alohida qo'llash bilan boshlandi. Chunki Usmonli turklari

va Qozon tatarlari bu kabi orfografiya usulini allaqachon qabul qilgan edilar. Yangi o‘zbek-arab yozuvidan ham turkiyzabonlar talaffuz qilmaydigan yoki aytilishida farqlanmaydigan quyidagi belgilar chiqarib tashlandi. Masalan, *sod* (ص) va *se* (ث) huddi *sin* (س) kabi aynan talaffuz qilinadi deb hisoblandi. *To* (ط) esa *te* (ت) kabi bir xil talaffuz qilinadigan bo‘ldi. *Dod* (ض), *zo* (ظ), *zol* (ذ) harflari esa *ze* (ز) ga almashtirildi [Jamolxonov 2005, 123–125]. Lekin *he* (ح) bilan *ayn* (ع) kabi arab tiliga xos harflar bir muddatda saqlanib qoldirildi. Masalan, 1925-yilda chiqqan “O‘zbekcha til qoidolari” asosida *he* (ح) hamda *ayn* (ع) bilan birgalikda ja‘mi 32 ta harf qabul qilingan [Zunun 1925, 5]. Ammo, 1930-yildan boshlab o‘sha yangi arab yozuvidan foydalanish bekor qilinib, lotin yozuvi ishlatila boshlandi. Oxir-oqibat, 1940-yillardan boshlab faqat kirill alifbosi tatbiq etildi.

Hatto, 1991-yilgi mustaqillikdan keyin ham o‘zbek xalqi hamon mustamlaka davrining 60 yillik ta’siri, rus tilining yuqori mavqei va kirill alifbosiga nisbatan nafrat hissini tuyar edi. Arab yozuvini o‘qiydigan odamlarning ko‘pchiligi arab tilini shunchaki o‘zlarining diniy qiziqishlari tufayli o‘rganardilar.

O‘zbek va uyg‘ur tillari orasidagi fonetik farqlar

Quyida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining 1925-yilgi ilk nashri kirish qismi keltirilgan:

madamiki, bz yengiy durg nayaq qoyduq, bes bz, her yosnda hem, shuyengiy durnang yegiliklery kitiden uthrgheshmekke mejbur mz. shung noshash dastanchilik, romanchilik v hikiyechiliklerde hem yagar shav v xelqimiz ny yengiy durnang «taher-zohere» lery, «chardorish» lery, «ferrhad - shiryn» v «behram gor» lery bilyen tanshdurmaqqa mejbur mz.

yazmaqqa niyetlengem ushbu «notken kunler», yengiy zaman romanchiligi bilyen tanshmaq yolida kchylene br tegeriye, togrisiy br hemus. meelom, ky her br nershang hem yengiy qilyish-niyyetday durnide talay kemchilikler bilyen maydanga kilyishi, nehellerning yitishmeklery nile syken-syken tuzלב tekamulge yuz tonyishi telyey br hal mene shung deldeside, hemusmede jeharet niytem; hemuskarlk naraqasida kiche turgan qusur v xatalardan chojub tormadm. mayga qaytib sh kورش xeyrlqdr, dylers. shung kore meuz eny maydan-yayn notken kunlerden; temryximzning krlk-qara kunlery bolgan «xan zamanlary» den blgoladm.

Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo‘ydik, bas, biz har bir yo‘sunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashmakka majburmiz. Shunga o‘xshash dostonchilik, ro‘monchilik va hikoyachiliklarda ham yangarishg‘a va xalqimizni yangi davrning “Tohir-Zo‘hra”lari, “Chor darvesh”lari, “Farhod-Shirin” va “Bahromgo‘r”lari bilan tanishdirmoqqa majburmiz.

Yozmoqqa niyatlanganim ushbu — “O’tkan kunlar”, yangi zamon ro’monchilig’i bilan tanishmoq yo’lida kichkina bir tajriba, to’g’risi bir havas. Ma’lumki, har bir narsaning ham yangi qilinish — ibtidoiy davrida talay kamchiliklar bilan maydong’a kelishi, ahllarining yetishmaklari ila sekin-sekin tuzalib, takomulga yuz tutishi tabiiy bir hol. Mana shuning daldasida havasimda jasorat etdim, havaskorlik orqasida kechaturgan qusur va xatolardan cho’chib turmadim. Moziy’ga qaytib ish ko’rish xayrlikdir, deyдилar. Shunga ko’ra mavzu’ni moziydan, yaqin o’tkan kunlardan, tariximizning enj kirlik-qora kunlari bo’lg’an “xon zamonlari”dan belguladim [Qodiriy 1925, 4].

Mana bu esa uyg’ur-arab yozuvi UEYda nashr etilgan 1982-yilgi uyg’urcha tarjima:

هازير بىز يېڭى دەۋرگە قەدەم قويدۇق، شۇنداق بولغاندىن كېيىن، بىز ھەر بىر يوسۇنلاردىمۇ شۇ يېڭى دەۋرنىڭ يېڭىلىقلىرى كەينىدىن ئىگشىمىز ۋە شۇنىڭغا ئوخشاش داستانچىلىق، رومانچىلىق، ۋە ھىكايىچىلىقلاردىمۇ يېڭى ئەسەرلەر يارىتىشقا، خەلقىمىزنى مۇشۇ زاماننىڭ «تاهىر ۋە ①زۆھرە»لىرى، «چار دەرۋىش»لىرى، «پەرھات ۋە شىرىن» ۋە «بەھرامكور»لىرى بىلەن قونۇشتۇرۇشقا ②ئۆزىمىزدە مەجبۇرىيات ھېس قىلىمىز . مەن يېزىشقا نىيەتلىگەن بۇ - ③«ئوتكەن كۈنلەر»، يېڭى زامان رومانچىلىقى بىلەن تونۇشۇش يولىدا كىچىككىنە بىر تەجرىبە، يەنىمۇ توغرىسى بىر ھەۋەستۇر. ھەر بىر ئىشنىڭمۇ يېڭى باشلانغۇچ دەۋرىدە نۇرغۇن كەمچىلىكلەر بىلەن مەيدانغا چىقىشى، ئەھللىرىنىڭ يېتىشىشلىرى بىلەن ئاستا-ئاستا ④تۈزىلىپ، تولۇقلىنىشقا ⑤يۈز تۈتۈشى تەبىئى بىر ھالدۇر. مانا شۇنىڭ سايىسىدە مەن بۇ ھەۋەسىم يولىدا جاسارەت قىلدىم، ھەۋەسكارلىق نەتىجىسىدە ⑤يۈز بېرىدىغان كەمچىلىك ۋە خاتالاردىن ⑥چۈچۈپ تۇرىمىدىم. ⑦ئۈتمۈشكە قايتىپ ئىش ⑧كورۇش خەيرلىك دىيىشىدۇ. شۇنىڭ ⑨ئۈچۈن ماۋزۇنى ⑦ئۈتمۈشتىن، يېقىن ③ئۈتكەن كۈنلەردىن، تارىخىمىزنىڭ ئەڭ كىر، قارا ③كۈنلىرى بولغان كېتىنكى "خان زامانلىرى"دىن زامانلىرى»دىن بەلگىلىدىم.

Hazir biz yéni dewrge qedem qoyduq, shundaq bolghandin kéyin, biz herbir yosunlardimu shu yéni dewrning yénililiri keynidin gishimiz we shuningha oxshash dastanchiliq, romanchiliq, we hikayichiliqlardimu yéni eserler yaritishqa, xelqimizni mushu zamanning “Tahir we ①Zohre”liri, “Char derwish”liri, “Perhat we Shirin” we “Behramkor”liri bilen qonushturushqa ②ozimizde mejburiyat his qilimiz.

Men yézishqa niyetlengen bu - ③“Otken Kunler”, yéni zaman romanchilighi bilen tonushush yolida kichikkine bir tejribe, yenimu toghrisi bir hewestur. Herbir ishniñmu yéni bashlanghuch dewride nurghun kedchilikler bilen meydangha chiqishi, ehllirining yétishishiliri bilen asta-asta ④tuzilip, toluqlinishqa ⑤yuz tutushi tebi’i bir haldur. Mana shuning sayiside men bu hewisim yolida jasaret qildim, heweskarliq netijiside ⑤yuz bérighan kemchilik we xatalardin ⑥ chochup turmidim. ⑦Otmushke qaytip ish ⑧korush xeyrlik diyshidu.

Shuniq ⑨ uchun mawzuni ⑦otmushtin, yéqin ③otken kunlerdin, tarixmizniq eng kir, qara ③ kunliri bolghan kétyinki “xan zamanliri” din belgilidim [Qadir 1982, 28].

Unlilar o‘zaro uyg‘unlashuvidan kelib chiquvchi singarmo-nizm hodisasining standart imlo sifatida rasman tan olinishi yoki olinmasligi hozirgi kunda uyg‘ur va o‘zbek tillari orasidagi asosiy farqlardan biri bo‘lib qolmoqda [Yakup 2020, 412]. Hozirgi o‘zbek tilida oltita (o, a, e, i, o‘, u), uyg‘ur tilida esa sakkizta (a, e, é, i, o, ö, u, ü) unli harflar mavjud. Uyg‘ur tilida ikkita qo‘shimcha umlaut unli belgilar ö (ئۆ), ü (ئۈ) bor.

turkiy	roman	XFA (Xalqaro Fonetik Alifbo)	o‘z- bek-lo- tin	uyg‘ur- lotin	misollar	
					o‘zbek	uyg‘ur
ه / و	ä	/a~æ/	a	e	shahar	sheher
ى / ا / ي / ي	ë	/e/	e	é	erish	érish
	ē	/e:/			sher	shir
ى / ا / ي / ي	ï	/u~i/	i	i, u	bo‘ladi	bolidu
ا / ا	a	/a~ʌ/	o	a	ota	ata
و / او / و	u	/u/	u	u	urush	
	ü	/y/		ü	uzum	üzüm
	o	/o/	o‘	o	o‘rinbosar	orunbasar
	ö	/ø/		ö	o‘zbek	özbék

1-jadval. O‘zbek-lotin, uyg‘ur-lotin alifbosidagi unlilar qiyosi.

1910-yillargacha amalda bo‘lgan fors-arab yozuvi, shuning-dek, 1920-yillarga qadar foydalanilgan yangi o‘zbek-arab yozuvi singarmonizm qoidalarini tan olmadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, forsiy uslubdagi arab yozuvi faqatgina bir necha unlilarni ifodalovchi *Abjad* yoki *Abugida* xususiyatlariga o‘xshab ketadi. Shu sababli bordi-yu yangi o‘zbek-arab yozuvi o‘zbek xalqi orasida ommalashganda ham, u o‘z an’anaviy uslubidan butunlay chiqib keta olmas edi.

Fors-arab yozuvi (114 ta harf)	يازماقغا نيتلەنگەنم اوشبو «اوتكەن كۈنلەر» يەنگى زامان رومانچىلىغى بىلەن تاناشماق يولىدا كچكەنە بىر تېرىپە توغرىسى بىر ھوس.
	Yazmaqğa niyyätlängänim uşbu "Ötkän Künlär" yängi zäman romançılığï bilän tanışmaq yolıda kiçikinä bîr täjribä toğrısı bîr hāwās.

O'zbek-arab yozuvi (1925)	يار ماققا نىيەتلەنگەنم ئۇشۇ «ئۆتكەن كۈنلەر»، يەنى زامان رومانچىلىقى بىلەن تانשמاق يولىدا كىچىك بىر تەجرىبە، توغرىسى بىر ھەمىس.
(124 ta harf)	Yozmoqqa niyatlanganim ushbu "O'tken kunlar" yangi zamon romanchilig'i bilan tonishmoq yo'lida kichikina bir tajriba, to'g'risi bir havas.
Uyg'ur-arab yozuvi	مەن يېزىشقا نىيەتلەنگەن بۇ - «ئۆتكەن كۈنلەر»، يېڭى زامان رومانچىلىقى بىلەن ئۇشۇش يولىدا كىچىككەنە بىر تەجرىبە، يەنىمۇ توغرىسى بىر ھەمىستۇر.
(1982)	Men yézishqa niyetlengen bu - "Ötken Künler", yéngi zaman romanchilighi bilen tonushush yolida kichikkine bir tejribe,
(139 ta harf)	yenimu toghrisi bir hewestur.

2-jadval. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarining fors-arab, o'zbek-arab va uyg'ur-arab yozuvidagi variantlari.

Shuningdek, milliy uyg'onish davrida yangi o'zbek tili imlosi bo'yicha islohotlar olib borgan vohadagi jadid ziyolilari turkiy til fonetikasidagi unlilar uyg'unligiga u qadar ahamiyat berganlar. Masalan, "Ozod Buxoro" gazetasi orqali *"biz singarmonizm va to'qqiz xil cho'zig "i"larga to'ppa-to'g'ri qarshi chiqamiz"* – deb, turkiy tilda singarmonizm hodisasini, xususan, 9ta unlidan iborat bo'ladigan fonetik tizim asosida ommaning *"xat-savodini chiqarish va til o'rgatishish"* imkonsizligini ta'kidlaganlar [Yo'ldosh 1929, 255]. Ammo, buning asl sababi shundaki, ko'pchilik voha o'zbeklari atrofidagi fors-tojik tilida so'zlashuvchilar talaffuzi ta'sirida bo'lgan. Chunki vohadan anchagina sharq tarafda, xususan, tojik aholisi nisbatan kamroq hududda yashayotgan Toshkent, Marg'ilon, Andijonlik jadid ziyolilari 9ta unli harflar va singarmonizm qoidasini qabul qilgan edilar [Yo'ldosh 1929, 331, 334, 336-337].

Unda Farg'ona vodiysidan yana ham sharqroqda joylashgan, tojik aholini umuman uchrata olmagan Sharqiy Turkiston esa qanday holatga tushgan? Hozirgi uyg'ur tilida old bo'g'indagi til orqa unlilari /a, u~i, o, u/ keyingi bo'g'inning til oldi unlilari /i, e/ bilan ohanglashish jarayonida til o'rta unli allofonlariga aylanishiga "umlaut" hodisasi yoki "singarmonizm" deyiladi. Masalan, /i/ til old unlisi /a/ til orqa unlisidan keyin kelsa, /a/ o'rta unli bo'lgan /e/ kabi talaffuz qilinadi [Yakup 2020, 414-415].

Tur	o'zbek	uyghur
i-umlaut	ئۇنىڭ ئاتى قىممەت	ئۇنىڭ ئېتى قىممەت
	uning oti qimmat	uniŋ éti qimmet
	ياقن	يېقىن
	yaqin	yéqin
	تۈزەلپ	تۈزىلىپ
	tuzalib	tüzilip

e-umlaut	زۆھرە	زۆھرە
	zo‘hra	zöhre

3-jadval. Umlaut hodisasining o‘zbek va uyg‘ur tilidagi qiyosi.

Biroq yuqorida ko‘rsatilgan 1982-yilgi uyg‘urcha nashrda ikki umlaut harflari *ö* (ئۆ), *ü* (ئۈ) chiqarib tashlandi. Aslida, ko‘p ifodalar umlaut harflarida quyidagicha yozilishi kerak edi:

1982-yilgacha		lotin	1984-yildan keyingi	lotin
①	زۆھرە	zohre	زۆھرە	zöhre
②	ئۆزىمىز	ozimiz	ئۆزىمىز	özimiz
③	ئۆتكەن كۈنلەر	Otken kunler	ئۆتكەن كۈنلەر	Ötken künler
④	تۈزىلىپ	tuzilip	تۈزىلىپ	tüzilip
⑤	يۈز	yuz	يۈز	yüz
⑥	چۆچۈپ	chochup	چۆچۈپ	chöchüp
⑦	ئۆتمۈش	otmush	ئۆتمۈش	ötmüş
⑧	كورۇش	korush	كورۇش	körüş
⑨	ئۈچۈن	uchun	ئۈچۈن	üchün

4-jadval. 1982 va 1984-yillar nashridagi tafovutlar.

Aslini olganda, uyg‘ur-arab yozuvi UHEY 1982-yilda ikkinchi marta ko‘rib chiqildi. Ammo ikki umlaut unlilari *ö* (ئۆ), *ü* (ئۈ) biroz keyinroq, 1984-yilda amalda tatbiq qilingan bo‘lsa-da, yuqoridagi misolidan ko‘rinib turibdiki, uyg‘ur tili imlosida allaqachon “i-umlaut” kabi singarmonizm hodisasi rasmiy jihatdan tan olingan. Shuningdek, ikki umlaut harflari alifboda aks etmasa-da, singarmonizm butunlay qabul qilingan edi.

Avvalidan, Shinjonda istiqomat qilayotgan uyg‘urlar uchun uyg‘ur-arab yozuvini 1951-yildagi Olmaota konferensiyasida ishlab chiqqan “Uyghur edibiy tilining ereb élipbesi asasdiki qisqiche imla qaideliri” o‘rtaga tashladi. Olmaotadagi uyg‘urlar tomonidan taklif qilingan uyg‘ur-arab yozuvi 1920-yillardagi yangi o‘zbek-arab yozuvidan aslida katta farq qilmas edi [Wei 1993, 262]. Sababi, o‘sha paytdagi yig‘ilishda qatnashgan ziyolilar orasida faqat Olmaotalik emas, balki “Sharq haqiqati” jurnalida ishlaydigan Toshkentliklar ham bor edi [Tursun 1951, 10].

O'zbek-arab yozuvi (1925)	lotin	UEY (1951)	ULY
نەتىجە	natija	نتيجة	nétije
كەرىم	karim	كريم	kérim
قالىب	qolib	قنليب	qélip

5-jadval. Umlaut hodisasining o'zbek va uyg'ur tilidagi 2-qiyosi.

* uyg'ur tilida *é* (ئە) ham *i* (ئى) tovushlari bo'lsa-da, lekin eski arab alifbosi asosdagi imloda yuqoridagi harflar farq qilinmay kelgan edi. Shuning uchun 1951-yilgi qoidalarida uyg'ur tilida bo'lgan *é* (ئە), *i* (ئى) tovushlarini to'liq ifodalash uchun *i* (ئى) tovushni avvalgi eski shaklida qoldirib, *é* (ئە) tovushi bo'lsa *é* - ئ belgisiz shaklida yoziladi. 1954-yilgi yangi imlosida esa *é* (ئە), *i* (ئى), *y* (ئى) shaklida qabul qilingan [Tursun 1951, 9: Zeydi 1954, 3-4].

Hatto Xitoy Xalq Ozodlik Armiyasi 1949-yildan Shinjonni bosib olgan bo'lsa ham, Xitoy boshqaruv ma'muriyati uyg'ur tili qaysi alifbodan foydalanish kerakligi borasida tizimli tadqiqotlar yoki ilmiy izlanishlar olib borishni yo'lga qo'ya olmadi. Shuning uchun xitoy-sovet munosabatlari iliq davom etgan 1960- yillar boshlarigacha Shinjondagi uyg'ur yozuvi mavjud sovet-uyg'ur yozuvidan ko'chirilgan edi.

Shinjon uyg'urlarining o'zlari tomonidan yaratilgan ilk yozuv 1954-yili Mehmet Zeydi tomonidan taklif qilingan "Uygur edibiy tilining qisqiche imla qaideliri" asoslangan bo'lsa-da, u ham 1951-yilgi Olmaota arab yozuvi bilan deyarli bir xil edi. Demak, 1920-yillardagi yangi o'zbek-arab yozuvi hali ham Shinjondagi uyg'ur xalqi orasida meros bo'lib kelgan. Ammo, 1962-yil may oyida Ili viloyatida ro'y bergan voqealar sababli 60000 dan ortiq shinjonliklar, jumladan, uyg'urlar va qozoqlar, sobiq Sovet Ittifoqiga qochib o'tdilar, natijada esa xitoy-sovet munosabatlari o'ta yomonlashdi. Bunga muvofiq ravishda esa 1964-yili xitoy tili fonetik alifbosi *Pinyin* (汉语拼音) ga asoslangan yangi uyg'ur-lotin alifbosi *Yéngi Yéziq* (YY)ni rasman ommaga taqdim etdi. Bu vaqtda ilk bor ikki umlaut harflari maxsus harflari (*ö* *ü*) sifatida qabul qilindi. Biroq uyg'ur-arab yozuvining avvalroq qabul qilingan 1954-yilgi varianti hali ham YY yozuviga nisbatan ko'proq ishlatilar edi. Faqat 1974-yilga kelibgina Shinjonda YY keng miqyosda qabul qilindi [Jarring 1981, 232]. Ammo YY yozuvi ommalashganiga o'n yil o'tmasdan uyg'urlar yana arab yozuviga qaytdi. 1984-yildan ular YYdagi ikkita qo'shimcha *ö* → ئۆ, *ü* → ئۈ umlaut harflaridan foydalanishni boshladi [Wei 1993, 310-312].

Jarringning dalolat qilishicha, uyg‘ur tili tezkor talaffuzni talab etuvchi og‘zaki til hisoblanadi. Shu sababli unlilar moslashuvdan tashqari, qisqarish va tushib qolish hodisalari tez-tez uchraydi. G. Jarring 1929-30-yillar davomida Koshg‘arda yashab, tadqiqot olib boradi. 1979-yili, 50 yildan so‘ng, Koshg‘arga yana borganida uyg‘ur tilining yozma xususiyatlari avvalgiga nisbatan yanada zaiflashgani va so‘zlashuvga oid jihatlarini ortganini ta’kidlaydi [Jarring 1981, 238–239]. Boshqacha aytganda, uyg‘ur tili Shinjon 1949-yilda Xitoy tomonidan bosib olinganidan buyon jadal o‘zgarishlarni boshidan kechirgani ko‘zga tashlanadi.

Xulosa

Xalqning milliy tildan foydalanish darajasi oshib borar ekan, kishilarning talaffuzdagi qulayliklaridan kelib chiqib, yozuvni qayta ko‘rib chiqish tabiiy hodisadir. Shunday ekan, o‘zbek tilida singarmonizm hodisasi ham e‘tiborga olinmog‘i lozim. Aslini olganda, 1925-yildan 1929-yilgacha o‘zbek jadid ziyolilari orasida turkiy tillardagi singingarmonizm masalasi inkor etila boshlandi, chunki singarmonizm, xususan 9 xil unli xalqning savodxonligining o‘ssishiga to‘sqinlik qiladi deb o‘ylab, omma orasida unlilarni ixchamlashtirishni targ‘ib qildilar. Boshqa tomondan, uyg‘ur ziyolilari orasida temur qonunchilar tarafidan aytilgan barcha fonologik tebranishlar qoida sifatida qabul qilindi, ularning savodxonlik darajasi va o‘z milliy tilini rivojlantirishda hech qanday muammolarga duch kelmadilar.

Yuqorida aytilgandek, biz O‘zbekistonning ayrim hududlarining ma’lum qismini tojik tilida so‘zlashuvchi xalq tashkil qilishini e‘tiborga olishimiz zarur. Shinjonda tojik aholisi umuman yo‘q, faqatgina, geneologik jihatdan Hind-Yevropa oilasiga mansub pomirliklar qisman uchraydi. XX asr boshlaridagi o‘zbek tili yozuv tizimi islohotchilarining barchasi ham forsiy va turkiy tilda zullisonayn bo‘lganini unutmaslik kerak. Shuning uchun dastlabki turkiy ziyolilar chig‘atoy turkiy tili imlosida uchrovchi fors-arab an‘analarini davom ettirib, xususan 6 (a, ə, e, o, u, i) unli tizimida ish ko‘rishni ma’qul ko‘rdilar. Balki, loyihachilar o‘zbek tili vaqt o‘tishi bilan o‘z takomiliga erishadi, deb o‘ylagan bo‘lishlari mumkin. Biroq 1937-1938-yillarda zamonaviy o‘zbek adabiy tilining asoschilari bo‘lgan Fitrat, Cho‘lpon, Qodiriy, Zohiriy kabi ziyolilar sho‘rolar tomonidan qatag‘on qilindi. Bu o‘zbeklar tarixidagi eng fojiali davr bo‘lib, o‘zbek milliy uyg‘onishining tezlik bilan qulashiga olib keldi va keyingi 50 yil davomida o‘zbek elitasi o‘z ona tilidan ko‘ra kirill

alifbosidagi rus tilini o'rganishga harakat qildi.

Boshqa tarafdin, Shinjonda esa 1949-yilgi Xitoy Xalq Respublikasi istilosidan so'ng Stalin qatag'oni kabi qirg'inlar bo'lmagan. Dastlabki Xitoy Kommunistik Partiyasi bilan hamkorlik qilgan uyg'ur millatparvarlarining ko'pchiligi madaniy inqilobdan omon qolgan. 1980-yillarda olib borilgan Xitoydagi islohotlar va ochiq bazor siyosati etnik ozchiliklar orasida madaniy liberallashtirishga yo'l ochgani tufayli uyg'ur ziyolilari o'zlarining tili, madaniyati, tarixi va musiqasini rivojlantira boshladi. Natijada uyg'ur elitasi O'zbekistonda ishlab chiqilgan arab yozuvini turkiy tilning fonetik jihatlariga moslab yanada takomillashtirish va ishlov berish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Adabiyotlar

- Maxdum Hoji, Mullo Olim. 1915. *Tarixi Turkiston*. Toshkent: Turkiston General Gubernaturasi bosmaxonasi.
- Behbudiy, Mahmud Xo'ja. 1915. "Oyna" jurnali. 22, 23, 25, 26-sonlar, 314-315, 338-340, 386-388, 478-480 betlar.
- Daniels, T. Peter. 2003. "Writing Systems", *The Handbook of Linguistics*: 43-80. Mark Aronoff, Janie Ressa-Miller (eds.), Blackwell Publishers Ltd.
- Jamolxonov, H. 2005. *Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik*. Toshkent: Talqin.
- Jarring, G. 1981. "The New Romanized Alphabet for Uighur and Kazakh and some Observations on The Uighur Dialect of Kashgar", *Central Asiatic Journal* 25 (3-4): 230-245.
- Karim, B. 2013. "O'tkan kunlar"ga qaytib..." *O'zbekiston adabiyoti va sanati* 15-16: 3. (<https://oriftoilib.uz/kutubxona/bahodir-karim-otkan-kunlar-ga-qaytib/>)
- Qodiriy, A. 1982. *O'tkan kunlar: o'zbeklar turmishidan tarixi ro'mon*. Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti. 1925.
- Qadir, A. *O'tken kunlar*, Ürümchi: Shinjang xelq neshriyati.
- Toutant, M. 2019. "De Persifying Court Culture: The Khanate of Khiva's Translation Program" *Disciplines Middle Eastern Studies The Persianate World: The Frontiers of a Eurasian Lingua Franca* (Eds. N. Green) University of California Press.
- Tursun, H. 1951. *Uyghur edibiy tilining erip elipbisi asosidiki qisqiche imla qaidiliri*, Olmaota: Qazaqeli neshriyati.
- Wei, C. 1993. "An Historical Survey of Modern Uighur Writing since the 1950s in Xinjiang, China". *Central Asiatic Journal* 37 (3-4): 249-322.
- Yakup, A. 2020. "Uyghur and Uzbek, the Southeastern Turkic languages", *The Oxford Guide to the Trans Eurasian Languages* 411-429. Martine Robbeets, Alexander Savelyev (eds.), Oxford University Press.
- Yo'ldosh, A. 1929. *Til va imlo masalalari* (maqolalar to'plami), Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti.

- Zeydi, M. 1954. *Uyghur edibiy tilining qisqiche imla qaideliri*, Ürümchi: Shinjang xelq neshriyati.
- Zunun, S. 1925. *O‘zbekcha til qoidalari* (Kurslar uchun imlo, qisqacha sarf-nahv), O‘zbekiston davlat nashriyoti.

Historical Relations Between the Uzbek Arabic Script and the Uyghur Ereb Yéziqi

(Analyzing Umlaut Phenomenon based on the Uyghur translation of Abdullah Qodiriy’s Novel *Bygone Days*)

Song Ho-Lim¹

Abstract

During the early 20th century, most literary works were written using the Perso-Arabic script. Abdullah Qodiriy, the pioneer of modern Uzbek literature, also extensively used the same script in his early writings. However, the first edition of his novel “Bygone Days” was printed in the new Uzbek-Arabic script that emerged in the 1920s. This script later evolved into the Uyghur Arabic alphabet. In other words, Qodiriy’s work sheds light on the transitional period of the Chagatai Turkic literary language, which was on the brink of splitting into the modern Uyghur and Uzbek dialects. This research briefly compares the new Uzbek-Arabic script used in “Bygone Days” to the Uyghur-Arabic script used in the 1982 Uyghur translation of the same work. Through this study, the ethno-linguistic relations between the two nations can be traced to some extent. Additionally, the phonetic changes in the Uyghur language, particularly the umlaut phenomenon, were analyzed in the context of historical backgrounds.

Key words: *National reform, Uzbek Arabic script, Uyghur language, Uyghur umlaut, Abdullah Qodiriy, Bygone Days, Perso-Arabic script.*

References

- Maxdum Hoji, Mullo Olim. 1915. *Tarixi Turkiston*. Toshkent: Turkiston General Gubernaturi bosmaxonasi.

¹*Song Ho-Lim* – PhD. student in Philological science, Samarkand State University, and department of Central Asian studies at Hankuk University of Foreign Studies, Seoul, Korea.

E-mail: riohavana@naver.com

ORCID ID: 0009-0008-3211-5255

For citation: Song Ho-Lim. 2022. “Historical Relations Between the Uzbek Arabic Script and the Uyghur Ereb Yéziqi: Analyzing Umlaut Phenomenon based on the Uyghur translation of Abdullah Qodiriy’s Novel *Bygone Days*”. *Golden scripts* 3: 78–92.

- Behbudiy, Mahmud Xo'ja. 1915. "Oyna" jurnali. 22, 23, 25, 26-sonlar, 314-315, 338-340, 386-388, 478-480 betlar.
- Daniels, T. Peter. 2003. "Writing Systems", *The Handbook of Linguistics*: 43-80. Mark Aronoff, Janie Ressa-Miller (eds.), Blackwell Publishers Ltd.
- Jamolxonov, H. 2005. *Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik*. Toshkent: Talqin.
- Jarring, G. 1981. "The New Romanized Alphabet for Uighur and Kazakh and some Observations on The Uighur Dialect of Kashgar", *Central Asiatic Journal* 25 (3-4): 230-245.
- Karim, B. 2013. "O'tkan kunlar"ga qaytib..." *O'zbekiston adabiyoti va sanati* 15-16: 3. (<https://oriftoilib.uz/kutubxona/bahodir-karim-otkan-kunlar-ga-qaytib/>)
- Qodiriy, A. 1982. *O'tkan kunlar: o'zbeklar turmishidan tarixi ro'mon*. Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti. 1925.
- Qadir, A. *Ötken künler*, Ürümchi: Shinjang xelq neshriyati.
- Toutant, M. 2019. "De Persifying Court Culture: The Khanate of Khiva's Translation Program" *Disciplines Middle Eastern Studies The Persianate World: The Frontiers of a Eurasian Lingua Franca* (Eds. N. Green) University of California Press.
- Tursun, H. 1951. *Uyghur edibiy tilining erep élipbisi asaidiki qisqiche imla qaidiliri*, Olmaota: Qazaqeli neshriyati.
- Wei, C. 1993. "An Historical Survey of Modern Uighur Writing since the 1950s in Xinjiang, China". *Central Asiatic Journal* 37 (3-4): 249-322.
- Yakup, A. 2020. "Uyghur and Uzbek, the Southeastern Turkic languages", *The Oxford Guide to the Transeurasian Languages* 411-429. Martine Robbeets, Alexander Savelyev (eds.), Oxford University Press.
- Yo'ldosh, A. 1929. *Til va imlo masalalari* (maqolalar to'plami), Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti.
- Zeydi, M. 1954. *Uyghur edibiy tilining qisqiche imla qaidiliri*, Ürümchi: Shinjang xelq neshriyati.
- Zunun, S. 1925. *O'zbekcha til qoidalari* (Kurslar uchun imlo, qisqacha sarf-nahv), O'zbekiston davlat nashriyoti.

“Me’rojnoma” asari tilining leksik va morfologik xususiyatlari

Jahongir Turdiyev¹

Abstrakt

Mazkur maqola turkiy “Me’rojnoma”ning til xususiyatlariga bag’ishlangan. Unda asar tilining leksik va morfologik xususiyatlari tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etilgan. Tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonida so’zning morfem tarkibi o’zgarib turgani bois uni tahlil qilishda tarixiylik va hozirgi holat masalasini ajratish muhim ahamiyatga ega. Asarning til xususiyatlarini yoritishda ana shu jihatlarga e’tibor qaratilgan. Maqolada asarda qo’llanilgan shevaga oid so’zlar, Islom dini bilan bog’liq atamalarining qo’llanilishi xaqida ham so’z yuritilgan. Shuningdek, maqolada “Me’rojnoma”da qo’llanilgan so’z va morfemalarning hozirgi o’zbek adabiy tiliga munosabati haqida bahs yuritilgan.

Kalit so’zlar: *turkiy til, leksikologik tadqiq, leksik birlik, morfema, affiks, Islom diniga oid atamalar, forscha so’zlar, arabcha so’zlar.*

Kirish

So’z tekshirishning uslubiy jihati matndagi leksik birlikning asosli qo’llanilayotgani nuqtayi nazaridan mulohaza bildirishni talab etadi. So’zning stilistikada faqat nominativ (atash, nomlash) qirrasini emas, balki estetik vazifasi ham hisobga olinadi. Muayyan matndagi so’z tanlashning tahlili o’sha matn bitilgan davr jamiyatining nutq madaniyati va adabiy til me’yorini belgilashda asosiy o’lchov bo’lib xizmat qiladi. Biron bir matn ustida tadqiqot olib borish birinchi galda uning leksikasi ustida tekshirishdan boshlanishi lozim. So’z matnni anglashning asosidir. Matn uslub jihatdan yondashuv fikrni aniq ifodalashga ko’mak beruvchi so’zni tanlash muammosini keltirib chiqaradi. So’zning to’g’ri tanlangani yolg’iz uslub xususiyati bo’lib qolmasdan, matnning axborot

¹Turdiyev Jahongir Zafariddin o’g’li – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: jahongirshoh15@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-5244-8542

Iqtibos uchun: Turdiyev, J. Z. 2022. “Me’rojnoma” asari tilining leksik va morfologik xususiyatlari”. *Oltin bitiglar* 3: 93–104.

tashish qimmatini oshiradi va uning mazmun ta'sirini kuchaytiradi. So'zni o'rinsiz tanlash esa fikrni anglashda qiyinchilik keltirib chiqarish barobarida, mantiqiy xatoliklarni keltirib chiqarishi tayin. Leksik birliklarning tanlanish masalasini turkiy tildagi "Me'roj-noma" asari misolida ham ko'rishimiz mumkin.

"Me'rojnoma" asarining tili va matn xususiyatlarining leksikologik jihatdan tadqiqi shuni ko'rsatadiki, asar o'zining til xususiyatlari, leksikasi, gap qurilishi bilan "Nahjul farodis", Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy", Rushdiyning "Tazkirat ul-avliyo" singari nasriy asarlarini yodga soladi. Tarjimon asarni ommaga foydasi tegishi uchun so'zlashuv tiliga bir muncha yaqin, sodda va oson uslubda o'girishga asosiy e'tiborni qaratgan.

Asar matnida turkiy adabiy tilga mansub barcha so'z turkumlarini, so'z yasash va so'z o'zgartirishda ishtirok etuvchi turli morfemalarni uchratish mumkin. Matnda "aytti", "dedi" fe'llari so'zlovchilar nutqidan keyin keladi. Tilimizda payt va sabab ma'nolarini anglatuvchi ravishdosh yasovchi - gäč affiksi "Me'rojnoma"da ishlatilmagan, uning o'rniga "ersä" "bäsä" so'zlari istifoda etilgan. Asarda o'tgan zamon qo'shimchasi bo'lmish -di affiksi t bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda singarmonizmga uchraydi va -t ga aylanadi: *aytti*, *qaytti* kabi.

Matnda hozirgi -dir ning qadimgi shakli – *türür* qo'llangan: *Jabrāil äytti: Bū Ādam payğambar türür. Ängä salām qilğil teb* [Courteille 1882, 7]. (Jabroil aytdi: Bu Odam payg'ambardir. Unga salom qilgin deb).

Matnda kelgan jumalarda qaratqich kelishigi qo'shimchasi o'sha davrda yaratilgan ba'zi asarlarda kelganidek, bir nun tushib qolmasdan so'zga *ng* tarzida emas, balki to'liq -niñ (نيڭ) // *nñ*, *nuñ*, *iñ* shaklida qo'shiladi: *meniñ*, *ewniñ*, *biziñ*. *Bärça ewläriniñ böyläri teñ erdi* [Courteille 1882, 42]. *Tamuqnñ eli äni yerlär* [Courteille 1882, 34]. *Yerdäki xuruzlär taqı münuñ ünin ešitib älär taqı čarlab tasbeh oqurlar. Rasuli alayhi-s-sallām bir kečä biziñ ewdä qonaq erdi* [Courteille 1882, 8].

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi so'zlarga quyidagicha shakllarda qo'shilgan: -gä mengä, -kä kökkä, -qa alarqa, -ğa. *Ersä Täñri ta'äläniñ farmāni birlä avvalgi kökka yettük; Biz kirib ül farištağa salām qilduq*. "Me'rojnoma"da tushum kelishigi qo'shimchasi -ni, -ni, -n tarzida ifodalangan: *Ersä Mikāil Burāqnī tütüb türmüš erdi; Bu ül kišilär türürkim, musulmānlarni zālimlarqa čaqib yavuzluq bilä mälların alur erdilär* [Courteille 1882, 9].

O'rin payt kelishigi qo'shimchasi esa matnda - da "*Jabrāil*

*mengä Tāñri ta'ālāniñ farmāni bilä Qāf tağīda ikki šāhār körgüzdi". -dä bir kečä kündüz**dä**, tarzida so'zlarga qo'shilgan.*

Asarda chiqish kelishigi qo'shimchalari so'zlarga -din "*Yänä bir darvāzad**in** bir darvāzaqa tegünčä bir yığaj yol erdi*"; -din, yaqut**din**; -tin Tañri ta'ālāt**in**, -t'in yaqutt**in** tarzida qo'shilgan.

"Me'rojnama" tilida qadimgi yodgorliklar tilida mavjud ko'plik yasovchi -t, -n qo'shimchalari uchramaydi. Asarda ko'plik faqat -lar//-lär qo'shimchasi bilan yasalgan: *Yänä adina küni hurlar bir-birini körmäk üçün tevalärgä minib, külä öynäyü yürür erdilär* (Yana juma kuni hurlar bir-birini ko'rish uchun tuyalarga minib, kulib-o'ynab yurar edilar).

Matnda so'zlarga sifat yasovchi qo'shimcha -lik qo'shilganda singormonizm holatini kuzatamiz: *misllik, qayğuluq, qalinliğı beş yüz yilliq yol erdi*. Yana sifat yasovchi qo'shimchalardan - güči (eşit-güči) qo'shimchasi so'zga qo'shilganda ham shu holatni kuzatamiz. Bu qo'shimcha - güči ga o'zgarib, ešik saqlağ**uči** ko'rinishida ifoda etilgan.

Asarda sifatdoshlar ğan//gan, miš//miš qo'shimchalari yordamida yasalgan: *Ersä ešik saqlağ**an** farišta kimsän tedi. Zumraddin dunyani qapsam**ış***.

Matnni tadqiq etar ekanmiz I shaxs birlik va ko'plikda egalik qo'shimchasidan keyin keluvchi o'rin payt affiksi oldidan bir -n orttiriladi: *Yänä havzniñ bir yän**inda** Abu Bakr, bir yän**inda** Umar, bir yän**inda** Usmān, bir yän**inda** Ali türmüş bolğay*.

Asarda so'roq olmoshidan ne (nima?), nečük (qanday?), kim, qačon olmoshlarini uchratamiz.

Matnda bog'lovchilardan esa taqī (yana, ham), bilä, birlä (bilan) bog'lovchilarini uchratish mumkin. "*Bü Yaqub payğambar bilä Yusuf payğambar türür*".

Matnda fe'lning buyruq shakli -ğil qo'shimchasi bilan yasali, "*Bü nardbanqa čiqğil teb*" (Bu narvonga chiqgin deb) jumlasida ketlirilgan.

Yana -iz qo'shimchasi bilan yasalgan shaklni, "*Siz imāmatliq qilingiz*" (Siz imomlik qilingiz) jumlasida ko'rishimiz mumkin. Bu jumlada ko'proq istak ma'nosi ifodalangan.

"Me'rojnama" matnida bir, ikki, üç, tört, beş, altı, yetti, ön, yigirmä, ötüz, ellik, altmış, yetmiş, yüz, miñ, tümän, san-sağiz sonlarini uchratish mumkin: *Ersä ül ešik saqlağ**uči** farištägä misllik yänä tümän farištä kördüm*. (Keyin o'sha eshik qo'riqlaydigan farishtaga o'xshash yana o'n ming farishtani qo'rdim). *Ül köšk üzäsinda bir kiši kördim* [Courteille 1882, 13]. (U ko'shk ustida bir kishini ko'rdim).

Ül yığačnıñ tübindin tört bulaq çıqıb tört ariqqa kirär. (U daraxtning ostidan to'rt buloq chiqib to'rt ariqqa kirar) *Antaqkim üç yüz altmış künniñ savābi tamām bolğay* [Courteille 1882, 17]. (Shunday qilib uch yuz oltmish kunning savobi bo'ladi).

“Me’rojnoma”da bir qator soʻzlar hozirgi oʻzbek shevalarida uchraydi. “Oʻzbek shevalari lugʻati”dagi 6 ta soʻz aynan “Me’rojnoma”dagi ma’noda qayd etilgan. Ayni ma’noda qoʻllangan soʻzlar: *ilg* - “qoʻl”, *süjük* - “shirin”, *qapıg* - “eshik”, *quyruğ* - “dum”, *sünjak* - “suyak” [Oʻzbek xalq shevalari 1971, 96].

Qiyosiy tahlil natijalari shuni koʻrsatdiki, “Me’rojnoma” asarining turkiy tildagi tarjimasida qoʻllanilgan soʻzlar asosini qarluq lahjasiga xos leksik birliklar tashkil etadi.

“Me’rojnoma” leksikasida shakl va ma’no munosabatiga koʻra shakliy bir xil, ammo turli ma’no ifodalovchi omonimlarni uchratish mumkin: *ayaq* “oyoq” - *ayaq* “jom”. Ushbu soʻz “oyoq” ma’nosida “*Yänä bir kitābda quyruğı, ayaqlari tevägä oqşar erdi teb äytib türür*” (Yana bir kitobda dumi, oyoqlari tuyaga oʻxshar deb aytilgandir) jumlasida kelgan. *Ayaq* soʻzi “jom” ma’nosida “*Kökädägi yüldüzlärdin artuqraq äniñ tegräsindä ältündin, kümüşdin, yaqut zabarjaddin, injüdin süv içmäk üçün maşrabalar, ayaqlar bar türür*” jumlasida kelgan. *Yığač* “daraxt” - *yığač* “masofa birligi” [Rabgʻuziy 1990, 221]. (Yigʻoch - taxminan 9 km keladigan masofa birligi). *Yığač* soʻzi “daraxt” ma’nosida “*Jabrāil äytti: bü zaqqum yığači türür. Äniñ yemişi ağudın ajıqraq türür*” [Courteille 1882, 34]. (Jabroil aytdi: bu Zaqqum daraxtidir. Uning mevasi zahardan achchiqroqdir). *Sidratu-l-muntaha degän bir uluq yığač türür* [Courteille 1882, 17]. (Sidratu-l-muntaho bir katta daraxtdir) jumllarida kelgan. Bu soʻz “masofa”ni ifodalash uchun “*Besä bir möminniñ bir çadiri bolğay. Uluğluğı altmış yığač bolğay*” (Yana har bir moʻminning bir chodiri boʻladi. Kattaligi oltmish yigʻoch boʻladi.) jumlasida kelgan.

Bir tushunchani turli uslubda, ma’noviy boʻyoqda, darajalab aks ettiruvchi (sinonim) *eşik* - *qapıg* “eshik”, “darvoza”; *yüz* - *jamāl*, *el* - *xalāyiq*, ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qiluvchi (antonim) *yumşaq* - *qattiq*, *kečä-kündüz*, *yavuuq* “yaqin” - *yıraq* “uzoq”, *tün-kün* leksik birliklardan iborat. Asar matnida eski turkiy tilidagi sinonim, antonimlar bilan bir qatorda, boshqa tildan oʻzlashgan soʻzlar ishtirokida, sinonimik, antonimik leksik birliklar qoʻllangan: *dunya* - *āxirat* (arabcha - arabcha), *sabr-tāqat* (arabcha-arabcha), *döst-duşman* (forscha-forscha), *xuş-maʼlul* (forscha-arabcha). Tarjimon matnni turkiy tilga oʻgirishda oʻz qatlam va oʻzlashgan qatlam oʻrtasidagi sinonimik munosabatlarda turkiy soʻzlardan keng

foydalangan: *Qapïğ* (turkiy) – *darvāza* (forsiy), *sevünč* (turkiy) - *xuš* (forsiy), *emgäk* (turkiy) – *riyāzat* (arabcha).

Asardagi turkiy soʻzlarning koʻpi hozirda mustaqil lugʻaviy maʼnoda qoʻllanadi. "Me'rojnoma"dagi turkiy soʻzlar hozirgi oʻzbek adabiy tili davridagi isteʼmol darajasiga koʻra quyidagicha ajratildi:

1. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida qoʻllanadigan turkiy soʻzlar.
2. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida qoʻllanmaydigan turkiy soʻzlar.

Asarda kelgan hozirgi oʻzbek adabiy tilida qoʻllanadigan turkiy soʻzlar: *Qutluq*, *čarlamaq*, *el*, *keč*, *ertä*, *tün*, *qızıł*, *tegirman taš* kabilardir.

"Me'rojnoma"da kelgan hozirgi oʻzbek adabiy tilida qoʻllanmaydigan turkiy soʻzlarga quyidagilarni kiritish mumkin: *Abušqa* (qari, xoʻjayin), *učmaq* (jannat), *tamuq* (doʻzax), *ilg* (qoʻl), *bäsä* (shundan soʻng), *arığsız* - nopok, iflos, *asığ* – foyda yoki foiz, *ayaq* – (suyuqlik ichiladigan idish) kabilar.

"Me'rojnoma"da oʻzlashgan qatlam leksikasi

"Me'rojnoma" leksikasidagi oʻzlashma soʻzlar asar tilidagi oʻzlashgan qatlam leksikasi qoʻllanish darajasiga koʻra quyidagilarga ajraladi:

1. Arab tilidan oʻzlashgan leksik birliklar.
2. Fors tilidan oʻzlashgan leksik birliklar.

Arab tilidan oʻzlashgan leksik birliklar

"Me'rojnoma" leksikasida XI– XIV asrlar eski turkiy adabiy tilida keng qoʻllangan arabcha oʻzlashmalar bilan bir qatorda arab tiliga oid soʻzlar ham uchraydi. Bu soʻzlar Qurʼondan keltirilgan oyatlar, arab tilidagi hadislar va duolarda, shuningdek, matndagi ayrim jumlar tarkibida keltirilgan.

"Me'rojnoma"da qoʻllangan arabcha oʻzlashmalarning oʻzbek adabiy tiliga munosabati quyidagicha izohlash mumkin:

1. Arabcha soʻzlarning eski turkiy adabiy tiliga munosabati;
2. Arabcha soʻzlarning hozirgi oʻzbek adabiy tiliga munosabati.

"Me'rojnoma"da arabcha soʻzlarning eski turkiy adabiy tili davriga xos sifatdash shakli qoʻllangan: *mutakabbir*, *"Bülär uluq köngüllük, yavuz qiliqliq, mutakabbir kişilər türür"*

Arabcha oʻzlashmalar hozirgi oʻzbek adabiy tiliga munosabatiga koʻra, ikkiga ajratildi:

1. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida qoʻllanadigan arabcha soʻzlar.
2. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida qoʻllanmaydigan arabcha soʻzlar.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanadigan arabcha so'zlar struktur-morfologik jihatdan uchga ajratildi:

1. Asos holida qo'llanadigan arabcha so'zlar: *kitab, azāb, du'a, iymān, misl, ināyat, avlād*.

2. Sodda yasamalarga asos bo'lgan arabcha so'zlar: *misllik, imāmatliq, ḡammāzliq*.

3. Murakkab leksik birliklar tarkibida qo'llanadigan arabcha so'zlar: *afv qılmaq, qurbān qılmaq, ziyārat qılmaq* kabilar.

Arab tiliga oid bir qator so'zlar hozirgi o'zbek tilida mustaqil qo'llanmaydi, qo'shma birliklar tarkibida uchraydi: *muyassar, mušar-raf* kabi arabcha so'zlar hozirda qo'shma fe'llar tarkibida kuzatiladi.

Fors tilidan o'zlashgan leksik birliklar

"Merojnoma"da fors tilidan turkiy tilga o'zlashgan ko'pgina leksik birliklarni uchratish mumkin. Masalan: *darxāl, parvardigār, sarhaṇ, xuš, payḡambar, ḡoristān, pand, nāumid, nāmahram* kabilar shular jumlasidandir.

Forscha o'zlashmalarni ham ikki jihatiga ko'ra tahlil qilamiz.

1. Forscha leksik birliklarning eski turkiy adabiy tiliga munosabati. Asarda forscha leksik birliklarning eski turkiy adabiy tili davriga xos ma'nolari aks etgan. Asar leksikasidagi forscha o'zlashmalarning aksari eski turkiy adabiy tilida faol qo'llangan so'zlardan iborat: *Namaz* "Bärčä namaz qıldıuq" [Courteille 1882, 5], *ḡoristān*, "Bäsä ḡoristānlari ewläriniṇ, ešikindä edi", *payḡambar* "Bü Yaqub payḡambar bilä Yusuf payḡambar türür" *ranjida* [Courteille 1882, 11]. kabi so'zlar.

2. Forscha so'zlarning hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanadigan forscha so'zlar struktur-morfologik jihatdan uchga ajratildi:

1. Asos holida qo'llanadigan forscha so'zlar: *pand, xuš*

2. Sodda yasamalarga asos bo'lgan forscha so'zlar: *sudxör, nāmahram*

3. Murakkab leksik birliklar tarkibida qo'llanadigan forscha so'zlar: *ranjida qılmaq, xušamad qılmaq, yād qılmaq*.

"Me'rojnoma"da qo'llanilgan leksik birliklar tasnifi

"Me'rojnoma" asarining turkiy tildagi tarjimasida qo'llanilgan leksik birliklar bir necha guruhga ajratiladi. Ulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz:

1. Shaxs va shaxs faoliyati bilan bog'liq leksik birliklar.

2. Harakat-holatni bildiruvchi leksik birliklar.

3. Belgi-xususiyatni bildiruvchi leksik birliklar.
4. Zamon tushunchasini bildiruvchi leksik birliklar.
5. Makon tushunchasini bildiruvchi leksik birliklar.
6. Hayvon nomlarini bildiruvchi leksik birliklar.
7. Me'yor-o'lchov tushunchasini bildiruvchi leksik birliklar.

Leksik birliklar mundarijasidagi birlashtiruvchi hamda farqlovchi so'zlar ularni muayyan guruhlariga ajratishga asos bo'ladi. Negaki, "...nutq segmentining ifoda tomondan bo'laklarga bo'linishi qanchalik tabiiy bo'lsa, uning mazmuniy bo'lak (komponent)larga ajralishi ham shunchalik tabiiydir" [Martine 1963,453]. Har bir leksik birliklar guruhi o'z ichida kichikroq guruhlariga ajratildi, kichikroq guruhlar esa o'z navbatida yanada kichik mavzuviy guruhlariga bo'lindi.

Shaxs va shaxs faoliyati bilan bog'liq leksik birliklar

Shaxs va shaxs faoliyati bilan bog'liq bo'lgan guruhdagi so'zlarini quyidagi leksik guruhchalarga ajratib ko'rib chiqamiz:

1.1. Shaxs ismini bildiruvchi leksik guruh: *Abu Bakr, Umar, Usmān, Ali, Musā, Dāvud, Sulaymān.*

1.2. Tana a'zosini bildiruvchi leksik guruh: *ayaq, büt, ilg, ağız, boyun, baş.*

1.3. Shaxsning tashqi ko'rinishini ifodalovchi leksik guruh:

a) kiyim-kechak tushunchasini ifodalovchi so'zlar *tōn, na'lin;*

b) shaxs qiyofasini ifodalovchi so'zlar: *aq saqalliq, boyi tüklük.*

1.4. Shaxs fe'l-atvorini aks ettiruvchi leksik guruh:

a) shaxsning ijobiy fazilatlarini bildiruvchi atamalar: *mömin, yaqši qiliq, yumşaq söz;*

b) shaxsning salbiy xislatlarini aks ettiruvchi atamalar: *takabbur, xasadluq, munāfiq, zālim;*

1.5. Shaxs ruhiyati bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi leksik guruh: *sevünçlük bolmaq, qauğuluq bolmaq, ranjida bolmaq.*

1.6. Shaxs e'tiqodi bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi leksik guruh: *namaz qılmaq* (namoz o'qimoq), *du'a qılmaq* (duo qilmoq), *tā'at qılmaq* (ibodat qilmoq), *sajda* "Xudoga yukunish", *hamd-u sanā äytmək* "Allohga hamdu sano aytmoq) kabilar.

1.7. Shaxsga qarindoshlik, yaqinlik tushunchasini ifodalovchi leksik guruh: *ata-ana, oğul, qiz.*

Harakat-holatni bildiruvchi leksik birliklar.

Asarda shaxs, narsa-buyum harakati va holatini aks ettiruvchi leksik birliklardan iborat. Harakat-holatni bildiruvchi leksik birliklar quyidagicha guruhlandi:

- 1) harakat fe'llari: *tüt-, quy-, qiyna-, ber-*;
- 2) holat fe'llari: *böyun sun-, ranjida qil-*;
- 3) nutq fe'llari: *de-, äyt-, nasihat qil-, ğiybat sözla-*.

Belgi-xususiyyatni bildiruvchi leksik birliklar.

Belgi-xususiyyat bildiruvchi leksik birliklar rang bildiruvchi, shaxs fe'l-atvorini bildiruvchi kabi bir qator leksik guruhlardan iborat.

“Me’rojnoma”dagi belgi bildiruvchi leksik birliklarning asosiy qismi rang va xususiyyat bildiruvchi soʻzlardan iborat.

Asarda rang bildiruvchi *qara, aq, qizil* soʻzlari qoʻllangan.

Shaxs fe'l-atvorini bildiruvchi guruh: *munāfiq, hasadluq, uluĝ köngüllük, yaqši qiliqliq “Yumshaq sözlük, yaqši qiliqliq bōlĝil”...*

Shuningdek, asar matnida ta’mini bildiruvchi soʻzlar ham uchraydi: *ajuruq* (achchiq), *süyük* (shirin) “*Ul ikki süw süttin aqraq, bāldin sujukraq*” (U ikki suv sutdan oqroq, asaldan shirinroq).

Zamon tushunchasini bildiruvchi leksik birliklar

Asarda “zamon” tushunchasi bir qator mezonlar asosida belgilangan:

1. “Vaqt” tushunchasi uchun xoslangan yil, *kün, sāat* “*Bü xuruz bir fārištā türürkim tün-künniñ sāatlarin saqlab...*” [Courteille 1882, 8], terminlari orqali aks ettirilgan.

2. “Yil” tushunchasini 360 kun tarzida keladi: “*Antaqkim, üç yüz altmış künning savābi tāmām bōlĝay*” [Courteille 1882, 23].

Makon tushunchasini bildiruvchi leksik birliklar

“Me’rojnoma”da quyidagi geografik terminlar mavjud: *Maĝ-rib, Maşriq, tengiz, darya, sahrā, taĝ. “Jabrāil meni qanatı üzä mindürüb Qāf taĝıqa keltürdi”* [Courteille 1882, 23].

Asarda hududni ifodalovchi toponimlar kelgan: *Misr, Kufa, Nil, Frāt, Makka, Madina, Qāf, Minā. “Biri Nil daryasi türürkim Misr šāhridā aqar. Birisi Frāt türür, Kufa šāhridā aqar”.*

Hayvon nomlarini bildiruvchi leksik birliklar

“Me’rojnoma” matnida bir necha hayvon nomlari uchraydi: *tevā, at, arslan, tonguz, qačir, ešāk. “Buraq atliq bir jänvār keltürdilär. Eyärlik, yügänlik erdi. Qaçirdin kičikräk, ešäkdin uluqraq”.*

Me’yor-o’lchov tushunchasini bildiruvchi leksik birliklar

Muayyan hududni bosib o’tish oralig’idagi masofa o’lchovi

ifodalangan: *"Qalīnliġi beš yüz yilliq yol erdi".*

Hajmni ifodalovchi o'lchov: *"Yoġanliġi beš yüz yilliq erdi".*

"Me'rojnoma"da Islom dini bilan bog'liq leksik birliklar tizimi

Asarda Islom dini bilan bog'liq atamalarning katta bir qismi sof turkiychadir. Tarjimon bu asarni o'girish jarayonida turkiy tilda qadimdan qo'llanilib kelayotgan diniy atamalardan keng foydalangan. Shuningdek, tarjimada turkiy so'zlar bilan bir qatorda arab va fors tillaridan o'zlashgan atamalar ham uchraydi.

"Me'rojnoma"da *Allah* so'zi matnda keltirilgan arabcha hadisda, oxirzamon payg'ambari Muhammad (s.a.v.) tomonidan aytilgan *Bismillāhir Rahmānir Rahim* kalimasida, *Rasul* so'zi va chahoriyorlar madhidan so'ng kelgan. Bundan tashqari yana bir o'rinda – Rumaysa tomonidan aytilgan quyidagi jumlada ham kelgan: *"Rumaysa äytti: bale ya rasulullāh. Allah ta'ālā mengä rahmat qilib uçmaq ruzi qildi teb dedi"* [Courteille 1882, 32]. Mutarjim *Allah* so'zi o'rnida *Tāñri* so'zini qo'llagan. *Rabb* so'zi ham Qur'on oyatida kelgan. Bir o'rinda tarjimon *Parvardigār* so'zini qo'llagan.

Asarda Alloh sifatleri qo'yidagi tarzda ifodalangan:

1. *Bir-u bar* (Yakka, Vohid)
2. *Erklig* (Erkli, Qodir)
3. *Yaratqan* (Yaratgan)
4. *Törätkän* (Parvarishlagan)
5. *Qādir* (Qodir)
6. *Lam uazal* (Abadiy)
7. *Jalla jalalahu* (Eng ulug')

Xudoning qudrati – *Tāñriniñ qudrati*, xudoning inoyati – *Tāñriniñ ināyati*, xudoning yorlig'i – *Tāñriniñ yarluqı*, xudoning buyrug'i – *Tāñriniñ farmāni* deb yuritilgan.

"Xudodan tilamoq" tushunchasi *Tāñri ta'ālādin sörmäk, Tāñri ta'ālādin tilämäk* tarzida ifodalangan.

"Me'rojnoma"da "payg'ambar" – *rasul, payġambar*, uning sifatleri esa – *habib, ezgü, yigirmä tört miñ payġambarniñ sarvari* tarzida keltirilgan.

To'rt ulug' sahoba (chahoriyor)larning turkiy nomi - *tört eš* [Sodiqov, Omonov 2010, 95] bo'lib, tarjimon uning forsha variantini qo'llab, *čäriyār* deb bergan.

Asarda *"sahāba"* so'zi bir o'rinda – *"Yänä Mālik atliq sahāba Aliniñ qiz qarındaşı Ummuhaniy atliqdin rivāyat qilurkim"* jumlasida uchraydi [Courteille 1882, 2].

Asarda islomning besh farzi shunday ataladi:

iyman - iymon

namāz - namoz

roza - roʻza

haj - haj

ğazā, zakāt - zakot

“Merojnoma”da “qiyomat kuni” - *qiyāmat kuni* “*Qiyāmat kuni Taʼri taʼālā meni tamuq ōtidā küydürmägäy*” (Qiyomat kuni Tangri taolo meni doʻzax oʻtida kuydirmagay) shuningdek, *bü kün* deb berilgan. “*Bülär yetim mālīn yegän kişilär türür bü kündin qörqmayīn*” (Bular qiyomat kunidan qoʻrqmasdan yetimning haqini yegan kishilardir).

“Jannat” soʻzi asarda *uçmaq*, “doʻzax” esa *tamuq* deb atalgan.

Asarda “farz” soʻzi *fariza* deb kelgan. Besh farzdan biri boʻlmish namoz bilan bogʻliq atamalar quyidagicha kelgan: “namoz ruknlari” – *namaz arkāni*, “tahorat qilmoq” – *tahārat qılmaq*: “*men bu sözni eşitkač tahārat qılayīn teb qoptum*” (Men bu soʻzni eshitgach, tahorat qilayin deb turdim), “namoz oʻqimoq” – *namaz qılmaq*: “*Barča namaz qıldıuq*” [Courteille 1882, 6]. (Hammamiz namoz oʻqidik), *namaz-niyaz qılmaq* “*Şukr qilib namaz niyaz qılğil*”. Asarda azon – “bāñ namāz” tarzida ifodalangan. “*Qiyāmatqa tegürü bāñ namāz äytürdä meniñ atimni aytqantın sönrä seniñ atıñni aytqaylar teb. Rasul alayhi-s-sallām bü yarluqnı eşitti. Ersä köñli xuş böldi*”. [Courteille 1882, 30].

“Bu dunyo” tushunchasi –dunya, oxirat tushunchasi esa – āxirat deb atalgan. “Ziyorat qilmoq” - *ziyārat qılmaq*, “duo oʻqimoq” – *duʼa qılmaq* deb berilgan: *Taʼri taʼalaniñ suyurgoliğa muşarrafbolğaysan, teb mengä duʼa qıldı*. “Qurbonlik qilmoq” tushunchasi – *qurbān qılmaq* tarzida keltirilgan: “*Sen parvardigoriñ üçün namaz qılğil, qurbān qılğil*” [Courteille 1882, 29].

“Merojnoma”da leksik birliklarning tanlanishini tadqiq etar ekanmiz, bu asar eski turkiy adabiy tilining fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari oʻzida aks etgan nodir manba ekanligini koʻrsatadi.

Turkiy tildagi “Meʻrojnoma”da bir necha tarixiy sheva soʻzlarining mavjudligi, uning matni tarixiy shevashunoslik uchun ham muhim material boʻla olishini koʻrsatadi.

“Meʻrojnoma” leksikasi tarixiy-etimologik jihatdan oʻz qatlam va oʻzlashgan qatlamdan iborat. Asarda turkiy soʻzlar XI–XV asrlar eski turkiy adabiy tili lugʻat boyligining asosini tashkil etadi.

Asar matnida hozirgi kunda isteʼmoldan chiqqan soʻzlarning

qo'llanilganini ko'rishimiz mumkin. Asarda bunday so'zlarning aksari sof turkiy bo'lib, ayrim hollarda arab va fors tillaridan o'zlashgan leksik birliklar ham uchraydi.

"Me'rojnama"da eski turkiy tili davriga xos o'zlashmalar faol qo'llangan. Forscha, arabcha so'zlarni hozirgi o'zbek adabiy tiliga qiyoslash natijasida leksik birliklar mundarijasida o'zgarishlar yuz bergani kuzatildi. Asar leksikasidagi o'zlashmalar hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanadigan, hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydigan so'zlardan iborat.

Adabiyotlar

АН-НАИМ. *Арабча-ўзбекча луғат*. 2003. Тошкент.

Древнетюркский словарь. 1969. Ленинград.

Мартине, А. 1963. "Основы общей лингвистики". V сб. *Новое в лингвистики*. III. Москва.

Courteille, Pavet de. 1882. *Mirâdj-nâmeh*. Récit de l'Ascension de Mahomet au Ciel Composé A.H. 840/1436-1437. Amsterdam: Philo Press.

Sodiqov, Q. 2009. *Turkiy til tarixi*. Toshkent.

Содиқов, Қ. 2008. *Эски туркий ёзувлар*. Тошкент.

Sodiqov, Q., Omonov, Q. 2010. *O'zbek tilining yozma uslublari tarixidan* Toshkent.

Қўчқортоев, И. 1977. *Сўз маъноси ва унинг валентлиги*. Тошкент.

Рабғузий, Н. 1990. *Қисаси Рабғузий*. Тошкент: Ёзувчи.

Ўзбек халқ шевалари луғати. 1971. Тошкент.

Рубинчик, Ю. А. 1970. *Персидско-русский словарь*. Москва.

Lexical and morphological features of the language of “Mirajname”

Jahongir Turdiev¹

Abstract

This article is devoted to the linguistic features of the Turkic work "Mirajname". It analyzes the lexical and morphological features of the language of the work from a linguistic point of view. Since the morphemic structure of the word changes in the course of the historical development of the language, in its analysis it is important to distinguish between historical and modern issues. These aspects are emphasized when highlighting the linguistic features of the work. The article also discusses the dialect words and the use of Islamic terms used in the work. In addition, the article discusses the relationship between words and morphemic structure used in "Mirajname" of the modern Uzbek literary language.

Key words: *türkic language, lexicological research, lexical unit, morpheme, affix, Islamic terms, Persian words, Arabic words.*

References

- AN-NAIM. *Arabcha-o'zbekcha lug'at*. 2003. Toshkent.
- Drevnetyurkskiy slovar*. 1969. Leningrad.
- Martine, A. 1963. *Osnovi obshiy lingvistiki*. V sb. "Novoe v lingvistiki" III. Moskva.
- Courteille, Pavet de. 1882. *Mirâdj-nâmeh*. Récit de l'Ascension de Mahomet au Ciel Composé A.H. 840/1436-1437. Amsterdam: Philo Press.
- Sodiqov, Q. 2009. *Turkiy til tarixi*. Toshkent.
- Sodiqov, Q. 2008. *Eski turkiy yozuvlar*. Toshkent.
- Sodiqov, Q., Omonov, Q. 2010. *O'zbek tilining yozma uslublari tarixidan* Toshkent.
- Qo'chqorto'ev, I. 1977. *So'z ma'nosi va uning valentligi*. Toshkent.
- Rabg'uziy, N. 1990. *Qisasi Rabg'uziy*. Toshkent: Yozuvchi.
- O'zbek xalq shevalari lug'ati*. 1971. Toshkent.
- Rubinchik, Y. A. 1970. *Persidsko-russkiy slovar*. Moskva.

¹Jahongir Z. Turdiev– PhD student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: jahongirshoh15@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-5244-8542

For citation: Turdiev, J. Z. 2022. "Lexical and morphological features of the language of “Mirajname”. *Golden scripts* 3: 93–104.

Denov kichik dialektal zonasining xususiyatlariga doir

Anvarbek Turdialiye¹

Abstrakt

Areal lingvistika O'zbekistonda fan sifatida shakllanish jarayonida ekanligi ma'lum. Bu fanning nazariy asoslari tilshunos olim A.Jo'rayev nomi bilan bog'liq, lekin areal lingvistikaning tarkibiy qismi bo'lgan lingvistik geografiya bo'yicha tadqiqotlar nisbatan oldinroq boshlangan. Bu maqolada bir nazariy masala tilshunoslar e'tiboriga kiritilmoqdaki, u ham bo'lsa, *kichik dialektal zona* masalasidir. To'g'ri, dialektal zona to'g'risida dunyo tilshunosligida ancha yillardan beri fikr yuritib kelinadi. A.Jo'rayev unga o'zbek shevalarining xususiyatlaridan kelib chiqib, yangicha qarashlarini bayon qilgan. Uning olg'a surgan g'oyasi dialektal zona bo'lib, bir til massivi ichidagi uning bo'laklarini bildiruvchi lingvistik hodisadir. Biz uni shartli ravishda yirik dialektal zona deyishimiz mumkin. Bu dialektal zonalar ham bo'laklarga ajralishi mumkinligi masalasi ham kun tartibiga kelib chiqmoqdaki, uni *kichik dialektal zona* deb yuritish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Maqolada ayni masala muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: *dialektologiya, areal lingvistika, dialektal zona, lingvistik geografiya, a-zona, hudud, tayanch dialekt, fokus nuqtasi.*

Kirish

O'zbek tilshunosligida shevalarni dialektal zonalarga ajratish masalasi boshlangan bo'lsa-da, u keyingi davrda rivojlantirilmadi. A. Jo'rayev tadqiqoti tufayli o'zbek tili massivi 11 dialektal zonaga ajratildi [Джуряев 1991, 65] va *a-zonali* hududlar ham belgilandi. Bunday zonalarga ajratishgacha o'zbek shevalari tavsifiy va areal yondashuvlarni qo'llagan holda, lingvogeografik jihatdan o'rganildi ham. Bu ishlarda V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, A. Shermatov, Y. Ibrohimov, Q. Muhammadjonov, N. Murodova, I. Darveshov,

¹ Turdialiye Anvarbek Xusinovich – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: anvarbekturdialiye@list.ru

ORCID ID: 0000-0001-6866-3714

Iqtibos uchun: Turdialiye, A.X. 2022. "Denov kichik dialektal zonasining xususiyatlariga doir". *Oltin bitiglar* 3: 105–116.

Z.Ibrohimova, N.Rahmonovlar qatnashishgan [Ashirboyev 2021, 119]. Ma'lumki, dialektal zonada asosiy e'tibor shahar dialektining fokus nuqtasini bajarishga qaratiladi [Джурпаев 1991, 66]. Bu tushuncha nisbatan yirikroq hududlarni qamrab olishi to'g'risidagi ma'lumotlarga egamiz. Dialektal zona areal tadqiqot natijasiga ko'ra belgilanadi, ya'ni shu zonada shahar shevasi dominantlik qiladi va atrof shevalarga doimiy ta'sir etib turadi. Albatta, shahar dialektining dominantligi shaharning tarixan shakllangan dialekti bo'lishi, u siyosiy, iqtisodiy va madaniy tadbirlar markazi sifatidagi o'ziga xos o'rni, unda shu zonadagi turli sheva va til vakillarining qatnashib turishi, shuningdek, ular adabiy til bilan birga, shu shahar shevasidagi nutqlarni tinglashi, o'zi ham shu shevada ayrim so'zlarni talaffuz qilishga majbur bo'lishida ko'rinadi. Bunday maqom kengroq miqyosda bo'lmasa-da, tarixan shakllangan ayrim tuman markazlariga ham xosligi ma'lum bo'lmoqda. Jumladan, Denov shahri shunday vazifani bajara oladi, ya'ni bu shaharda, asosan, qarluq shevasi vakillari yashasa, uning ichidagi mahallalarda tojiklar, qo'shnichilikda qipchoq shevasi vakillari yashaydiki, tarixan ular o'zaro kontaktda bo'lib kelganlar, shuning uchun ham ular shevasida ta'sir jarayonlari kechmoqdaki, unda qarluq shevasi dominantlik qilmoqda. Demak, bu zonada qarluqlar shevasi fokus nuqtasi vazifasini bajaradi.

Kichik dialektal zona terminida, garchi *dialekt* so'zi ishtirok etsa-da, bu o'rinda *dialekt* emas, balki *sheva* tushunchasi ishlaydi. Til massivining dialektal zonasida, avval aytganimzdek, tayanch dialekt tushunchasida haqiqatan ham shahar dialektining ishtiroki ta'kidlanadi, lekin O'zbekiston hududidagi barcha shaharlarda ham terminologik ma'nodagi *dialekt* bo'lmasligi mumkin, balki aksariyat shaharlar bir shevalidir, bu o'rinda ham *dialekt* terminidan foydalaniladi, lekin bu so'z *sheva* termini ma'nosiga ega bo'ladi. Dialektologik adabiyotlarda dialekt terminidan ham lahja, ham sheva, ham umumlingvistik tushuncha sifatida foydalanib kelingan [Решетов, Шоабдурахмонов 1978, 6; Тўйчибоев, Ҳасанов 2004, 5], hozir ham shunday qo'llanish hollari mavjud. To'g'ri, sheva, dialekt, lahja tushunchalarining pog'onaviylik ma'nosi o'z kuchini saqlaydi [Ashirboyev 2021, 12].

Dastlabki fikrdan tayanib, *kichik dialektal zona* terminidagi *dialekt* so'zini faqat sheva ma'nosida qo'llanayotganini ta'kidlaymiz hamda uni dastlab Denov tumani misolida asoslashga harakat qilamiz va uni *kichik dialektal zonaning* bir namunasi sifatida tavsiya etamiz. Shuningdek, kichik dialektal zonani belgilashda aholining

yo dialektal, yo til rang-barangligi bo'lgan hududlardan qidirish lozim. Agar tuman aholisi bir shevali yoki bir tillik (qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan til) bo'lsa u yirik dialektal zonaning periferik hududi deb qarash to'g'ri bo'ladi. Masalan, Bandixon tumani faqat qipchoqlardan iborat bo'lgani uchun unda dialektal zona belgilanmaydi, balki u Surxondaryo dialektal zonasining periferik hududlaridan biri hisoblanadi. Aslida Surxondaryoni yaxlit bir dialektal zona deb belgilash masalasi ham munozarali, bunga A. Jurayevning Termiz shahri shevasining kuchsiz fokus nuqtasi deb yuritishi [Джуряев 1991, 70] sabab. Bu esa, Surxondaryo shevalarining yaxlit dialektal zonaligi masalasida munozara qilishga olib keladi.

Denov shevasida qarluq lahjasi

Kichik dialektal zona sifatida tavsiya etilayotgan Denov shevasini o'rganish hudud shevasida qarluq lahjasining singarmonizmni yo'qotgan shevalari qipchoq lahjasiga oid sheva hamda tojik tili muomalada borligini ko'rsatdi. Bunda, albatta, qarluq singarmonizmni yo'qotgan shevalari fokus nuqtasi vazifasini bajarishi va atrof shevalarga ta'siri borligi aniqlandi. Singarmonizmni yo'qotgan shahar shevalariga Denov shahar (Sanoatchilik, Nurli manzil, Z.M.Bobur, Bahoriston, Ibn Sino, Bog'inav, O'rikzor, Buyuk kelajak, Guliston M.F.Y), Yurchi, Ushor, Sohobkor¹, Oybarak, Cho'ntosh, Lo'pon, Qizil Farg'ona, Oqlar, Qoraxon shevalari kiradi bu sheva unlilar soni 7ta (ä, e, i, ä, **a o, u**)ni tashkil qiladi.

Quyida shu kichik zonada fokus nuqta vazifasini bajaradigan qarluq shevasining fonetik xususiyatlarini yoritamiz.

a unlisi. Orqa qator, quyi-keng, lablanmagan, so'zning barcha bo'g'inlarida qo'llana oladi, q, x, g' undorshlari qatnashgan so'zlarda albatta qo'llanadi: u yoq ~ **aq**, u yoqdan ~ **aydan**.

a, ä bilan tugagan ochiq bo'g'inli fe'l o'zak va negizlariga *lab-tish* [v]qo'shib ot yasaganda **a, ä** unlilari ä ga o'zgaradi: **qiyna ~ qijnäv, sayla ~ säjläv**, o'yla ~ **ojläv**; tarkibida ä mavjud bo'lgan oxiri ochiq bo'g'in bilan tugagan so'zlarga affiks qo'shib fe'l yasalganda ä unlisi **a** yoki ä ga o'zgaradi: **son ~ sänä**, ong ~ änlä, yosh ~ **jäšä**.

- so'z boshida: u yoq ~ **aq** // **ay**, adog'i(oxiri) ~ **adäyi**,

¹ Sohobkor mahallasining Ushori qishlog'ida barlos, musobozori, kaltatoy, chekkalik urug'lari yashaydi; Oybarik qishlog'ida kaltatoy, kichik kaltatoy urug'lari yashaydi; Ushor Oybarak qishloqlarida tojiklarning sinachi va kuyovsi urug'lari yashaydi.

achchiq ~ *aččiḡ*;

- soʻz oʻrtasida: yuqori ~ *jaqāri*, daraxt ~ *darax*, bu yer ~ *bay*, shu yer ~ *šay*, Toʻlgʻonoy ~ *Tolyanaj*, tomoq ~ *tamāy*, qozon ~ *qazān*, orqalab ~ *arqalap*, dastali piyola (bakal) ~ *haqqul*;

- soʻz oxirida: bu yoqqa ~ *baqa*, u yoqqa ~ *aqqa*, shu yoqqa ~ *šaqa*, *chigʻana* ~ *čiyana* (yogʻochdan yasalgan bugʻdoy, arpa zigʻir tashishga moʻljallangan arava), Gʻavza ~ *yavza* (oʻroq oʻrganda qoʻl bilan ushlangan bugʻdoy toʻdasi), *Gʻara* ~ *yara* (bogʻlash uchun toʻplangan bugʻdoy);

Tovush mosliklari

ä ~ a mosligi: avlod ~ *avlād*, fabrika ~ *pābrikä*||*pābrikä*, mashina ~ *māshinā*;

ā ~ a mosligi: buxoro ~ *buxarā*, qorin ~ *qarin*, qora ~ *qara*;

e ~ a mosligi: boraver ~ *bārevvor*||*bārejvor*, qoʻyaver ~ *qovvor*||*qojevor*, qilaver ~ *qilevor*||*qivvor*, olaver ~ *āvvor*||*ālevor*;

Mānā bu Sopi Āllājār bābāmiz šu kiši šunān otip, šunān hār bir qišlāqqa nām qojgan. Xuparilardi Xubbari degān xuddiki bir čirājli pārīgā oxšagan, Inā: kejin mānā bu ošārgā kegāndān kejin bizzi bābājlā nān, čāj qojgan, nāni ošāri deb nām qoʻygan, sināgā ānguri sinā deb nām qoʻjib ketgānlā, kejin vaxšivārga bā(r)gānlādā ošaqa qāganla.

ä fonemasi – old qator, quyi keng, lablanmagan unli. Shevada ä fonemasi barcha boʻgʻinlarida keladi. Masalan: *ākā*, *igirmā*, *ājt*, *ärt*, *dām*, *kāl*, *mākkā*, *jākkā*, *bādān* *tārbijā*, *āmmā*, *ozlārigā*, *kesāk*. Bu unli barcha oʻzbek shevalarida uchraydi. "j"lovchi oʻzbek shevalaridan *Toshkent*, *Namangan*, *Margʻilon* shevalarida – *kāsāl*, *kättā* (*kättā*), *māmlākāt*, *sāvzi* (*gāšir*), *āxālāsi*, *āgār*; *Qorabuloq* – *šārgā*, *čājnāk*, *kāksālārimiz*, *dārrāv*. S.Ibrohimov A.K.Borovkov va V.V.Reshetov bu unlini rus [а-э] unlilari oraligʻidagi tovush deb taʼriflagan fikrlarni keltiradi [Иброҳимов 1967, 37].

- soʻz boshida: aka ~ *ākā*, ayt ~ *ājt*, art (tozala) ~ *ärt*;

- soʻz oʻrtasida: dam ~ *dām*, kal ~ *kāl*, badan ~ *bādān*, kesak ~ *kesāk*||*kāsāk*, kemtik ~ *kāmtik*, chekkadan ~ *čākkādān*;

- soʻz oxirida: makkajoʻxori ~ *mākkā*, yakka ~ *jākkā*, oʻzlariga ~ *ozlārigā*, yigirma ~ *igirmā*, menga ~ *māḡā*;

Tovush mosliklari:

e ~ ä mosligi: egāt ~ *agāt*, kerosin ~ *kārāsin*, yanga ~ *jeḡā*, bor ekan ~ *bārākān*, masjid ~ *mečit*||*māčit*;

ā ~ ä mosligi: chopon ~ *čāpān*, odam ~ *ādām*, bola ~ *bālā*;

- *qaraḡ mānā kelāpti qapqara ādām māsālān sāqāllar osip ketkān, ustigā eski kijim (ādāmlā) oša pājtlār kok žuldir čāpān*

kijärđi.

- *Mäktäpkä bemälim qäldik erdän-berdän mälim op keldi, bir jeqa oqiganim joq. Čäriy kijib xurmän jänčib bāvālärđi qavatiga rä:nni bolib jurgämän.*

e fonemasi – old qator, o’rta-keng, lablanmagan unli. Barcha o’zbek shevalarida qo’llanadi. Ba’zi hollarda “ä” talaffuz etiladi: kemtik ~ *kämtik*, kemirish ~ *kämiriš*, menga ~ *māṇä*, senga ~ *sāṇä*, chekkadan yur ~ *čäkkädän jur*, chekish ~ *čäkiš*, velosiped ~ *väläspid*;

- so’z boshida: echki ~ *ečki*, elak ~ *eläk*||*eläj*, eslab ~ *esläb(p)*, ikki ~ *ekki*, eski ~ *eski*, ehtiyot ~ *ejtijät*, eshak ~ *išäk*;

- so’z o’tasida: devona ~ *duvänä*||*divänä*, devor ~ *diväl*||*di(u)vär*, tegirmon ~ *tijirmän*||*tejirmän*;

Tovush mosliklari:

ä ~ **e** mosligi: Cho’ntosh, Oybarak va Qizil Farg’ona qishloq shevalarida olmoshlarda kuzatiladi: **men** ~ *män*, **sen** ~ *sän*.

e ~ i mosligi: devona ~ *divänä*, devor ~ *diväl*||*di(u)vär*, iltimos ~ *eltimäs*, pechenye ~ *pičinä*, qittak(ozgina) ~ *gärtäk*||*gi:täk*, eshak ~ *išäk*, paket ~ *päkit*, tegirmon ~ *tijirmän*||*tejirmän*;

- *mänä šaxsan meni oylim mullo enni čontäšđi tort jillän beri tärmäšib jätibđidä enni, män kor bollim bulä tärmäškäni tärmäškän imām bogin dep, män qojmadim qoj keräkmäs dep.*

i fonemasi – old qator, yuqori-tor, lablanmagan unli. Barcha shahar shevalarida bor, o’rganilayotgan shevada so’zning istalgan bo’g’inida kela oladi. Fonema tarixiy shakllanish jarayonida **i va ĭ** unlilarining konvergensiya natijasida shakllangan: **tiš, dil, silä, ginä, kinnä** [Ўзбек диалектологияси 1968, 100]. **q, γ, x** chuqur til orqa undoshlari bilan kelganda orqa qator [**i**] fonemasiga yaqinroq talaffuz qilinadi. So’z boshida til o’rta [**y**] bilan boshlangan ayrim so’zlarda [**y**] talaffuz qilinmaydi: yiqildi ~ *iqilli*||*iqildi*, yiring ~ *irin*, yigirma ~ *igirmä*, yilqi ~ *ilqi*, uyga o’tirimman ~ *ojgä otirimmän*, termizda o’qiydi ~ *tirmizgä oqijdi*.

- so’z boshida: yiqildi ~ *iqilli*, yilqi ~ *ilqi*, yigirma ~ *igirmä*, yiqilib qolgan ~ *iqilip qāgan*;

- so’z o’rtasida: bultur ~ *biltir*, tuyoq ~ *tijāq*, gugurt ~ *gugirt*, tuxum ~ *tuxim*, yulduz ~ *yuldiz*, kunduz ~ *kundiz*, qunduz ~ *qundiz*, uloq ~ *ilāy*||*ulāy*, tuproq ~ *tirpāy*, buloq ~ *bilāy*, chumchuq ~ *čimčiy*||*čumčiy*, dimoq ~ *di(u)māy*, uyga o’tiribman ~ *ojgä otirimmän*, termizda o’qiydi ~ *tirmizgä oqijdi*;

- so’z oxirida: bo’ldi ~ *bolli*, qildi ~ *qilli*, kelyapti ~ *kelāpti*, Cho’yanchi ~ *čojänči*, osh tavoq ~ *läli*;

Tovush mosliklari:

i ~ u – mosligi: bultur ~ biltir, tuyoq ~ tijāq, gugurt ~ gugirt, tuxum ~ tuxim, yulduz ~ yuldiz, kunduz ~ kundiz, qunduz ~ qundiz, uloq ~ ilāy||ulāy, tuproq ~ tīrpāy, buloq ~ bi(u)lāy, chumchuq ~ čimčiy||čumčiy, dimoq ~ dumāy;

- *Vaxšivārga hāzir :ām qollari minān jāsāgān māčitlāri bār. Māčit qiganda bizdi bābājlā jārdāmga bārādi.*

- *Kejin bosā bir čāyt xožajinim kelli, ājti, - xudā bir āsrādi jā sāni, sānijām terārist dep āpketsā nimā qila:rdi, -dedi. Mān ājtim māni āldimgā terārist kemāgān māni āldimgā čopān kelli dedim.*

ā fonemasi – orqa qator, quyi-keng, qiman lablangan unli shahar va shahar tipidagi shevalarda keng uchraydi. Qipchoq guruh shevalarining adabiy til, tojik tili va qarluq tip shevalar ta’siri bor hududlarida faolroq uchraydi. O’rganilayotgan hudud shevasining Oybarak, Qizil Farg’ona, Cho’yanchi qishloqlarida bu unli kam qo’llanadi. So’zning barcha bo’g’inlarida qo’llanadi: **sāmān, āmān, āmmā, bāšidā, buxārā||buxārā.**

Bu unlining o’zbek tilida paydo bo’lishini Polivanov tashqi ya’ni eroniy tillar ta’siriga bog’laydi [Ashirboyev 2021, 33]. S.Rahimov A. Borovkov va V. Reshetovlarning quyidagi fikrlarini keltiradi: Borovkov O’zbek tilida “**ā**” ning taraqqiyoti uchun tilning ichki taraqqiyot qonunlariga muvofiq sharoit mavjud. Har qanday holda “**ā**” unlisining taraqqiyoti lab-lab “**v**” hamda o’zbek tilining Toshkent shevasi uchun xarakterli bo’lgan chuqur til orqa [**q,γ**] tovushlarining ta’siri bilan bog’liq; V.Reshetov Umumturk orqa qator “**a**”ning o’rnida “**ā**”fonemasining paydo bo’lishi shartli ravishda uning pozitsiyasiga bog’liq, ehtimol faktorning ishtiroki ham bo’lsa kerak deydi [Раҳимов 1985, 30].

ā fonemasining [**v**] undoshi ta’siriga uchrashi: **belbog’ ~ belvāy, o’qlog’ ~ öxlāv, tumog’ ~ tumāv;**

chuqur til orqa **q, γ, x** undoshlari ta’siri: **tārāy, qājrāy, öxlāv.** Professor A. Rustamov “**ā**”fonemasi XV asr adabiy tilida tojik tilidan o’tgan so’zlar tufayli ba’zi turkiy so’zlarda “**a**”ning “**ā**”ga siljishini ko’ramiz degan fikrni aytadi [Рустамов 1962, 67]. “j”lovchi shevalarda va ikki tilda so’zlashuvchi shevalarda [**ā**] unlisi so’zning barcha bo’g’inlarida kela oladi: йл. сәмән, “**ик. т.**” самән; йл. әмән, “**ик.т.**” амән [Раҳимов 1985, 37].

- so’z bosida: ot ~ āt, omoch ~ *amāch*, oson ~ *asān osmon* ~ *āsmān*, opa ~ āpā, *amaki* ~ *ova*//āvä;

- so’z o’rtasida: tomon ~ *tāmān (tāmān)*, yomon ~ *jāmān (jāmān)*;

- so’z oxirida: holva ~ hālvā, daryo ~ dājrā, peshvo ~ pešvā;

ā ~ a ga mosligi: tomon ~ *tāmān* (*tāmān*), yomon ~ *jāmān* (*jāmān*), oson ~ *āsān*, osmon ~ *āsmān*, opa ~ *āpā*, amaki ~ ova||*āvā*, olov ~ *ālāv*, omoch ~ *āmāch*, qorin ~ qarın, novot ~ *nāvot*, holva ~ *hālvo*;

- *joliqizgā toyri, haqi hālāl minān jurin jalyān gāpirmān, birāvdi āldāmān, xudāni ozi toyri jolgā bašqaradi.*

- mā(n)edājām jogilār bā(r). Alāvidin degān mähällädä žlāvči jāy. Qizilfaryāna bār erdā faryānačılar bār. Ulār igirmā sākkizinči... vādijni xalqini ortāhāl bājlārni qulāq qilib māl-mulkini tālāv āliv kalxāzlaga kirim qilib berib ozlārini surgun qıyan.

o fonemasi orqa qator, o'rta-keng, lablangan unlini. Barcha o'zbek shevalarida talaffuzda bor: **ot, qol, toq, tolyānāj, ormān, kojna ormāk.** Bu unli haqida Rahimov quyidagi ma'lumotni keltiradi: shahar shevalarida [o] unlisining shahar tipidagi shevalar uchun xos bo'lgan indefferent [o'] unlisiga o'xshashi, moyilligi kuzatiladi. [o] unlisining kontrast jufti yo'q, chunki [o]ning til oldi [y]ga tomon siljishi [o>o'>o']ga olib kelgan. Surxondaryo "j"lovchilar shevalarida [o]ning kontrast jufti [ə] mustaqil fonema bo'lmay, balki pozitsion variantdir: *olāqālāj Muji:dinžān, mohriņni bās, koj-dirmā, koldā* [Раҳимов 1985, 37].

- so'z boshida: o' t~ ot, o'rdak ~ ordāj, o'rik ~ orig(j), o'choq ~ očāy, o'roq ~ orāy, o'rtoq ~ ortāy, o'tlab ~ ollāb, uylantiraman ~ ojlāntirāmān;

- so'z o'rtasida: ko'z~koz, qo'ng'iroq~qonyirāt, bo'lgan~bogān, qo'yaver~qovvor||qoyevor, cho'pon~čopān;

- so'z oxirida: obro'~ābro, ro'baro'~ropārā, voy bo'~vājbo;

Tovush mosliklari:

u ~ o mosligi: ko'z ~ *kuz* (men senga nima degandim o'lik ko'z eshak ~ mān sāñā nimā digāni:m u:lik *kuz* išk)¹.

- *Hāzrāt Āli kāpirlārdi qatl qilip-qilip šu tārāpkā qāčkan, kānāllik dejmiz beqi qaja-beqi qaja Hāzrāti Āli hāmmāsini qirgān. Qānini āqqaniga he ānā berdā bir āqqan hā ordān bir āqqan qajani ustidān tā: jolgāčā kāfir sojdi degān žāj bār ānā šergā bārgān uni rāvātāli degān. Duldurlāri otlāb kelib suv bomāgān, ātlāri tujāyi bilān kāvlāb suv čiyarib ičgān.*

u fonemasi orqa qator, yuqori-tor, lablangan unli. "j"lovchi shevalarda barcha bo'g'inlarda kela oladi. **uch ~ uč, uzoq ~ uzāy, buyruq ~ bujriy||bujruy, sandiq ~ sāndu;**

- so'z boshida: **uch ~ uč, uzoq ~ uzāy, o'g'il ~ oyl||ul, uzum**

¹ Oybarak qishlog'ida qurilishda ishlaydigan ishchilardan yozib olingan matn, tanbeh, haqorat.

~ uzim, umid ~ umit, u yerda ~ erda||eqa, o'tin ~ utin;

- so'z o'rtasida: **ulush ~ uliř, buyruq ~ bujriy||bujruy;**

- so'z oxirida: **uyqu ~ ujqi, ushbu ~ uřbu;**

Tovush mosliklari:

ä ~ u mosligi: yuqori ~ yaqqāri;

i ~ u mosligi: ulush ~ uliř, buyruq ~ bujriy, uyqu ~ ujqi, ma'lum ~ mālīm||mālum;

o ~ u mosligi: o'tin ~ utin, dushman ~ dořmān;

- *kejin utin kerāk dedi, bāvā trājtirčijdi utin vāñ(ko'p) idi.*

- *Sārvāntimizdi, bulunyurdi – tāvāni ustidā jerlām žāj bā: , jer tolā qib jāřāgān ulārdi ārqasidan ādām tuřgāndā, beqa mānā hāvār ketgān.*

Denov qarluq shevasida ham boshqa turkiy tillardagi kabi tovush o'zgarish xususiyati mavjud. Talaffuzda nutq organlarining faoliyatini yengil, og'zaki nutqni ixchamlashtirishga bo'lgan intilish tovushlarning har xil kombinator-pozitsion o'zgarishlarini yuzaga keltiradi. Bu xususiyat barcha o'zbek shevalarida bor, ammo shevalarda tarqalishi har xil. Mazkur shevalarda ham og'zaki nutq protsessida yuzaga keladigan assimilyatsiya, dissimilyatsiya, eliziya, metateza, spirantizatsiya kabi hodisalar borki, ular tarqalish xususiyatiga ko'ra Denov qarluq shevasining ichida ham turli xil ko'rinishga ega.

Assimilyatsiya

O'rganilayotgan hudud shevasida to'liq va to'liqsiz assimilyatsiya hodisasi mavjudligi quyidagi tovushlarda kuzatildi:

To'liq (progressiv) assimilyatsiya

ld>ll ~ aldadi ~ āllādi,

oldiga ~ ālligā,

keldi ~ kelli, bo'ldi ~ bolli, qildi ~ qilli;

nd>nn ~ nondan ~ nānnān,

mendan ~ mennān, sendan sennān, undan ~ unnān,

Boysundan ~ bājsunnān;

mb>mm ~ kambag'al ~ kammayal,

sunbula ~ summulā;

td>tt ~ ketdi ~ ketti, totdi ~ tātti;

pm>pp ~ boryapmiz ~ bārāppiz, kelyapmiz ~ kelāppiz,

To'liqsiz (progressiv) assimilyatsiya

řg>řk ~ kelishgan ~ keliřkān, tushgan ~ tuřkān;

sg> sk ~ kesgan ~ keskān, o'sgan ~ oskān;

sg< sk ~ keskir ~ kesgir, teskari ~ tesgāri;

To'liq (regressiv) assimilyatsiya

nl>ll ~ tanladi ~ tällädi, bir tiyinlik ~ birtillik, to'rt kunlik ~ torkullik;

tl>ll ~ hatladi ~ hällädi, qatlama ~ qallama, rahmatli ~ rähmälli;

rl>ll ~ to'g'vila ~ toyilla;

nm>mm ~ aylanma ~ äjlämmä, ko'nma ~ kommä, ishonma ~ išämmä;

zs>ss ~ yuzsiz ~ jussiz, yuz so'm ~ jussom, ko'zsiz ~ kossiz;

To'liqsiz (regressiv) assimilyatsiya

qč<xč ~ kelmoqchi ~ kemāxči, taqmoqchi ~ taxmāxči, quloqchin ~ qulāxčīn, boqmoqchi ~ bāxmāxči;

qt<xt ~ vaqt ~ vaxt//vaxt, qitqtir ~ qirxtir//qixtir;

qs<xs ~ yo'qsan ~ joxsan, to'qson ~ toxsan, chiqsa ~ čixsa, qo'rqa ~ qoxsa;

bs<ps ~ kelibsan ~ kepsän, chiqibsan ~ čiqipsan, qilibsan ~ qilipsan;

Dissimilyatsiya

Denov qarluq shevalarida dissimilyatsiyaning quyida ko'rinishi uchraydi:

č<š ~ ko'chdi ~ košti, o'chdi ~ ošti, qochdi ~ qāšti;

n<m ~ nonpar ~ nāmpär,

r>l ~ karidor ~ kälidār//kälidāl, zarur ~ zārul, brigadir ~ burgädil;

m<n ~ lampa ~ länpä, kamnoma ~ kännāmä;

Metateza. Undoshlarning o'rin almashishi.

jr~rj ~ sayrob ~ sārjāb, faryod ~ pājirāt, zurriyot ~ zi^ejrāt, daryo ~ dājrä;

yr~ry ~ to'g'ri ~ toryi, to'g'ra ~ torya;

pr~rp ~ tuproq ~ turpāq//tirpāy, supra ~ surpā, kiprik ~ kirpik;

xš~šx ~ Badaxshon ~ badašxān, o'xshaydi ~ ošxajdi;

br~rb ~ vr ~ tebrat ~ terbāt//tevrāt, Sarvi ~ sävri;

lv~vl ~ holva ~ hāvlä;

ym~my ~ yog'mir ~ jāmyir;

n~l ~ tanlangan ~ tällängän, aylana ~ äjnälä;

r~t ~ gugurt ~ gurgut;

q~v ~ buzoqboshi ~ buzāvbāši;

shevaning bu xususiyatlari dialekt zonalarni aniqlash uchun muhim fonetik hodisa hisoblanadi.

Shevaning o'ziga xos morfologik va leksik xususiyatlari ham bor bo'lib ular to'g'risida illustrativ ma'lumotlar beramiz.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Denov kichik dialektal zonasi fokus nuqta vazifasida Surxondaryo dialekt zonasining innovatsion markazi bo'la olishi o'rganishlar jarayonida oydinlashdi. Denov shevasida o'zbek tili qarluq va qipchoq guruh shevasi hamda tojik tili ta'sir doirasi o'ziga xos murakkablikka ega bo'lib, bu o'ziga xoslik qo'shni tuman va shahar shevalariga ham o'z ta'siri ko'rsatib kelmoqda. Aziz Jurayevning Denov tuman shevasini tayanch (fokus) nuqta vazifasini bajara olishi haqidagi ishorasi bugungi tadqiqotlarda o'z isbotini topmoqda.

Adabiyotlar

- Ashirboyev, S. 2021. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Nodirabegim.
- Боровков, А.К. 1953. *Вопросы классификации узбекских народных говоров*. Известия АН УзССР, Ташкент.
- Решетов, В.В., Шоабдурахмонов, Ш. 1962. *Ўзбек диалектологияси*. Тошкент: Ўрта ва олий мактаб.
- Yunusov, G'O. 1935. *O'zbek lahjalarini tasnifda bir tajriba*. Toshkent: OZDAVNAŠR.
- Джураев, А. Б. 1991. *Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива*. Ташкент: Фан.
- Пугаченкова, А., Ртвеладзе, Э.В. 1990. *Северная Бактрия — Тохаристан, Очерки истории и культуры*. Ташкент. Фан.
- Шониёзов, К., 1999. *Қарлуқ давлати ва қарлуқлар*. Тошкент: Шарқ.
- Джураев, Х. 1975. *Фонетико-морфологические и лексические особенности узбекских говоров, носящих этническое название "турк-калтай" (по материалам Самаркандской, Джизакской и Сырдаринской областей УзССР)*. Ташкент.
- Носиров, М. 1979. "Сурхондарё шевалари бўйича айрим кузатишлар (диалектологик экспедиция материаллари асосида)". *Ўзбек тили ва адабиёти* 5: 67-69.
- Раҳимов, С. 1995. *Сурхондарё ўзбек тили шевалари луғати (фонетикаси, лексикаси)*. Тошкент: Фан.
- Раҳимов, С. 1985. *Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (фонетикаси, лексикаси)*. Тошкент: Фан.
- Иброҳимов, С. 1967. *Ўзбек тилининг Андижон шеваси*. Тошкент: Фан.
- Рустамов, А. 1962. "XV аср ўзбек адабий тилининг вокализми". *Ўзбек тили ва адабиёти* 6: 67.
- Шоабдурахмонов, Ш. 1983. *Карлукское наречие узбекского языка*. Тошкент: Фан.
- Қудратов, Т. 1968. *Ўзбек тилининг оралиқ шевалари (Шаҳрисабз,*

Яккабоғ, Чироқчи ва Қамашӣ районларидаги оралиқ шевалар материаллари асосида). Филол. фанлари номзоди... дис. Тошкент.

On minor peculiarities dialectal zone of Denov

Anvarbek Turdialiev ¹

Abstract

It is known to the world of science that areal linguistics is in the process of formation as a science in the Republic of Uzbekistan. The theoretical foundations of this science have been laid and it is associated with the name of A. Jhorayev, but the research on linguistic geography, which is a component of areal linguistics, began relatively earlier in the Republic of Uzbekistan. A theoretical issue is brought to the attention of linguists, which is the issue of a small dialectal zone in this article. It's true, the world linguistics has been thinking about the dialectal zone for many years. A. Jhorayev explained his new views based on the characteristics of Uzbek dialects. The idea he put forward is a dialectal zone, which is a linguistic phenomenon that represents its parts within a language array. We can tentatively call it a large dialectal zone. The question of whether these dialectal zones can be divided into parts is also on the agenda, and it is possible to treat it as a small dialectal zone. This issue is discussed in the article.

Key words: *dialectology, areal linguistics, dialectal zone, linguistic geography, a-zone, region, base dialect, focal point.*

References

- Ashirboyev, S. 2021. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Nodirabegim.
Borovkov, A.K. 1953. *Voprosi klassifikatsii uzbekiskix narodnix govorov*. Izvestiya AN UzSSR, Tashkent.
Reshetov, V.V., Shoabdurahmonov, Sh. 1962. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent.
Yunusov, G'O. 1935. *O'zbek lahjalarini tasnifda bir tajriba*. Toshkent: OZDAVNAŠR.

¹ *Anvarbek Kh. Turdialiev* – PhD student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-pochta: anvarbekturdialiyev@list.ru

ORCID ID: 0000-0001-6866-3714

For citation: Turdialiev A.K. 2022. "On minor peculiarities dialectal zone of Denov". *Golden scripts* 3: 105–116.

- Djuraev, A. B. 1991. *Teoreticheskie osnovi arealnogo issledovaniya uzbekoyazichnogo massiva*. Tashkent: Fan.
- Pugachenkova, A., Rtveladze, E.V. 1990. *Severnaya Baktriya — Toxaristan, Ocherki istorii i kulturi*, Tashkent. Fan.
- Shoniyozov, K., 1999. *Qarluq davlati va qarluqlar*. Toshkent: Sharq.
- Djuraev, X. 1975. *Fonetiko-morfologicheskie i leksicheskie osobennosti uzbekskix govorov, nosyayix etnicheskoe nazvanie "turk-kaltatay" (po materialam Samarkandskoy, Djizakskoy i Сырдаринской областей УзССР)*. Tashkent.
- Nosirov, M. 1979. "Surxondaryo shevalari buyicha ayrim kuzatishlar (dialektologik ekspeditsiya materiallari asosida)". *O'zbek tili va adabiyoti* 5: 67-69.
- Rahimov, S. 1995. *Surxondaryo o'zbek tili shevalari lug'ati (fonetikasi, leksikasi)*. Toshkent: Fan.
- Rahimov, S. 1985. *O'zbek tili Surxondaryo shevalari (fonetikasi, leksikasi)*. Toshkent: Fan.
- Ibrohimov, S. 1967. *O'zbek tilining Andijon shevasi*. Toshkent: Fan.
- Rustamov, A. 1962. "XV asr o'zbek adabiy tilining vokalizmi". *O'zbek tili va adabiyoti* 6: 67.
- Shoabdurahmonov, Sh. 1983. *Karlukskoe narechie uzbekskogo yazika*. Toshkent: Fan.
- Qudratov, T. 1968. *O'zbek tilining oraliq shevalari (Shahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi va Qamashi rayonlaridagi oraliq shevalar materiallari asosida)*: Filol. fan. nom. diss. Toshkent.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo’lyozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo’ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo’lyozmalar yil davomida o’zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta-siga yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo’yicha MS Word menejerini qo’llash lozim.

Barcha qo’lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig’i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o’ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo’lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

100–150 so’zdan iborat o’zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so’zdan kam bo’lmagan kalit so’zlar (o’zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo’lishi mumkin) 1500 so’zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so’ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo’limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to’q bo’yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o’zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo’lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o’ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi

qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany:
Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar:
Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek
matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti.
<http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni:
maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti."
Oltin bitiglar 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr

sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?" *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

IZOHLAR

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103-uy.
e-mail: oltinbitiglar@gmail.com
Tel.: +99894 697-97-04

Bosishga 30. 09. 2022-yilda ruxsat etildi
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog'i: 8

Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot
agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan
ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77,
+99894 659 94 62